

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

BAXTIYOR OMONOV

PATENTSHUNOSLIKKA KIRISH

Uslubiy qo‘llanma

*(Oliy o‘quv yurtlarining bakalavriat bosqichi
400000 – Biznes, boshqaruv va huquq,
420000 – Huquq, 60421100 – Patentshunoslilik
yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun)*

Toshkent
“Universitet”
2022

UO'K: 347.77(072)

KBK: 67.404.3

O-56

Omonov B.A.

Patentshunoslikka kirish. Uslubiy qo'llanma. -T.: "Universitet", 2022. 192 bet.

Taqrizchilar:

Toshev B.N. – yuridik fanlar doktori, professor

Topildiyev V.R. – yuridik fanlar doktori, professor

“Patentshunoslikka kirish” nomli uslubiy qo'llanma talabalarining talab-istaklarini hisobga olingan holda ishlab chiqilgan. Kitobning mundarijasi va kompozitsion qurilishi o'quv dasturiga moslab tuzilgan. Uning birinchi bobida “Mutaxassislikka kirish” (Patentshunoslik) fani bo'yicha bakalavriat bosqichi talabalari o'quv dasturi asosidagi mavzular tushuntiriladi, nazorat savollari va testlar; ikkinchi bobda intellektual mulk sohasiga tegishli xalqaro konvensiya, bitim, shartnomalarning maqsad-vazifalari va ularning amaliyotda qo'llanilishi hamda Ilovalar o'rin olgan.

Uslubiy qo'llanma patentshunoslar, ixtirochilar, tarixchilar, siyosatshunoslar, huquqshunoslar, tadbirkorlar, yosh tadqiqotchilar, talabalar va intellektual mulk huquqi tizimiga qiziqqan keng kitobxonlar uchun mo'ljallangan.

Uslubiy qo'llanma O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy-uslubiy kengashining 2021-yil 29-noyabrdagi 3-sonli bayonnomasiga asosan, nashrga tavsiya etilgan.

ISBN: 978-9943-7885-7-2

© “Universitet” nashriyoti,
Toshkent, 2022 y.

MUNDARIJA

KIRISH	5
--------------	---

Birinchi bob

INTELLEKTUAL MULKKA DOIR MA'RUZALAR

1-Ma'ruza. "Mutaxassislikka kirish" fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.....	7
2-Ma'ruza. Intellektual mulk ob'ektlarini huquqiy muhofazalash sohasidagi qonunchilik.....	18
3-Ma'ruza. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qilish.....	29
4-Ma'ruza. Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalarining huquqiy muhofazasi	35
5-Mavzu. Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va joy nomlariga huquqiy muhofaza berish	51
6-Mavzu. Patent axboroti va patent tadqiqotlarini o'tkazish	62
7-Ma'ruza. Innovatsion faoliyat asoslari.....	82
8-Ma'ruza. Intellektual mulkni boshqarish	92
"Mutaxassislikka kirish (Patentshunoslik)" fanidan mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular	97
"Mutaxassislikka kirish (Patentshunoslik)" fanidan test savollari	99

Ikkinchi bob

INTELLEKTUAL MULK SOHASIDAGI XALQARO HUJJATLARNING MAZMUN-MOHİYATI

1. Sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij konvensiyasi.....	107
--	-----

2. Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to'g'risidagi Bern konvensiyasi	114
3. Patent huquqi to'g'risida shartnoma	119
4. Tovar belgilari bo'yicha qonunlar to'g'risida shartnoma	123
5. Belgilarni xalqaro ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida Madrid bitimiga bayonnoma	127
6. Belgilarni ro'yxatga olish uchun tovarlar va xizmatlarni xalqaro tasniflash to'g'risida Nissa bitimi.....	131
7. Xalqaro patent tasnifi to'g'risida Strasburg bitimi.....	134
8. Sanoat namunalarining xalqaro tasnifini ta'sis etish to'g'risida Lokarno bitimi	138
9. Yangi o'simlik navlari muhofazasi bo'yicha konvensiya (UPOV)	142
10. Patent jarayoni maqsadlarida mikroorganizmlar deponenlarini xalqaro tan olish to'g'risida Budapesht bitimi.....	147

ILOVALAR

Intellektual mulk huquqiga oid atamalar (glossariy)	151
Intellektual mulk huquqi rivojlanish tarixidan lavhalar	160
Vazirlik mutasaddilari tushunishni istamayotgan haqiqat yoxud boshqa yurtlarda patentlangan o'zbek olimlarining ixtiroolari.....	169
Intellektual mulk aqlni pulga aylantiradi.....	176

KIRISH

Bugungi globallashuv, axborot davrida inson kapitaliga taalluqli resurslar, ilmiy-ijodiy mahsulotlar, yuksak texnologiyalar mamlakat rivojining asosiy omiliga aylanmoqda. Xalqaro doiradagi korporatsiya va markazlar intellektual mulk sohasidagi hisobot va ma'ruzalarini e'lon qilish orqali bu dolzarb masalaga jahon hamjamiyatining e'tiborini qaratib kelmoqda. Masalan, Intellektual Mulk Xalqaro Alyansi (MAIS) shunday tashkilot bo'lib, tarkibiga 130 dan ortiq intellektual ob'ektlari ishlab chiqarish bilan shug'ullanib kelayotgan yirik tashkilot va kompaniyalarni birlashtirgan xalqaro nodavlat tashkilot hisoblanadi. MAIS o'tkazgan tadqiqotlarga ko'ra, MDHning barcha mamlakatlarida 1998 yilga nisbatan 93% qaroqchilik ko'paygan, musiqa sohasida esa qaroqchilik 90 % ga yetgan.

Intellektual mulk huquqi sohasidagi xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurashni jadallashtirish maqsadida BIMT bilan Interpol o'rtasida imzolangan Memorandumga ko'ra, Interpol intellektual mulk qaroqchiligiga qarshi kurashni jadallashtirish maqsadida sohaga oid xalqaro jinoyatchilik haqida axborotlar ba'zasini yaratdi. BIMT sobiq Bosh direktori Komil Idris aytganidek, bunday axborotlar bazasining yaratilishi xalqaro doirada sohaga oid qaroqchilikka qarshi kurashni tezlashtiradi va samara beradi.¹

BIMT 2020 yilgi ma'lumotiga binoan, intellektual mulk qaroqchiligi va kontrafakt mahsulotlar ishlab chiqarish hamda ularni tarqatish natijasida jahon hamjamiyati 300 mlrd. AQSh dollari miqdorida zarar ko'rgan². Demak, O'zbekistonda ham

¹ <http://uzinfo.state.gov/cgi-bin/washfile/display.pl?05.02.2004>

² World Intellectual Property indicators: 2020 edition. G.:WIPO. 2020. P. 48

milliy qonunchilikni xalqaro huquq normalariga yaqinlashtirish masalalari hanuzga qadar yechimini kutmoqda.

2020 yilning 12 oktyabrda davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoevning intellektual mulk tizimini zamon talabiga mos qurish to'g'risida o'tkazgan selektor yig'ilishidan keyin bu sohada sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Savdo-sanoat palatasining bergan axborotiga ko'ra³, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 28 yanvardagi "Intellektual mulk ob'ektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4965-son qarori imzolandi. Intellektual mulk ob'ektlarini davlat ro'yxatiga olish bo'yicha tezkor ekspertiza tartibi joriy etiladigan bo'ldi. **2021 yil 1 iyungacha** intellektual mulk (mualliflik huquqi, turdosh huquqlar va sanoat mulki) ob'ektlarini buxgalteriya hisobida aks ettirilgani bu borada katta qadam bo'ldi. Eksport ulushi umumiy tovar aylanmasining 60 foizidan ortig'ini tashkil etadigan eksport qiluvchi tadbirkorlik sub'ektlari uchun tovar belgilarini 2021-2022 yillarda milliy ro'yxatdan o'tkazish bepul amalga oshiriladi. **2021 yil oktyabr oyida** Agentlik huzurida "**Patent platformasi**" ishga tushirildi. Eng muhimi, 2021 yildan e'tiboran, O'zbekiston milliy universitetida "Patentshunoslik" mutaxassisligiga talabalar qabul qilindi.

"Patentshunoslikka kirish" nomli uslubiy qo'llanma shu sohada tahsil oladigan talabalarga mo'ljallab ilk marta yaratildi. Uni tayyorlashda ko'rsatgan amaliy yordami va qimmatli fikrlari uchun yuridik fanlar doktori, professor Boboqul Tosheva alohida minnatdorchilik bildiramiz. Intellektual mulk sohasiga davlatimiz tomonidan katta e'tibor berilayotganligini hisobga olib, qo'lingizdagi uslubiy qo'llanma yaqin yillarda to'ldiriladi va boyitiladi, deb ishontiramiz.

³ Intellektual mulk himoyasi tizimidagi yangiliklar. <https://chamber.uz/uzk/news/7325>
26.02.2021.

Birinchi bob

INTELLEKTUAL MULKKA DOIR MA'RUZALAR



1-MA'RUZA.

“MUTAXASSISLIKKA KIRISH” FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

Reja:

- 1.“Mutaxassislikka kirish” (Patentshunoslík) fanining maqsad va vazifalari.
- 2..“Mutaxassislikka kirish” fanining asosiy kategoriyalari.
- 3.“Patentshunoslík” ta’lim yo’nalishining tavsifi.
4. “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun (2020) qabul qilinishining zaruriyati va muhim yangiliklari.

1.“Mutaxassislikka kirish” (Patentshunoslík) fanining maqsad va vazifalari

“Mutaxassislikka kirish” fanini o’qitishdan maqsad talabalarda “Patentshunoslík” ta’lim yo’nalishining mazmun va mohiyati, ta’lim yo’nalishining bozor iqtisodiyoti sharoiti tutgan o’rni va roli, O’zbekiston Respublikasi ta’lim tizimining mazmuni hamda kasbiy fanlarni o’qitish jarayonini loyihalashtirish va rejalashtirish yo’llari bo’yicha tushuncha, bilim va ko’nikma hosil qilishdan iborat.

“Mutaxassislikka kirish” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida bakalavr:

talabaning ilmiy tadqiqot olib borishi bosqichlari;

ilmiy ishlar natijalarini taqdim etish usullari;

kasb ta‘limi, iqtisodiyot, huquq ta‘lim yo‘nalishi bakalavrlarining kasbiy faoliyati ob‘ektlari;

bakalavrni tayyorlash sifati va oliy ta‘lim muassasasi faoliyatini baholash;

oliy ta‘lim muassasasida ta‘lim jarayonining shakllari;

mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va hajmi **haqida tasavvurga ega bo‘lishi**;

mutaxassislik fanlaridan kurs ishini tayyorlashni va uni bajarish tartibini;

malakaviy amaliyotning mazmunini va tarkibini;

talabaning fan bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichini nazorat qilish mezonlarini;

“Patentshunoslik” ta‘lim yo‘nalishi o‘quv rejasiga muvofiq, yakuniy davlat attestatsiya sinovlari turlarini ***bilishi va ulardan foydalana olishi***;

Ta‘lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari

Talaba quyidagilarni bilishi kerak:

Fan buyicha talabalarning bilimiga, malaka va ko‘nikmasiga qo‘yiladigan talablar:

nazariy va amaliy muammolarni hal qilish uchun asosiy ilmiy va nazariy bilimlarni qo‘llay olish;

tadqiqot qobiliyatlariga ega bo‘lish;

mustaqil ishlay olish;

og‘zaki va yozma muloqot qobiliyatlariga ega bo‘lish;

ijtimoiy ta‘sir o‘tkazish qobiliyatiga ega bo‘lish;

shaxslararo muloqot qilish qobiliyatiga ega bo‘lish;

jamoada ishlash imkoniyatiga ega bo‘lish;

o‘z maqsadlariga erishish uchun kichik ijrochilar jamoalarining ishini tashkil qilish;

hisobotlar, taqdimotlar uchun materiallar tayyorlash;

patentshunoslikning muqobil yo'nalishlarini va davlat iqtisodiy siyosatini ishlab chiqish jarayonlarini tanlash hamda loyihalashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

davlat dasturlari samaradorligini aniqlash metodologiyasini egallash;

intellektual mulk bozori muhitining davlat va jamiyat rivojiga ta'sirini aniqlashdan iborat.

2. "Mutaxassislikka kirish" fanining asosiy kategoriyalari

Jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotini ta'minlashda turli darajadagi mutaxassislar muhim o'rin egallaydi. Patentshunoslik bo'yicha tayyorlanayotgan kadrlar O'zbekistonda intellektual mulk tizimida yetakchi o'rinni egallaydi. Ular ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari, seleksiya yutuqlari kabi intellektual mulk huquqi ob'ektlariga muhofaza hujjati (patent) olish uchun talabnoma tuzish, referat yozish, ixtiro formulasini ishlab chiqish, ixtirolarni ishlab chiqarishga joriy etishda ishtirok etish, patent huquqi egalaridan ruxsat olmasdan huquqidan foydalanilgan taqdirda, appelyatsion kengash va iqtisodiy sudlarda huquqini himoya qilish, xullas, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, ilmiy-texnikaviy va ijodiy mahsulotlarni iqtisodiyotga tadbiiq qilish masalalariga o'zining munosib hissasini qo'shadi. Patentshunoslik mutaxassisligiga kadrlar gumanitar soha oliy ta'lim muassasalarida birinchi marta o'qitilayotganligi sababli, bu borada "Patent huquqi", "Patent tarixi" kabi o'xshash fanlar ham o'quv jarayonlariga kiritilganini ta'kidlab o'tish lozim.

3. "Patentshunoslik" ta'lim yo'nalishining tavsifi

60421100 – Patentshunoslik ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi oliy ta'limning o'quv reja va fan dasturi asosida amalga oshiriladi, uning nazariy va amaliy

mashg'ulotlarini to'liq o'zlashtirgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan shaxsga «bakalavr» malakasi (darajasi) hamda oliy ma'lumot to'g'risidagi davlat namunasidagi rasmiy hujjat (lar) beriladi.

Ushbu yo'nalishda fanni o'rganish natijasida talaba:

patentshunoslikning konseptual va kategorial apparati;

Intellektual mulk ob'ektlariga muhofaza hujjatini olish uchun talabnoma tayyorlash usullari;

patentshunoslik, patent tarixi, zamonaviy boshqarish va iqtisodiyotni rivojlantirish nazariyalari;

O'zbekistonda intellektual mulk tizimi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari;

hozirgi bosqichda O'zbekiston jamiyati hayotida ixtirolar, tovar belgilari, umuman, intellektual mulk sohasining o'rnini va roli;

korxonalarni boshqarishda ixtiro patentlari portfelini ko'paytirish ahamiyatini tahlil qilish;

iqtisodiy rivojlanish jarayonlarida patentlash va patentshunos kadrlarning tutgan o'rnini ochib berish;

zamonaviy iqtisodiy jarayonlarning rivojlanish istiqbollari baholash;

jamiyat iqtisodiy sohalari ahvolini ko'rib chiqishga tizimli yondashish va ularga intellektual mulk tizimining ta'sirini hisobga olish;

patentshunoslikka oid bilimlarni ijtimoiy va kasbiy muammolarni hal qilishda qo'llash;

kerakli patent ma'lumotlarini izlash va tahlil qilish, ahamiyatini baholash, bililardan ixtirolar, foydali modellar va boshqa intellektual mulk ob'ektlariga muhofaza huquqini olish jarayonida foydalanish, paydo bo'lgan muammolarga yechimlarni taklif qilish ko'nikmalari;

nazariy va amaliy sohalardagi iqtisodiy va texnik tahlil usullari.

“Patentshunoslikka kirish” fanida zamonaviy o'zaro mu-

loqot, bahs, munozara, masofali o'qitish, "SWOT" tahlili, "Espert baholash" usuli, "Klaster" usuli, "Sinkveyn" usuli, "O'yinlar nazariyasi" usuli, "Aqliy hujum" usuli, "Menyu" usuli va boshqa interfaol usul hamda uslublardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

4. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (2020) qabul qilinishining zaruriyati va muhim yangiliklari

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi"gi Konuniga asoslanadi⁴. Mazkur konun 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan.

Qonunning **3-moddasida** quyidagi **asosiy tushunchalar** qo'llanilgan:

davlat ta'lim muassasasi — davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo'lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta'lim standartlariga va davlat ta'lim talablariga muvofiq ta'lim beradigan muassasa;

davlat ta'lim standartlari — davlat tomonidan ta'limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui;

davlat ta'lim talablari — ta'limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek ta'lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo'yiladigan majburiy talablar;

malaka — shaxsning kasbiy faoliyatning muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma'lumot to'g'risidagi tegishli hujjat bilan tasdiqlanadigan bilim, qobiliyat, mahorat va ko'nikmalar darajasi;

mutaxassislik — malaka berish bilan yakunlanadigan muayyan kasbiy tayyorgarlik turining nomi;

nodavlat ta'lim tashkiloti — davlat ta'lim standartlari, dav-

⁴ O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.

lat ta'lim talablari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziya asosida ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxs;

tarbiya — aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

ta'lim — ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

ta'lim kampusi — yagona hududda birlashtirilgan o'quv binolarini, ilmiy-tadqiqot institutlarini (markazlarini), ishlab chiqarish majmualari va texnoparklarni, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining vaqtincha yashash joylarini, laboratoriyalarni, axborot-resurs markazlarini (kutubxonalarni), sport inshootlarini, umumiy ovqatlanish ob'ektlarini o'z ichiga olgan binolar hamda inshootlar majmuidan iborat bo'lgan, o'quv jarayoni, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yuqori samaradorligini ta'minlaydigan ta'lim-tarbiya muhiti;

ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari — ta'lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari va hokazo.

Ta'lim turlari quyidagilardan iborat:

maktabgacha ta'lim va tarbiya;

umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;

professional ta'lim;

oliy ta'lim;

oliy ta'limdan keyingi ta'lim;

kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish; maktabdan tashqari ta'lim (7-modda).

Qonunga birinchi marta masofaviy ta'lim, dual ta'lim, in-

klyuziv ta'lim eksternat tartibidagi ta'lim tushunchalari kiritildi. Bu so'zlarning ma'nosi quyidagicha.

16-modda. Masofaviy ta'lim

Masofaviy ta'lim o'quv rejalari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan.

Masofaviy ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

17-modda. Dual ta'lim

Dual ta'lim ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni olishga qaratilgan bo'lib, ularning nazariy qismi ta'lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta'lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi.

20-modda. Inklyuziv ta'lim

Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi.

21-modda. Eksternat tartibidagi ta'lim

Eksternat tartibidagi ta'lim olish o'quv dasturlarini mustaqil ravishda o'zlashtirishni o'z ichiga olib, uning yakunlari bo'yicha ta'lim oluvchilardan davlat ta'lim muassasalarida yakuniy va davlat attestatsiyalaridan o'tishni talab etadi.

Shu bilan birga, 2020 yilda qabul qilingan yangi qonunda raqobatni yanada kuchaytirish maqsadida nodavlat ta'lim tizimi maqomi belgilandi.

31-modda. Nodavlat ta'lim tashkilotlari

Nodavlat ta'lim tashkilotlari o'z faoliyatini litsenziya asosida amalga oshiradi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlari litsenziya talablariga va shartlariga muvofiq ta'lim xizmatlari ko'rsatadi.

Davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablariga muvofiq ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi nodavlat ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni beradi.

Mustaqil ishlab chiqilgan va litsenziyada ko'rsatilgan o'quv dasturlari bo'yicha ta'lim xizmatlari ko'rsatadigan nodavlat ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarga O'zbekiston Respublikasida tan olinadigan ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni beradi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlari normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish va yuqori kasbiy mahoratga ega bo'lgan pedagog kadrlar va boshqa kadrlarni jalb qilish bo'yicha chora-tadbirlar ko'radi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan o'quv dasturlari bo'yicha o'qitish ta'lim oluvchi yoxud uning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari va nodavlat ta'lim tashkiloti o'rtasida tuziladigan, o'qitish muddatlari, shartlari va to'lovlari, tomonlarning huquq va majburiyatlari hamda boshqa shartlar belgilanadigan shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Demak, respublikamizda davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari ijodiy va ilmiy raqobat muhitida shakllanadi va rivojlanadi.

Endilikda qonunning 32-moddasiga ko'ra, Ta'lim tashkilotining namunaviy ustavi:

umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari, ixtisoslashtirilgan maktablar va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari uchun — O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan;

Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar uchun — O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi tomonidan;

oliy ta'lim muassasalari huzuridagi ixtisoslashtirilgan maktablar, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim tashkilotlari uchun — O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan;

kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha ta'lim tashkilotlari uchun — tegishli vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar tomonidan ishlab chiqiladi.

Ta'lim tashkilotining ustavi ta'lim tashkilotining ta'asischilari tomonidan tasdiqlanadi va hududiy tegishlilik bo'yicha Davlat xizmatlari markazi tomonidan ro'yxatga olinadi.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, O'zbekistonda mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimi jahon andozasi asosida, zamonaviy talablarga javob bergan holda faoliyat yurita boshlaydi.

4.1. "Ta'lim to'g'risidagi" gi Qonunda mutaxassislar tayyorlashga qo'yiladigan talablar

O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini, jamiyatning ma'naviy yangilanishini, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishni, jahon hamjamiyatiga qo'shilishni ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurmoqda.

Inson, uning har tomonlama uygun kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

Qonunning **35-moddasida** ta'kidlanganidek:

Kasbga oid fanlarning o'quv dasturlari ta'lim oluvchilar tomonidan tegishli kasblar va mutaxassisliklarni egallashga qaratilgan.

Ta'lim jarayoniga o'quv rejalari va o'quv dasturlarini joriy etish ta'lim tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi.

O'quv rejalari va o'quv dasturlarini joriy etish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o'qitishning innovatsion shakllari va usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llaniladi.

Ta'lim jarayoniga o'quv rejalari va o'quv dasturlarini joriy etish chog'ida ta'lim tashkilotlari kredit-modul tizimiga asoslangan o'qitish texnologiyalaridan foydalanishi mumkin.

O'quv rejasida, qoida tariqasida, ta'lim jarayonining jadvali, o'qitishning boshlanishi, muddati va davriyligi, o'quv yillari, choraklar, semestrlar, amaliyot, ta'tillar hamda attestatsiya, ajratilgan haftalar soni, o'rganiladigan fanlar (modullar) va ularga ajratilgan soatlar (kreditlar) hamda boshqa zarur parametrlar aks ettiriladi.

Professional va oliy ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga doir o'quv rejalarda ta'lim oluvchilar uchun amaliyot o'tash nazarda tutiladi.

Ta'lim oluvchilarning amaliyotni o'tash tartibi va uni tashkil etish ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan belgilanadi.

Professional va oliy ta'limga doir o'quv rejalari davlat ta'lim standartlariga muvofiq mutaxassislik fanlaridan, shuningdek umumkasbiy, matematika, tabiiy-ilmiy, gumanitar va qo'shimcha fanlardan shakllantiriladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Mutaxassislik tushunchasi mazmunini tushuntiring.
2. Patentshunoslikning mohiyati va mazmunini izohlang.
3. Patentshunoslik ta'lim yo'nalishining maqsadi nimada.
4. Patentshunoslikning iqtisodiyot, texnika sohasi bilan bog'liqligi nimada?

5. Fanning maqsadi va vazifalarini aytib bering.
6. Fanning boshqa mutaxassislik fanlari bilan aloqasi.
7. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari nimada?
8. "Ta'lim to'g'risidagi"gi Konunda mutaxassislar tayyorlashga qo'yiladigan talablar.
9. Jamiyatda shaxs va uning vazifalari.
10. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunga (2020) kiritilgan asosiy tushuncha va yangiliklarni so'zlab bering.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.– T: O'zbekiston, 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. 1031-1111 moddalar. T: 1997.
3. Amonov B. va boshqalar. Normativ huquqiy hujjatlar to'plami. T: 2009. 948 b.
4. Osnovi izobretatelstva i patentovedeniya. (Bakalavriat i magistratura). Uchebnoe posobie Kravchenko I.N., KnoRus 262 s. 2020.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 29.12.2020. / **https://president.uz/uz/lists/view/4057**
6. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. 2020 yil 23 sentabr. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son; *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021 y., 03/21/721/0952-son.

2-MA'RUZA.

INTELLEKTUAL MULK OB'EKTLARINI HUQUQIY MUHOFAZALASH SOHASIDAGI QONUNCHILIK

Reja:

1. Intellektual mulk (IM)tushunchasi mohiyati.
2. IM ob'ektlari
3. IM sohasida xalqaro qonunchilik.
4. IMga oid milliy qonunchilik bazasi shakllanishi va rivojlanishi

Bugungi kunga kelib, intellektual mulkni muhofaza qilish sohasida 10 ta davlatlararo, 14 ta hukumatlararo va 22 ta idoralararo shartnoma, bitimlar tuzilib amal qilmoqda. Mazkur hujjatlar ilmiy-texnikaviy ishlanmalarni chet elda muhofaza qilishga va eksporterlarning tashqi iqtisodiy faoliyatiga yordam beradi hamda chet el investitsiyalarini milliy sanoatimizga jalb qilishga yo'naltirilgan.

1996 va 2000 yillarda BIMT Bosh direktorlari janob Arpad Bogsh va janob Komil Idris boshchiligidagi BIMTning Xalqaro byurosi delegatsiyalarining rasmiy tashriflari chog'ida O'zbekistonning davlat patent-litsenziya siyosatini o'tkazishdagi xalqaro nufuzi rasman e'tirof etildi. Jahonning davlat rahbarlari orasida birinchilardan bo'lib O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning milliy patent tizimini yaratish va rivojlantirishdagi, ilmiy-texnologik va ixtirochilik faoliyatiga yordam ko'rsatishdagi buyuk shaxsiy hissasi hamda mamlakatimizning sanoat mulkini muhofaza qilishning xalqaro patent-huquqiy tizimida faol ishtiroki uchun Butunjahon intellektual mulk tashkilotining Katta oltin medali (1996) bilan taqdirlanganligi buning yorqin dalilidir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasida «*Har kim fikrlash, so‘z va e‘tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o‘zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega*»⁵, deyiladi. Konstitutsiyadagi bu vakolat har qanday shaxsga ijod bilan erkin shug‘ullanish va o‘z tafakkur mahsulotlarini hech bir to‘siqsiz tarqatish imkoniyatini beradi. Xalqaro hujjatlardan Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi (18,19-moddalari), Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi Xalqaro Pakt (18,19-moddalari) va boshqalarda mualliflik huquqi masalalariga katta o‘rin berilgan. Ayniqsa, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 27-moddasida «*har bir inson jamiyatning madaniy hayotida erkin ishtirok etishga, san‘atdan bahramand bo‘lishga, ilmiy taraqqiyotda ishtirok etish va uning samaralaridan foydalanish huquqiga ega*»⁶, deyilgani mualliflik huquqining bevosita inson huquqlariga daxldor ekanligini ko‘rsatadi.

Ijod erkinligi ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish, ilmiy ixtirolar yaratish, adabiyot va san‘atda yangi asarlar ijod etish asosida amalga oshirilishi natijasida ta‘minlanadi. Davlat esa mualliflarning bosh homiysi, jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g‘amxo‘rlik qiladi. YUNESKO Ustavining 1-moddasida⁷ tashkilot “insoniyatning butun dunyoviy merosi-kitoblar, san‘at asarlari hamda tarixiy va ilmiy ahamiyatga molik asarlarni saqlash va qo‘riqlash haqida g‘amxo‘rlik qilgan holda aqliy faoliyatning barcha sohalarida, ta‘lim, fan va madaniyat sohasida ishlovchi shaxslarning xalqaro almashtiruvini rag‘batlantirgan holda...nashrlar, sa‘at asarlari almashinuvida, mamlakatlardagi barcha nashrlar bilan barcha xalqlarni tanishtirishni ta‘minlaydi”, deyilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki mualliflar huquqi va asarlar daxlsizligi bevosita

⁵ O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: O‘zbekiston, 2020. -B.8

⁶ Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. -T.: Adolat, 2010. -B. 35.

⁷ <http://library.ziyonet.uz/uz/book/download/115806>

BMTning maxsus ixtisoslashgan tashkiloti bo'lmish YuNESKONing Ustavida belgilanishi bu sohaga nechog'li e'tibor qaratilayotganidan dalolat beradi.

1956 yili 35 davlat vakillari ishtirok etgan Xalqaro mualliflar va bastakorlar konfederatsiyasi (SIZAK) tomonidan qabul qilingan Xartiyada⁸ ham adabiyot, san'at, badiiy va ilmiy asarlar mualliflari jamiyatda ma'naviy va intellektual rol o'ynaydiki, ular insoniyatning umumiy manfaatlari oldida javobgardir va sivilizatsiyaning rivojlanishida hal qiluvchi kuch hisoblanadi, deb aytilgan. Davlatlar muallifga nafaqat shaxsiy yutuqlarini, balki umuminsoniy qadriyatlar yaratishdagi manfaatlarini hisobga olgan holda yanada kengroq himoya yaratishi lozim. Har qanday davlat milliy qonunchilik tizimini yaratayotganda mualliflik huquqiga oid yuqoridagi huquqiy normalar va nazariy yo'nalishlarni qonun normalari bilan uyg'unlashtirmog'i darkor.

Mualliflik huquqi fuqarolik huquqining tarkibiy qismi hisoblanib, bevosita fuqarolik huquqiy normalar bilan tartibga solinadi. Mualliflik huquqi asosan fan, adabiyot, san'at va boshqa turdagi asarlarni yaratish va undan foydalanish natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Ana shu ijtimoiy munosabatlarda bir tomondan mualliflar (jismoniy shaxslar), ikkinchi tomondan foydalanuvchi (jismoniy yoki yuridik shaxs)lar ishtirok etadi. Yuzaga kelgan har qanday ijtimoiy munosabatlar huquqiy jihatdan tartibga solinganda fuqarolik huquqi yoki xalqaro xususiy huquqning beglilari paydo bo'ladi. Shuning uchun ham butun dunyoda mualliflik huquqi fuqarolik-huquqiy normalar orqali tartibga solinadi.

Har qanday huquq sohasi kabi mualliflik huquqining ham predmeti va prinsiplari mavjud. Mualliflik huquqining predmeti tayyor asarlar yoki unga tenglashtirilgan ob'ektlar hisoblanadi. Yaratilmagan asar (ob'ekt) uchun har qanday ke-

⁸ <http://library.ziyonet.uz/ru/book/download/78102>

lishuv o'z-o'zidan haqiqiy hisoblanmaydi yoki asar yaratishni buyurtma berishda kelib chiqadigan munosabatlar mualliflik huquqi bilan tartibga solinmaydi.

Har qanday davlatda mualliflik huquqi qonunchiligi yaratilishi bilan huquq tizimi ham shakllanadi. Olimlar mualliflik huquqi himoyasining qonunchilikda 3 turi: rim huquqi, anglosaksoniya va sotsialistik tizim qonunchiligiga mavjud edi, deb fikr bildirishadi. Asosan sho'rolar davri qonunchiligini tahlil etgan olimlardan M.V.Gordon, Ye.A.Fleyshis, N.A.Raygorodskiy, A.M.Garibyan, O.S.Ioffe, M.M.Boguslavskiy, E.P.Gavrilov va boshqalar sotsialistik tizim jahonda mualliflik huquqi himoya tizimini yaratishda tub burilishi yasadi, shunga ko'ra bir qator xalqaro konvensiyalar sotsialistik tuzum prinsiplaridan kelib chiqib qabul qilindi⁹, deyishadi. Olimlarning bunday qarashlariga unchalik qo'shilib bo'lmaydi. Chunki, sho'rolar tuzumi sharoitida qabul qilingan mualliflik huquqiga oid qonunchilikda muallif emas, uning asarlari birinchi o'rinda himoya qilingan, qonunlarda esa ijrochilar va ularga tenglashtirilgan sub'ektlarning huquqlarini himoya qilish tizimi mavjud emas edi. V.V.Belov, G.V.Vitaliev, G.M.Denisovlarning fikriga ko'ra ham "asosiy maqsad davlat manfaatlarini himoya qilish va ta'minlash, ijodiy faoliyat natijalarini esa yaratishda "ijtimoiy foydaligi" asosiy mezon bo'lgan.

Fan va texnikaning shiddatli rivojlanishi, uning barcha sohalariga yuqori informatsion texnologiyalarni kirib kelishi natijasida yaratilayotgan yangiliklar, yangi texnik yechimlar, elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar, ma'lumotlar bazalari, o'simliklarning yangi navlari, hayvonlarning yangi zotlari, mikrosxemalar topologiyalari kabi intellektual mulk ob'ektlarini yaratuvchi ijodkor insonlarning huquqini himoya

⁹ Qarang.: Xudayberdieva G. Xalqaro tashkilotlarning mualliflik va turdosh huquqlar sohasidagi qonun ijodkorligi faoliyatining ayrim qirralari. Yurist axborotnomasi. №4 (2020). –B. 162.<https://www.yuristjournal.uz/index.php/lawyer-herald/article/download/100/87>

qilish zaruriyati intellektual mulkni qonun bilan muhofaza qilishni taqozo etadi.

Huquq sohasiga oid adabiyotlarda intellektual mulk ob'ektlari shartli ravishda uch guruhga ajratiladi:

1. Mualliflik huquqi ob'ektlari;
2. Sanoat mulki (patent huquqi) ob'ektlari;
3. Fuqarolik muomalasi ishtirokchilari, tovarlar, xizmatlarning xususiy alomatlarini individuallashtirish vositalari.

Birinchi, mualliflik huquqi ob'ektlariga fan, adabiyot, san'at asarlari, ijrochilik faoliyati, eshittirish tashkilotlari ijrolari, fonogrammalari va eshittirishlari, radio-teleko'rsatuvlar, EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari kiradi.

Ikkinchi, sanoat mulki (patent huquqi) ob'ektlariga ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, oshkor etilmagan axborot, shu jumladan ishlab chiqarish sirlari (nou-xau) va boshqalar kiradi.

Uchinchi, tovar belgilari va xizmat ko'rsatish belgilari, firma nomlari, tovar kelib chiqqan joy nomi kabila esa fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar, xizmatlarning xususiy alomatlarini individuallashtirish vositalari ob'ektlari hisoblanadi.

Keyingi yillarda o'ziga xos yangi guruh paydo bo'ldi, bular seleksiya yutuqlari, integral mikrosxemalar topologiyalari ob'ektlaridir.

Jahonning ko'pgina mamlakatlarida ixtiro, foydali model, sanoat namunasi kabi sanoat mulki ob'ektlariga beriladigan muhofaza hujjati patent, tovar belgisiga beriladigan muhofaza hujjati esa guvohnoma, deb qabul qilingan. Patent ma'lum bir hudud chegarasida va ma'lum vaqt davomida amal qiladi, ya'ni bir davlat patenti boshqa davlat hududida amal qilmaydi. Shuni ta'kidlash lozimki, patent davlat nomidan beriladi va mazkur sanoat mulki ob'ektiga mutlaq egalik huquqini kafolatlaydi.

Sanoat mulki ob'ektini huquqiy jihatdan muhofazalash,

ya'ni patent olish uchun eng avvalo tegishli talabnomani rasmiylashtirib vakolatli davlat organiga topshirish lozim bo'ldi. Ushbu vakolatli davlat organi patent berishi so'ralayotgan ob'ektning patentga layoqatlilik shartlariga muvofiqligini tekshirish orqali patent ekspertizasini o'tkazadi, ekspertiza natijalari bo'yicha rasmiy ro'yxatga oladi, shu ob'ekt haqidagi ma'lumotlarni rasmiy nashrda chop etib ommaga oshkor qiladi.

Patent idorasining faoliyati **birinchi bosqichi (1992-1997 yy.)** jahon patent tizimi amaliy ish tajribasini o'rganish va iqtisodiy oyoqqa turish yillari bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. **Ikkinchi bosqich (1998-2008 yy.)** intellektual mulk ob'ektlarini huquqiy jihatdan muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlarini takomillashtirishga qaratildi va turgan gapki, bu mamlakatimizga katta iqtisodiy samara keltirdi. Jumladan, istiqloq yillarida "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida", "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida", "Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida", "Integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risida", "Seleksiya yutuqlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlari qabul qilindi. Mazkur Qonunlarning Davlat patent idorasidagi ijrosi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan muntazam ravishda muhokama qilinmoqda. Bularidan tashqari, **Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tkazilgan umummajburiy xarakterdagi 15 ta hujjat va idora faoliyatini tartibga soladigan 120 dan ziyod normativ hujjatlar ham ro'yxatga olinganligini qayd etib o'tish lozim.** Bular hammasi rivojlangan davlatlarning shu sohada faoliyat olib boradigan idoralari ishlash mexanizmlarini respublikamizda tizimli, ham samarali joriy etish imkonini bermoqda. **Uchinchi bosqich** 2009 yildan boshlanib, "Hamkorlar bilan ishlash davri" deb nomlangan.

Huquqiy muhofaza qilinadigan intellektual mulk ob'ektlari haqida jamoatchilikni xabardor qilish vazifasi ham Patent idorasiga yuklatilgan. Shu maqsadda idorada har oyda «Rasmiy axborotnoma» byulleteni nashr qilingan, har chorakda “Intellektual mulkni boshqarish” jurnali, har yili asosiy yo'nalishlar faoliyati yakunlari haqida Yillik tahliliy hisobot kitobi chiqadi, shu bilan birga eng zarur ma'lumotlar, normativ hujjatlar doimiy ravishda **patent.uz** veb-saytida joylashtirib borilgan.

O'zbekiston Respublikasida intellektual mulk ob'ektlari muhofazasi sohasidagi vakolatli davlat organi vazifasini Mualliflik huquqlari bo'yicha agentlik va Davlat patent idorasi bajarib kelgan bo'lsa, 2011 yilda ikki tashkilot birlashib, Intellektual mulk agentligiga aylantirildi¹⁰. 2019 yilga kelib, mazkur Agentlik Adliya vazirligi tasarrufiga o'tkazildi¹¹.

Intellektual mulk ob'ektlarining huquqiy muhofazasi sohasidagi respublikamiz a'zo bo'lgan xalqaro kelishuvlar va shartnomalar quyidagilar:

1. Sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij konvensiyasi.

2. Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to'g'risidagi Bern konvensiyasi.

3. Patent huquqi to'g'risida shartnoma.

4. Tovar belgilari bo'yicha qonunlar to'g'risida shartnoma.

5. Belgilarni xalqaro ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida Madrid bitimiga bayonnoma.

6. Belgilarni ro'yxatga olish uchun tovarlar va xizmatlarni xalqaro tasniflash to'g'risida Nissa bitimi.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.05.2011 y. PQ-1536-son “O'zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligini tashkil etish to'g'risida”gi Qarori.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.02.2019 y. PQ-4168-son “Intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori. <https://lex.uz/docs/4195426>

7. Xalqaro patent tasnifi to'g'risida Strasburg bitimi.
8. Sanoat namunalari xalqaro tasnifini ta'xis etish to'g'risida Lokarno bitimi.
9. Yangi o'simlik navlari muhofazasi bo'yicha konvensiya (UPOV).

10. Patent jarayoni maqsadlarida mikroorganizmlar.

Bundan tashqari, O'zbekiston yana bir necha davlatlararo va idoralararo kelishuvlarga hamda MDH kengashi doirasida tashkil etilgan kelishuvlarga a'zo bo'lgan. Bugungi kunda respublikamizda Rossiya Federatsiyasi, Ukraina Respublikasi, Gruzsiya, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Xitoy Xalq Respublikasi va boshqa davlatlar bilan imzolangan ikki tomonlama xukumatlararo shartnomalar amal qilmoqda.

Intellektual mulk ob'ektlariga huquqlarni himoya qilishni ta'minlash har qanday davlatning sanoat mulki, mualliflik huquqi va turdosh huquqlar sohasidagi qonunchiligining ajralmas va muhim qismidir. O'zbekiston Respublikasida intellektual mulk ob'ektlarini muhofaza qilishning qonunchilik tizimi O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, sohaga oid ixtisoslashtirilgan qonunlar va boshqa qonunosti hujjatlaridan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasiga muvofiq, *"Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi"*¹².

Konstitutsiyamizning ushbu qoidasiga asoslanib, hamda O'zbekiston Respublikasi ishtirok etgan xalqaro shartnomalar va bitimlardan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasining **Fuqarolik Kodeksi (FK)da intellektual mulk munosabatlariga bag'ishlangan IV bo'limi mavjud.**

O'zbekiston Respublikasi FKning 1031-moddasida intel-

¹² O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 2020. B. 9.

lektual mulk ob'ektlari ikkita asosiy guruhlarga ajratilgan¹³:

intellektual faoliyat natijalari: fan, adabiyot va san'at asarlari; ijrolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotlarning ko'rsatuvlari yoki eshittirishlari; elektron hisoblash mashinalari (bundan buyon matnda EHM deb yuritiladi) uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari; ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari; seleksiya yutuqlari; oshkor etilmagan axborot, shu jumladan ishlab chiqarish sirlari (nou-xau);

fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar, ishlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar: firma nomlari; tovar belgilari (xizmat ko'rsatish belgilari); tovarlar chiqarilgan joy nomi.

FK amaldagi me'yorlariga ko'ra, intellektual mulk ob'ektlarini huquqiy muhofaza qilish ularning yaratilganligi tufayli yoxud ushbu Kodeksda yoki boshqa qonunlarda nazarda tutilgan hollarda va tartibda vakolatlangan davlat organi (O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi) tomonidan huquqiy muhofaza berilishi natijasida yuzaga keladi. Intellektual faoliyat natijalari guruhiga mansub bo'lgan intellektual mulk ob'ektlarining mualliflari ana shu natijalarga nisbatan shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquqlarga ega bo'lalilar. Shaxsiy nomulkiy huquqlar muallifga, uning mulkiy huquqlaridan qat'i nazar, tegishli bo'ladi va uning intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan mulkiy huquqlari boshqa shaxsga o'tgan taqdirda ham uning o'zida saqlanib qoladi.

Fuqarolik muomalasi ishtirokchilari, tovarlar, ishlar yoki xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalarining huquq egalari bu vositalar borasida mulkiy huquqlar tegishli bo'ladi.

Mualliflik huquqi (intellektual faoliyat natijasining muallifi deb e'tirof etilish huquqi) shaxsiy nomulkiy huquq hisob-

¹³ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996 y., 11-12-son,

lanib, ijodiy mehnati bilan intellektual faoliyat natija- sini yaratgan shaxsgagina tegishli bo'ladi. Mualliflik huquqi boshqa shaxsga o'tkazilishi va berilishi mumkin emas. Agar ijodiy mehnat natijasi ikki yoki undan ortiq shaxsning birgalikdagi ijodiy mehnati bilan yaratilgan bo'lsa, ular hammualliflar hisoblanadilar. Intellektual mulkning ayrim ob'ektlariga nisbatan qonunda asarning to'laligicha hammualliflari deb hisoblanadigan shaxslar doirasi cheklab qo'yilishi mumkin.¹⁴

Asosiy hujjatlardan biri FKning 1041-moddasida mualliflik huquqi ob'ektlari aniq belgilab o'tilgan: biron-bir ob'ektiv shakldagi yozma (qo'lyozma, mashinkalangan yozuv, notali yozuv va hokazo), og'zaki (omma oldida so'zlash, omma oldida ijro etish va hokazo), ovozli yoki video yozuv (mexanik, magnitli, raqamli, optik va hokazo), tasvir (rasm, eskiz, manzara, tarh, chizma, kino-, tele-, video- yoki foto-kadr va hokazo), hajmli-fazoviy (haykal, model, maket, ins-hoot va hokazo) asarlar.

Nazorat uchun savollar

1. IMga oid xalqaro hujjat va bitimlarni sanab o'ting.
2. IMga oid O'zbekistonda qabul qilingan qonunlar-ning mamlakat taraqqiyotidagi ahamiyati nimada?
3. Fuqarolik kodeksida IM tizimiga taalluqli qaysi ma-salalar yoritilgan?
4. 1992 yildan 2011 yilgacha faoliyat olib borgan Pa-tent idorasining IM sohasi rivojiga qo'shgan hissasi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. T: IPS. NORMA. 1997
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodek-si. T: IPS. NORMA. 1998.

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, 1032-1033-mod-dalar

3. O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida" qonuni. T.: IPS. NORMA. 2006.

4. O'zbekiston Respublikasining "Ixtirolar, foydali model-lar va sanoat namunalari to'g'risida" gi Qonuni. T.: IPS. NOR-MA.2002.

5. O'zbekiston Respublikasining "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'ri-sida" qonuni. T.: IPS. NORMA. 2001.

6. Toshev B. Xalqaro tashkilotlarning mualliflik huquqiga oid aktlarining huquqiy maqomi.-T.: Voris-Nashriyot, 2007.

7. Osnovi nauchnix issledovaniy i patentovedenie: ucheb.-metod. Posobie/ Novosib. gos. agrar. un-t. Injener. in-t; sost.: S. G. Shukin, V. I. Kochergin, V. A. Golovatyuk, V. A. Val-kov.- Novosibirsk: Izd-vo NGAU. 2013.- 228 s.

8. Kommersializatsiya intellektualnoy sobstv.: Monogr. /VI.Muxopad - M.:Magistr, NIS INFRA-M, 2019. -512s.

9. Osnovi izobretatelstva i patentovedeniya. (Bakalavriyat i magistratura). Uchebnoe posobie Kravchenko I.N., KnoRus, 2020. 262 s.

10. Djumaxo'jaev A. Patentshunoslik. T.: Mehnat, 2001.

11. Cherkasova O. Zashita intellektualnoy sobstvennosti : ucheb. posobie / O. V. Cherkasova ; M-vo obrazovaniya i nau-ki Ros. Federatsii, Ural. feder. un-t. — Yekaterinburg : Izd-vo Ural. un-ta, 2017. — 102 s.

12. Amonov B., Ergasheva F. O'zbekiston Respublikasi Dav-lat patent idorasi islohot yo'lida. T.: O'zR DPI, 2011.

13. Amonov B., Yermolaeva V., Karimova S. O'zbekiston Respublikasining istiqbolli ixtirolari. Toshkent: O'zR DPI, 2009. 56 bet.

3-MA'RUZA.

MUALLIFLIK HUQUQI VA TURDOSH HUQUQLARNI HIMOYA QILISH

Reja:

1. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar tushunchasi mohiyati.
2. "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"-gi Qonunning asosiy maqsadi.
3. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar ob'ektlari.

Mualliflik huquqining vazifasini ta'riflayotganda, avvalo, uning qonunchilikda qanday hajmlarda belgilanganidan kelib chiqish lozim. Yuqorida aytilganiday, agarda qonunlarda mualliflik huquqini himoya qilish shakli yoki asardan foydalanish usullari yoxud bu sohadagi huquqbuzarlik turlari ko'rsatilgan bo'lsa, bunday qonunlarni mualliflik huquqini himoya qilishga ko'maklashuvchi qonunlar, deb atash mumkin. Bunday qonunlar sirasiga O'zbekiston Respublikasining "Noshirlik faoliyati to'g'risida", "Reklama to'g'risida", "Omma-viy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonunlarni kiritish mumkin.

Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar himoyasiga qaratilgan qonunlar sohaga oid ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

"Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonuni (2006) ning **asosiy maqsadi** quyidagilarda namoyon bo'ladi:

qonun mualliflarni tan oladi va ularning shaxsiy huquqlarini mustahkamlaydi;

mualliflik huquqi qonunchiligi bilan himoya qilinadigan turdosh huquqlar sub'ektlarini tan oladi va ularning huquqlarini ta'minlaydi;

mualliflar va ularga tenglashtirilgan shaxslarning alohida huquqlari borligini e'tirof etadi;

mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni nazariy jihatdan ta'riflash imkonini beradi;

mualliflik huquqi va turdosh huquqlarning qancha vaqt himoyada bo'lishini kafolatlaydi;

asarlarning turlarini belgilaydi;

huquq egalari tegishli bo'lgan huquqlardan vaqtincha foydalanish uchun uni uchinchi shaxslarga o'tkazish tartibini belgilaydi;

asarlardan faqat ruxsatnoma asosida foydalanish tartibini belgilab beradi.

Mualliflarning shaxsiy huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunlar jumlasiga O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida", "EHM uchun yaratilgan dasturlar va axborotlar bazasi to'g'risida", "Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to'g'risida"gi Qonunlarni kiritamiz. Fuqarolik kodeksi, Shaharsozlik kodeksi va boshqa qonunlar mualliflik huquqiga oid asosiy qoidalarni belgilagan. Sohaga oid qonunlar qabul qilinayotganda ana shu kodekslarga asoslanish zarur bo'ladi.

Milliy qonunchilik asoslarini yaratish va milliy qonunchilik tizimini shakllantirishda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarga oid xalqaro-huquqiy hujjatlardan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. BIMT tomonidan 1976 yilda Tunisda qabul qilingan "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida Namunaviy Qonun" milliy qonunchilikni takomillashtirish va tan-diqiy ko'rib chiqishda huquqiy asos bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda muallifli huquqi bajarishi lozim bo'lgan vazifalar ko'lamidan kelib chiqib, sohaga oid qonunchilik tizimini quyidagicha **turkumlash** mumkin:

umumiy qoidalar;
mualliflik huquqining paydo bo'lish asoslari;
mualliflik huquqining amal qilishi;
mualliflik huquqining ob'ektlari;
mualliflarning shaxsiy huquqlari;
huquqlarni o'zgalarga o'tkazish tartibi;
turdosh huquqlar ob'ektlari;
turdosh huquqlar sub'ektlari;
turdosh huquqlarning amalda bo'lishi va himoya qilish muddatlari;
mulkiy huquqlarni boshqarish tartibi;
huquqbuzarlik turlari va javobgarlik;
buzilgan huquqlarni tiklash yo'llari va tartibi.

Amalda mualliflik huquqi qonunlari qo'llanishi uchun qonunosti hujjatlarini qabul qilish, ham bir muallifga tegishli bo'lgan huquqlarini ro'yobga chiqarish imkonini beradi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan bir qator shunday vazifani bajarishga qaratilgan qatorlar va nizomlar qabul qilingan. Xulosa qilib aytganda, respublikamizda mualliflik huquqiga oid qonunchilik bazasi shakllangan va ma'lum darajada huquqiy himoya tizimi yuzaga kelgan, deyish mumkin.

Mualliflik huquqi ob'ektlari turlari:

- adabiy asarlar (adabiy-badiiy, ilmiy, o'kuv, publitsistik va boshqa asarlar);
- dramatik va ssenariy asarlar;
- matnli va matnsiz musiqa asarlari;
- musiqali-dramatik asarlar;
- xoreografiya asarlari va pantomimalar;
- audiovizual asarlar;
- rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika, dizayn asarlari va boshqa tasviriy san'at asarlari;
- manzarali-amaliy va sahna bezagi san'ati asarlari;
- arxitektura, shaharsozlik va bog'-park barpo etish san'ati asarlari;

- fotografiya asarlari va fotografiyaga o'xshash usullarda yara- tilgan asarlar;
- geografiya, geologiya xaritalari va boshqa xaritalar, geogra- fiya, topografiya va boshqa fanlarga taalluqli tarhlar, eskizlar va asarlar;
- barcha turdagi elektron-hisoblash mashinalari (EHM) uchun dasturlar, shu jumladan amaliy dasturlar va operat- siya tizimlari.

FKning 61-bobida turdosh huquqlarning huquqiy muhofazasi masalalari yoritilgan. Turdosh huquqlar ob'ektla- riga ijrolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotning ko'rsatuvlari yoki eshittirishlari kiradi. Turdosh huquqlar sub'ektlariga ijrochi- lar, fonogrammalarni tay- yorlovchilar, efir yoki kabel orkali ko'rsatuv yoxud eshittirish be- ruvchi tashkilotlar kiradi. Amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq mualliflik hu- quqlari kabi turdosh huquqlarning yuzaga kelishi va amalga oshi- rilishi uchun turdosh huquqlar ob'ektini ro'yxatdan o'tkazish yoki biron-bir boshqa rasmiyatchilikka rioya etish talab qilinmaydi.

FKning 62-bobida sanoat mulkiga bo'lgan huquqlarni muhofaza qilish, ulardan foydalanish, patentni buzganlik uchun javobgarlik me'yorlari belgilangan. 1082-modda- da esa ixtiro, foydali model va sanoat namunasiga bo'lgan huquq patent berilgan taqdirdagina muhofaza qilinishi bel- gilab qo'yilgan.

Bundan tashqari, ixtiro, foydali model, sanoat namuna- siga mualliflik huquqi va maxsus nom berish huquqi ixtiro, foydali model, sanoat namunasining muallifiga tegishli bo'lib, ushbu mualliflik huquqi va boshqa shaxsiy huquqlar patentga asoslangan huquqlar yuzaga kelgan paytdan e'tibo- ran vujudga keladi.

FKning 63-bobi o'simliklarning yangi navlari va hay- von- larning yangi zotlarini huquqiy muhofaza qilish, patent

egasinig huquq va majburiyatlari, mualliflarning haq olish huquqlariga bag'ishlangan.

Uchinchi shaxslarga ma'lum bo'lmagan texnikaviy, tashkiliy yoki tijorat axborotiga, shu jumladan ishlab chiqarish sirlariga (nou-xau) qonunan ega bo'lib turgan shaxs uni (oshkor etilmagan axborot ni) noqonuniy foydalanishdan muhofaza qilish huquqiga ega. Oshkor etilmagan axborotni muhofaza qilish uchun biron-bir rasmiyatchilikni (uni ro'yxatdan o'tkazish, guvoohnoma olish va hokazodan) bajarish talab qilinmaydi.

FKning 65-bobida fuqarolik muomalasi qatnashchilari, tovarlar, ishlar va xizmatlarni shaxsiylashtirish vositalariga bo'lgan huquqlarni muhofaza qilish, ulardan foydalanish, noqonuniy foydalanish uchun javobgarlik va huquqlarning amal qilish muddatlari kabi qoidalar aks ettirilgan. Bu masalalar keyinchalik ko'rib chiqiladigan me'yoriy hujjatlarda batafsil yoritib beriladi.

O'zbekiston Respublikasida intellektual mulk ob'ektlarini muxofaza qilish tizimini shakllantirishni ta'minlash, intellektual mulk ob'ektlarini huquqiy muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartiblashtirish maqsadida hamda O'zbekiston Respublikasi ishtirok etgan xalqaro shartnomalar va O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi qoidalaridan kelib chiqqan holda ixtisoslashtirilgan qonunlar ishlab chiqilgan.

Nazorat uchun savollar

1. Fuqarolik kodeksida IM qaysi xususiyatlari yoritilgan?
2. "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonuni (2006) ning asosiy maqsadini aytib bering.
3. Mualliflik huquqiga oid qonunchilik tizimini turkumlarga bo'ling.
4. Mualliflik huquqini himoya qilishga qaratilgan qonunlarning o'zaro aloqasi va vazifasini tushuntiring.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Toshev B. Xalqaro tashkilotlarning mualliflik huquqiga oid aktlarining huquqiy maqomi. -T.: Voris-Nashriyot, 2007
2. Nasriev I. Shaxsiy nomulkiy huquqlarni amalga oshirish va muhofaza qilishning fuqarolik-huquqiy muammolari. -T.: -G.G'ulom, 2006.
3. Nasriev I. Muallifning shaxsiy huquqlarini himoyalash. -T.: Mehnat. 2003.
4. Oqyulov O. Intellektual mulk huquqiy maqomining nazariy va amaliy muammolari. -T.: TDYuI. 2004.
5. Oqyulov O. Intellektual mulk huquqi: umumiy qoidalar va alohida ob'ektlar. Darslik. TDYuI. -T.: 2003.
6. Oqyulov O. Intellektual mulkning huquqiy maqomi. Doktorlik dissertatsiyasi. -T.: 2000.
7. Mo'minov A. O'zbekiston va YuNESKOning xalqaro-huquqiy munosabatlari. -T.: Yangi asr avlodi, 2003.
8. Raxmonov Sh. Priznanie rezolyusiy mejdunarodnqx organizatsiy v kachestve istochnika mejdunarodnogo prava. T.: -2007.
9. Xudayberdieva G. Turdosh huquqlarni fuqarolik-huquqiy muhofaza qilish muammolari. -T.: 2006.
10. Amonov B., Ergasheva F. O'zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasi islohot yo'lida. T.: O'zR DPI, 2011. 54 bet.
11. Amonov B. va boshqalar. Normativ huquqiy hujjatlar to'plami. T.: 2009. 948 b.
12. Omonov B. Intellektual mulk aqlni pulga aylantiradi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2021 yil 17 aprel <https://xs.uz/uzkr/post/intellektual-mulk-aqlni-pulga-ajlantiradi>

4-MA'RUZA.
IXTIROLAR, FOYDALI MODELLAR VA SANOAT
NAMUNALARINING HUQUQIY MUHOFAZASI

Reja:

1. Patent kooperatsiyasi to'g'risidagi (RST) shartnoma tartibi.
2. Ixtiro tushunchasi va mazmuni.
3. Ixtironing xususiyatlari.
4. Ixtironi himoya qilish uchun ariza berish tartibi va arizaning mazmuni.
5. Ixtiro uchun patent berish va patentdan foydalanish.

RSTning majburiy fazasi¹⁵

Parij Konvensiyasi talabnoma beruvchiga boshqa davlatlarda patentga talabnoma berish uchun 12 oylik imtiyozli davrni beradi, bu vaqt mobaynida u zarur patent tadqiqotlarini o'tkazishi, o'z talabnomalarini mufassal ishlab chiqishi, malakali patent vakillarini topishi va boshqa ishlarni amalga oshirishi mumkin. Biroq talabnoma beruvchi ixtiro uchun patent muhofazasi olishni mo'ljallagan mamlakatlar soni va geografiasini ko'paygan sari bunday *12 oylik imtiyozli davr ko'pincha* muayyan mamlakatlarda patentlashning zarurligini baholash uchun ham, ko'rsatilgan tartiblar va moliyalashtirish masalalarining yakuniy qaroriga rioya qilish uchun ham *yeterli bo'lmaydi*. Bundan tashqari, ixtironi ko'pchilik mamlakatlarda patentlash katta tavakkalchilik bilan bog'liq, axir

¹⁵ RST protsedurasiga oid masalalarni yoritishda A.Djumaxodjaevning "Patentshunoslik" kitobidan foydalanildi. T.: Mehnat, 2001. B. 245-250..

ixtironing patentga layoqatsiz deb topilishi va buning natijasida barcha sarf-harajatlar behuda bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

XX asrning ikkinchi yarmida ixtirolarni patentlashning rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan boshqa muammo *milliy patent idoralarining ish yuritishini qanday qilib osonlashtirish va ularning samaradorligini oshirish* masalasi bo'ldi. 1970-yillarga kelib shunday vaziyat yuzaga keldiki, dunyoning barcha mamlakatlarida ixtirolar uchun berilayotgan talabnomalarning umumiy sonidan deyarli yarmi, bir-birini takrorlardi, ya'ni talabnomalar bir xil ixtirolarga, lekin turli mamlakatlarda berilardi. Shunday qilib:

- patent idoralarining ishida takrorlashni bartaraf qilish;
- soni tobora ortib borayotgan talabnomalarni ekspertizadan o'tkazishni tezlashtirish;

- patent eksperti hisobga olishi kerak bo'lgan keng hajmdagi hujjatlarni qisqartirish;

- yangi texnik yutuqlar to'g'risidagi axborotlarning tarqalishini tezlashtirish;

- eng muhimi, talabnoma beruvchilarga xorijiy mamlakatlarda talabnoma berishni osonlashtirish maqsadlarida xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirishga ulkan ehtiyoj tug'ildi.

Bu vazifalarni yechish uchun 1970 yilda Patent kooperatsiyasi to'g'risida **Shartnoma (Ratep1 Sooregation Tgea1u** - inglizcha qisqartmada RST) imzolanib, hozirgi kunda uning tartiblari ko'p mamlakatlarda patentlash uchun eng samarali usulga alandi.

RST hech qanday xalqaro patentni ko'zda tutmaydi. RST o'z mohiyatiga ko'ra qator mamlakatlarda huquqiy muhofaza olishni talab qiluvchi ixtirolarni xorijda patentlashning osonlashtirilgan boshlang'ich bosqichidan iborat. RST tizimidan foydalanish talabnoma beruvchiga ixtiroga nisbatan bozor kon'yunkturasi ishlab chiqish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan qo'shimcha vaqt olishga va eng muhimi, nisba-

tan kamroq valyuta xarajatlari evaziga ixtirosining patentga layoqatlilikning dastlabki baholashga imkon berada. Bu faqat ham huquqiy, ham tijorat jihatdan kuchli patentlar olinishiga urg'u berib, istiqbolsiz ixtirolarni patentlash uchun harajatlarga yo'l qo'ymaslikka olib keladi.

RSTning mohiyati shundan iboratki, Shartnoma turli davlatlarga bir necha talabnoma berishning o'rniga asosiy mamlakatlarning har birida bir vaqtning o'zida talabnoma berishga teng hisoblangan bitta xalqaro patent talabnomasini berishga yo'l ochadi. Bunday xalqaro talabnoma talabnoma beruvchi fuqarosi sanalgan RST ishtirokchi davlatining milliy patent idorasiga beriladi. Bunday idora RST bo'yicha talabnomalarni oluvchi idora deyiladi. **O'zbekiston fuqarolari uchun O'zbekiston Intellektual mulk agentligi (IMA) talabnomalarni oluvchi idora hisoblanadi.**

Xalqaro talabnoma: ariza, ixtiro tavsifi, ixtiro formulasi, bir yoki bir necha bandlari, chizmalar (kerak bo'lsa) va referatni o'z ichiga olishi kerak. Talabnomaning barcha hujjatlari yagona namuna bo'yicha tuziladi hamda RST va Shartnomaga Yo'riqnomalarda o'rnatilgan yagona talablarga javob berishi lozim. RSTga ko'ra, **milliy qonunlar xalqaro talabnomaning shakli va mazmuniga hech qanday so'shimcha talablarni so'yishi mumkin emas.**

Bunday talabnomani berishda talabnoma beruvchi arizada RSTning qaysi a'zo mamlakatlarida patent muhofazasini olishini aniq ko'rsatadi. Shuningdek, talabnoma beruvchi mintaqaviy patent tashkilotlari (YePI, ARIPO va boshqalar) ning patentlarini olishni ham ko'rsatishi mumkin.

Xalqaro talabnoma bir yoki bir necha oldingi talabnomalar bo'yicha ustuvorlikni belgilash to'g'risidagi arizani o'z ichiga olishi ham mumkin. Parij Konvensiyasi qoidalariga muvofiq, bunday xalqaro talabnoma birinchi talabnoma berilgan sanadan boshlab **12 oylik davrda berilishi** mumkin.

RST tizimi bo'yicha talabnomalarni ko'rib chiqish tartibini ikki bosqichga: xalqaro va milliy fazalarga bo'lamiz. Xalqaro faza o'z navbatida ikki asosiy faza: majburiy va fakultativ (ya'ni, talabnoma beruvchining xohishiga ko'ra o'tkaziladigan) fazalarga bo'linadi.

RSTning majburiy fazasi talabnoma beruvchining Oluvchi idora - O'zR IMAga xalqaro talabnoma berishidan boshlanadi. Talabnoma ingliz yoki rus tillarida yozilishi mumkin.

Talabnomaning barcha hujjatlari uch nusxada beriladi. Talabnomaning birinchi nusxasi (Record Soru) Oluvchi idora tomonidan BIMT Xalqaro byurosi (Jeneva sh.)ga jo'natiladi va xalqaro talabnoma sifatida rasman ro'yxatga olinadi.

Xalqaro talabnomaning ikkinchi nusxasi (8eagsh Soru) bir vaqtning o'zida talabnoma bo'yicha xalqaro qidiruvni o'tkazish uchun xalqaro qidiruv organlarining biriga yuboriladi.

Uchinchi nusxa (Nome Soru) keyingi rasmiy ekspertiza uchun Oluvchi idorada qoladi.

Xalqaro talabnomani berish bilan bir vaqtda xalqaro boj to'lanishi kerak. Ushbu boj quyidagilarni o'z ichiga oladi:

talabnoma berish uchun 427 AQSh dollari miqdoridagi asosiy boj (Vasic G'ee), patent muhofazasi so'ralayotgan davlatlarni ko'rsatish uchun boj (Designation G'ee) ko'rsatilgan davlatlar soniga bog'liq (bir mamlakat uchun 92 AQSh dollari), shuningdek xalqaro qidiruvni o'tkazish uchun bojlar (8eagsh G'ee) va Oluvchi idora tomonidan Xalqaro byuroga hujjatlarni jo'natish uchun bojlar.

Qayd etib o'tish muhimki, 1996 yil 1 yanvaridan RST Asambleyasi sobiq SSSR mamlakatlari (jumladan O'zbekiston), shuningdek Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining bir qator rivojlanayotgan mamlakatlaridan talabnoma beruvchilar uchun xalqaro bojlarni to'lashda 75% lik imtiyoz berishga qaror qildi. Bunday imtiyoz ushbu mamlakatlardan berilayotgan xalqaro talabnomalarning sonini oshirish, binobarin ularning industrial va iqtisodiy rivojlanishini rag'batlantirishga karatilgan.

Oluvchi idora kelib tushgan xalqaro talabnomaning RST talablariga mos kelishini rasmiy ekspertizadan o'tkazadi. Agar talabnoma to'g'ri to'ldirilgan bo'lsa, Oluvchi idora xalqaro talabnoma berish sanasini o'rnatadi. Ushbu sanadan boshlab xalqaro talabnoma ko'rsatilgan davlatlarning har birida o'sha davlatning milliy patent idorasiga berilgan to'g'ri rasmiylashtirilgan milliy patent talabnomasi kuchiga ega bo'ladi.

Keyingi bosqich xalqaro qidiruv organi tomonidan talabnomani ko'rib chiqishdir. RST talablariga javob beradigan milliy patent idorasi yoki hukumatlararo tashkilot xalqaro qidiruv organi makomini olishi mumkin. Bunday talablar malakali shtat (kamida 100 kishi), zarur patent jamg'armalarining mavjudligi hisoblanadi. Har bir xalqaro qidiruv organi BIMT Xalqaro byurosi va ushbu qidiruv organi o'rtasida tegishli shartnoma imzolangan taqdirda RST Assambleyasi tomonidan tayinlanadi. Hozirgi vaqtda quyidagi patent idoralari xalqaro qidiruv organlari maqomiga ega: Avstriya, Avstraliya, Ispaniya, Xitoy, Koreya, Rossiya, AQSh, Shvesiya, Yaponiya va Yevropa patent idorasi (YePI). *O'zbekistonlik talabnoma beruvchilar uchun YePI va FIPS/SMFI shunday organ hisoblanadi.* Bunda YePIda xalqaro qidiruvni o'tkazish uchun boj 945 yevroni tashkil etadi (biroq O'zbekistonlik talabnoma beruvchi yuqorida ko'rsatib o'tilgan 75% li imtiyozdan foydalanishi mumkin), FIPSDagi qidiruv qiymati esa 300 AQSh dollarini tashkil etadi (yuqoridagi kabi imtiyoz yo'q).

Talabnoma beruvchining o'zi talabnomasi mazkur ikki qidiruv organining qaysi birida ko'rib chiqilishi lozimligini ko'rsatadi. Ta'kidlab o'tamiz, agar xalqaro talabnoma rus tilida berilsa, u YePIda ko'rib chiqilishi mumkin emas (demak, qidiruv faqat FIPS, Moskva shahrida o'tkazilishi mumkin).

Talabnomaning nusxasi (Seagsh Soru) va belgilangan boj to'lovi olinganidan keyin qidiruv organi talabnoma bo'yicha xalqaro qidiruvni boshlaydi. Bunday qidiruv ixtiro sohasidagi texnika darajasini **tadqiq qilish** va ixtironing yangiligi yoki

ixtirolik darajasini pasaytirishi mumkin bo'lgan ixtiroga eng yaqin axborot manbalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Ko'pincha qidiruv talabnoma olingan sanadan boshlab 4 oy davom etadi. **Qidiruv talabnomaning ustuvorlik sanasidan 16 oy o'tgunicha tugallanishi kerak.**

Xalqaro qidiruv natijasida xalqaro qidiruv organi bu to'g'risida hisobot tayyorlaydi hamda uni Xalqaro byuro va talabnoma beruvchiga yuboradi. Qidiruv to'g'risidagi hisobot o'rnatilgan shaklda tuziladi. Hisobotda topilgan axborot manbalari ko'rsatiladi va ular ixtironing patentga layoqatlilik mezoniga ta'sir etishiga qarab guruhlarga bo'linadi.

Xalqaro qidiruvning natijalari talabnoma beruvchi uchun o'ta muhim ahamiyatga ega. Masalan, talabnoma berilayotgan ixtironing yangiligini shubha ostiga qo'yadigan ma'lum patentlar aniqlansa va bu unga patent olish ehtimolini kamaytirs, talabnoma beruvchi o'z vaqtida talabnomasini chaqirib olish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin. Bundan tashqari, *zaruriyat tug'ilganda, talabnoma beruvchi belgilangan muddat davomida ixtiro formulasiga bir marta tuzatish kiritish huquqiga ega.* Bu o'zgartirishlar ixtironing ustuvorlik sanasidan 17-18 oy davomida Xalqaro byuroga taqdim etilishi kerak. O'zgartirishlar dastlabki ochib berilgan ixtiro mohiyatining doirasidan chetga chiqmasligi, shuningdek dastlabki talabnoma berilgan ixtiro hajmini ko'paytirmasligi kerak.

Agar talabnoma chaqirib olinmagan bo'lsa, Xalqaro byuro talabnomaning ustuvorlik sanasidan 18 oy o'tgunicha qidiruv to'g'risidagi hisobot bilan birga xalqaro talabnomani e'lon qiladi. Ingliz, nemis, fransuz, rus, ispan, yapon va xitoy tillarida berilgan talabnomalar tarjimasiz nashr qilinishini qayd etib o'tamiz. *Biroq barcha xalqaro talabnomalarning referatlari va ular bo'yicha xalqaro qidiruv to'g'risidagi hisobotlar talabnoma berilgan tilda ham, ingliz tilida ham nashr qilinadi.*

Muddati kechiktirilgan mohiyatiga ko'ra ekspertiza tizimi ko'zda tutilgan mamlakatlarning milliy patent qonunchiligiga muvofiq talabnoma nashr qilingan vaqtdan boshlab ixtiroga e'lon qilingan formula hajmida vaqtinchalik huquqiy muhofaza maqomi beriladi. Bu talabnoma beruvchi raqobatchilarni mazkur ob'ektga o'zining da'volari borligi to'g'risida ogohlantirishini hamda uning huquqlari buzilsa, qoidani buzgan shaxsdan zararni undirishi mumkinligini anglatadi, bunda o'z huquqlari boshlangan sana deb xalqaro e'lon qilish sanasi qabul qilinadi.

Xalqaro e'lon dilish talabnoma beruvchi uchun muhim ahamiyatga ega - *ushbu sanadan boshlab ixtiro uchun talabnomaning o'zi foydali oldi-sotdi (litsenziya bitimi) predmeti bo'lishi mumkin, bunda bu qidiruv to'g'risidagi hisobot ixtiro muhimligining ko'rsatkichi hisoblanadi*

RSTning majburiy fazasi talabnomaning ustuvorlik sanasidan boshlab 20 oy o'tganidan keyin tugaydi. *Ushbu muddatda xalqaro talabnoma ko'rsatilgan har bir davlatda milliy fazaga kirishi kerak.*

Ta'kidlab o'tamiz, *talabnoma beruvchi talabnomada ko'rsatilgan barcha davlatlarda milliy fazaga kirmasligi mumkin.* Masalan, u xalqaro talabnomani taqdim etishda ixtirosi qaerda muvaffaqiyat qozonishini anik bilmasligi sababli odatda juda ko'p davlatlarni ko'rsatadi. Tijorat masalalari (RSTda berilgan vaqtda) dastlabki ishlab chiqilganidan keyin talabnoma beruvchi ixtironi qaysi mamlakatlarda (masalan, fakat Germaniya, AQSh va Yaponiyada) patentlash maqsadga muvofiqligini aniq belgilashi va faqat shu mamlakatlarda milliy fazaga kirishi mumkin.

Milliy fazaga kirish uchun talabnoma beruvchi quyidagi operatsiyalarni bajarishi kerak:

1. Ko'rsatilgan davlatda patent vakilini topish;
2. Milliy patent idorasiga o'sha davlatning tilida xalqaro talabnomaning tarjimasini taqdim etish. E'tiborni qaratamiz:

gap Parij Konvensiyasining standart tartiblaridagi kabi talabnomani ushbu davlatning rasmiy talablariga ko'ra, rasmiylashtirish to'g'risida emas, balki faqat tarjima to'g'risida bormoqda;

3. Belgilangan milliy patent bojlarini to'lash.

Odatda, milliy patent idoralari milliy fazaga kirishning eng oxirgi muddati sifatida xalqaro talabnomaning ustuvorlik sanasidan boshlab **21 oyni belgilaydilar.**

Milliy fazaga kirishda talabnoma beruvchiga belgilangan muddatlarda ixtiro formulasi hamda tavsifi va chizmalariga yana bir bor o'zgartirish kiritish imkoniyati beriladi (albatta, dastlabki berilgan talabnomada ochib berilganlarning doirasidan chetga chiqmagan holda).

Shunday qilib, Parij Konvensiyasi bilan qiyoslaganda RSTning majburiy fazasi talabnoma beruvchiga eng kamida 8 oylik qo'shimcha imtiyoz muddatini beradi, ya'ni eng muhim narsa - vaqtni yutishga imkon beradi. Bu vaqt davomida bitta ixtiro uchun turli mamlakatlarga talabnomalarni tayyorlash uchun ortiqcha harajatlardan ozod bo'ladi, vakolatli xalqaro organ tomonidan o'tkazilgan xalqaro qidiruv natijalarini oladi, marketing tadqiqotlarini o'tkazish, patentlash maqsadga muvofiq bo'lgan mamlakatlarni aniqlash, moliyaviy vazifalar (milliy fazaga kirish uchun pul topish)ni hal qilish uchun tadbirkor hamkorlar, malakali patent vakillarini topish imkoniga ega bo'ladi va hokazo

RSTdan foydalanish talabnoma beruvchiga xorijiy patentlash bilan bog'liq tavakkalchilikni minimallashtirish va tijorat jihatidan maksimal darajada foydali deb topilgan patentlarni olishga imkon beradi.

RSTdan foydalanish talabnoma beruvchiga ko'rsatilgan vazifalarni hal qilish uchun (xalqaro talabnomaning ustuvorlik sanasidan boshlab) 20 oydan iborat imtiyozli muddat beradi. *Biroq ushbu 20 oylik muddat davomida ularni to'la hal qilishga ulgura olmaydigan vaziyatlar bo'lishi mumkin. Bun-*

dan tashqari, talabnoma beruvchi xalqaro qidiruv natijalarini o'zi uchun to'liq ravishda yetarli deb hisoblamasdan, milliy fazaga kirishdan ol- din o'z ixtirosining patentga layoqatliligi to'g'risida aniq xulosa olishni xohlaydi. Bunday xulosa talabnoma beruvchi xalqaro qidiruvning salbiy natijalari (masalan, ixtiro darajasi bo'yicha)ni olganidan keyin ixtiro formulasiga tegishli o'zgartirishlarni kiritganda o'ta muhimdir. Bunday holatlarda talabnoma beruvchi RSTning fakultativ fazasidan foydalanishi mumkin. **Fakultativ fazaning mohiyati shundan iboratki**, RST tizimi talabnoma beruvchiga o'z xohishiga ko'ra xalqaro talabnoma- ning milliy fazaga kirishining 20 oylik muddatini yana 10 oyga uzaytirishga imkoniyat beradi.

Endi milliy qonunchiligimizga kelsak. O'zbekiston Respublikasining «Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida»gi Qonuni 1994 yil 6 mayda qabul qilingan bo'lib, u mamlakatimizda ilmiy-texnikaviy faoliyat va uning natijalarini huquqiy muhofaza qilishga yo'naltirilgan. Qonunda belgilangan ob'ektlarning himoyaga olinishi, uning mualliflariga tegishli huquqlar berilishi va davlat huquqiy-siyosati- ni olib borish bilan bog'liq tamoyillarning mustahkamlanishi orqali intellektual mulk potensialining rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

1994 yil 6 mayda qabul qilingan Qonun ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari intellektual mulkning o'ziga xos ob'ekti sifatida tan olishning huquqiy asoslarini ta'minlagan va milliy huquqiy himoya institutining shakllanishiga xizmat qilgan bo'lsa, **2002 yil 29 avgustda** qabul qilingan yangi tahrirdagi qonun esa, ob'ektlarga nisbatan huquqiy rejimni kengaytirish va mualliflar huquqlarining rivojlantirilganligi, patent olish jarayonining nisbatan ixchamlashtirilgani bilan farq qiladi. Sakkiz bob, **39 moddani o'z ichiga olgan qonunda** e'tibor fuqarolik-huquqiy munosabatlaridan ko'ra, soha ob'ektlarini rasmiylashtirishga nisbatan ma'muriy-tashkiliy tadbirlarga keng o'rin ajratilgani, mualliflar huquqlarini

tizimlashlashdan ko'ra, himoya shakli bo'lgan patentlarning muhofazaga olingani bilan ajralib turadi.

Qonunning asosiy maqsadi sifatida - ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalarini yaratish, huquqiy muhofaza qilish hamda ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish belgilab qo'yilgan. Bundan qonunda ko'zda tutilgan asosiy vazifani belgilab olish mumkin. Nazarimizda qonunning bosh maqsadi va vazifasidan kelib chiqib, uning asosiy g'oyasini aniqlash imkoni mavjud.

Qonunning asosiy g'oyasi quyidagilardan iborat:

-sanoat mulki ob'ektini yaratuvchi shaxs-muallifning shu turdagi ob'ektlarni yaratishi bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar va yaratilgan ob'ektlarga nisbatan huquqiy muhofaza qilish faoliyatining mavjudligi:

-muallif tomonidan o'zi yaratgan ob'ektни rasman tan olish uchun huquqiy muhofaza olish va uni huquqiy rasmiylashtirish bilan bog'liq faoliyatning mavjudligi:

-qonunchilikda belgilangan me'yor va tartiblarda huquqiy muhofaza berilgan ob'ektlardan foydalanish imkonining mavjudligi, muallif bilan unga tegishli ob'ektdan foydalanuvchilar o'rtasida vujudga keladigan munosabatlarning tartibga solinishidan iborat.

-qonunchilikka ko'ra, patent egasining boshqa shaxslar oldida imtiyozlari keng, patentlangan ob'ekt **faqat patent egasining roziligi bilan fuqarolik muamalasiga kiritilishi mumkin.** Bu qoidalar xalqaro hujjatlarda ham o'z aksini topgan.

Agar ixtiro sifatida ko'rsatilgan ob'ekt **uchta talabga: yangi, ixtirolik darajasiga ega va uni sanoatda qo'llash mumkin** bo'lsa, shundagina u huquqiy muhofaza qilinadi.

Agar ixtiro jahondagi texnika taraqqiyoti darajasida ma'lum bo'lmasa, u yangi hisoblanadi. Agar ixtiro texnika taraqqiyoti darajasi haqidagi ma'lumotlardan yaqqol ayon bo'lmasa, ixtirolik darajasiga ega bo'ladi. Texnika taraqqiyoti

darajasi ixtiro ustuvorligi sanasiga qadar jahonda ommaga oshkor bo'lgan har qanday ma'lumotlarni o'z ichiga olishini unutmaylik. Ixtironing yangiligini aniqlash chog'ida bir-muncha oldin ustuvorlikka ega bo'lgan holda topshirilgan va chaqirib olinmagan patent berish haqidagi talabnomalar ham hisobga olinadi. Agar ixtiro sanoat, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarda foydalanish mumkin bo'lsa, u sanoatda qo'llash mumkin deb hisoblanadi.

Ixtiro har qanday sohada:

mahsulotga (xususan, qurilma, modda, mikroorganizm sh-tammi, o'simliklar yoki hayvonlar hujayralarining turlariga);

usulga (moddiy vositalar yordamida moddiy ob'ekt ustida xat-ti-harakatlarni amalga oshirish jarayoniga) taalluqli bo'lgan **texnik yechim sifatida e'tirof etiladi**.

Quyidagilar ixtiro sifatida e'tirof etilmaydi:

- ilmiy nazariyalar va matematika usullari;
- tashkil etish va boshqarish usullari;
- shartli belgilar, jadvallar, qoidalar;
- aqliy operatsiyalarni bajarish qoidalari va usullari;
- EHMLar uchun algoritmlar va dasturlar;
- binolar, inshootlar, hududlarni rejalashtirish loyihalari va chizma tarhlari;
- estetika talablarini qanoatlantirishga yo'naltirilgan, buyumlarning faqat tashqi ko'rinishiga oid yechimlar;
- integral mikrosxemalarning topologiyalari;
- o'simlik navlari va hayvon zotlari;
- jamoat manfaatlariga, insonparvarlik va ahloq qoidalari-ga zid yechimlar.

Agar sanoat namunasi sifatida ko'rsatilgan ob'ekt yangi va original (o'ziga xos) bo'lsa, u huquqiy muhofaza qilinadi.

Agar sanoat namunasining muhim belgilari majmui sanoat namunasi ustuvorlik berish sanasiga qadar jahonda ommaga oshkor bo'lgan ma'lumotlardan ayon bo'lmasa, u yangi deb e'tirof etiladi.

Quyidagilar sanoat namunalari deb e'tirof etilmaydi:

matbaa mahsulotlari;

arxitektura ob'ektlari (kichik arxitektura shakllaridan tashqari), sanoat, gidrotexnika inshootlari va boshqa statsionar inshootlar;

suyuq, gazsimon, sochiluvchan yoki shunga o'xshash moddalardan iborat o'zgaruvchan shakldagi ob'ektlar;

buyumning faqat texnik vazifasi bilan bog'liq bo'lgan yechimlar;

jamoat manfaatlariga, insonparvarlik va axloq qoidalari-ga zid yechimlar.

Ijodiy mehnati bilan ixtironi yaratgan jismoniy shaxs shu ob'ektning muallifi deb e'tirof etiladi.

Agar ixtiro ob'ekti bir nechta jismoniy shaxsning birgalikdagi ijodiy mehnati asosida yaratilgan bo'lib, ular o'rtasida tuzilgan shartnomada boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, ularning barchasi shu ob'ektning teng huquqli hammualliflari deb e'tirof etiladi. Bular xizmat doirasida yaratilgan ixtiro sanaladi.

Ixtiro haqidagi talabnoma:

ixtironing muallifi (hammualliflari) va kimning nomiga patent berish so'ralayotgan bo'lsa, ana shu shaxs, shuningdek ularning turar joyi yoki joylashgan manzili ko'rsatilgan patent berish haqidagi arizani;

ixtironing uni amalga oshirish uchun yetarli bo'lgan darajada to'liq ochib berilgan tavsifini;

ixtironing mohiyatini ifodalovchi hamda uning tavsifiga to'la muvofiq bo'lgan formulasini;

agar ixtironing mohiyatini tushunish uchun zarur bo'lsa, chizmalar va boshqa materiallarni;

ixtiro referatini o'z ichiga olishi lozim.

Talabnoma beruvchi patent berish haqidagi qaror qabul qilingunga qadar ixtiro haqidagi talabnomani foydali model haqidagi talabnoma, foydali model haqidagi talabnomani esa

ixtiro haqidagi talabnoma qilib o'zgartirishga haqlidir. Bunday o'zgartirishlar chog'ida birinchi talabnomaning ustuvorligi saqlanib qoladi.

Talabnomalarni o'zgartirish tegishli patent boji to'langandan so'ng amalga oshiriladi.

Agentlik patent berish haqidagi talabnoma bo'yicha rasmiy ekspertiza, foydali model haqidagi talabnoma ekspertizasi hamda ixtiro haqidagi talabnomaning yoki sanoat namunasi haqidagi talabnomaning mohiyati bo'yicha ilmiy-texnika ekspertizasidan iborat bo'lgan davlat ekspertizasini o'tkazadi.

Talabnoma beruvchi patent berish haqidagi talabnoma topshirilgan sanadan e'tiboran **ikki oy mobaynida** talabnomada ko'rsatilgan sanoat mulki ob'ektining mohiyatini o'zgartirmagan holda unga tuzatishlar, aniqliklar yoki qo'shimcha materiallar kiritish huquqiga ega. Patent berish haqidagi talabnoma bo'yicha tuzatishlar, aniqliklar yoki qo'shimcha materiallar patent boji to'langan taqdirda, ko'rsatilgan muddat o'tganidan keyin, lekin Agentlik patent berish haqida qaror qabul qilguniga qadar taqdim etilishi mumkin.

Belgilangan talablar buzilgan holda rasmiylashtirilgan patent berish haqidagi talabnoma yuzasidan talabnoma beruvchiga **so'rov** yuborilib, unda shu so'rov yo'llangan sanadan e'tiboran **uch oy ichida tuzatishlar kiritilgan yoki yetishmayotgan materiallarni taqdim etish taklif qilinadi**. Agar talabnoma beruvchi so'ralgan materiallarni yoki belgilangan muddatni uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rsatilgan muddatda taqdim etmasa, patent berish haqidagi talabnoma chaqirib olingan hisoblanadi. Belgilangan muddat talabnoma beruvchining iltimosnomasiga ko'ra shu muddat o'tgan sanadan keyin ko'pi bilan o'n ikki oyga uzaytirilishi mumkin.

Ixtiro haqidagi talabnoma to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rib chiqish uchun qabul qilingan talabnoma topshirilgan sanadan e'tiboran **o'n sakkiz oy o'tganidan keyin Rasmiy axborot-**

nomada e'lon qilinadi. E'lon qilinadigan ma'lumotlar tarkibi Agentlik tomonidan belgilanadi. Talabnoma beruvchining iltimosnomasiga ko'ra Agentlik ko'rib chiqish uchun qabul qilingan ixtiro haqidagi talabnoma topshirilgan sanadan e'tiboran **o'n sakkiz oy o'tguniga qadar ixtiro haqidagi talabnoma to'g'risidagi ma'lumotlarni e'lon qilishi mumkin.**

Ixtiro haqidagi talabnoma to'g'risidagi ma'lumotlar e'lon qilinganidan keyin har qanday shaxs ushbu talabnomaga doir hujjatlar bilan tanishib chiqishga haqli. Ixtiro haqidagi talabnomaga doir hujjatlar bilan tanishib chiqish tartibi Agentlik tomonidan belgilanadi.

Agentlik patent boji to'langan taqdirda, talabnoma beruvchining yoki har qanday shaxsning iltimosnomasiga ko'ra ixtiro haqidagi talabnomaning mohiyati bo'yicha ilmiy-texnika ekspertizasini o'tkazadi. Iltimosnoma talabnoma topshirilayotganda yoki ko'rib chiqish uchun qabul qilingan talabnoma topshirilgan sanadan e'tiboran uch yil ichida topshirilishi mumkin. Talabnoma beruvchi kelib tushgan iltimosnomalar haqida Agentlik tomonidan xabardor qilinadi.

Ixtiro haqidagi talabnomaning mohiyati bo'yicha ilmiy-texnika ekspertisasi o'tkazish to'g'risidagi iltimosnomani topshirish muddati bunday iltimosnoma bilan birgalikda patent boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etilgan taqdirda, talabnoma beruvchining talabnoma topshirilgan sanadan e'tiboran **uch yil o'tguniga qadar** topshirilgan iltimosnomasiga ko'ra Agentlik tomonidan ko'pi bilan ikki oyga uzaytirilishi mumkin. Ixtiro haqidagi talabnomaning mohiyati bo'yicha ilmiy-texnika ekspertisasi o'tkazish to'g'risidagi iltimosnoma uch yillik muddatda kelib tushmagan taqdirda, ixtiro haqidagi talabnoma **chaqirib olingan** hisoblanadi.

Ixtiro yoki sanoat namunasi sifatida talabnomada ko'rsatilgan ob'ektning patentga layoqatlilik shartlariga mos emasligi aniqlangan taqdirda, **Agentlik patent berishni rad etish** haqida qaror qabul qiladi. Talabnoma beruvchi Agent-

likning qarori ustidan qaror yuborilgan sanadan e'tiboran uch oylik muddat ichida Apellyatsiya kengashiga apellyatsiya berishi mumkin. Apellyatsiya kengashi apellyatsiya kelib tushgan sanadan e'tiboran to'rt oy ichida uni ko'rib chiqishi lozim. **Apellyatsiya kengashining qarori** ustidan qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran olti oy ichida sudga shikoyat qilinishi mumkin. Bu masala yechimi ustida alohida vakolatga ega bo'lgan patent vakillari faoliyat olib boradilar.

Nazorat uchun savollar

1. Ixtirolarning jamiyat hayotida tutgan o'rini izohlang.
2. Ixtiroga talabnoma qanday tayyorlanadi?
3. Ixtiro, sanoat namunasi deb e'tirof etilmaydigan ob'ektlarni sanab bering.
4. Ixtiroga qancha muddatdan keyin muhofaza hujjati olinadi?
5. O'zbekistonda ixtirochilik tizimi rivojlanmaganligi sabablarini tushuntiring.
6. Patentshunos va patent vakillari vazifasi nimadan iborat?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ixtirolar, foydali modelar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonuni. T.: IPS. NORMA.2002.
2. Osnovi izobretatelstva i patentovedeniya. (Bakalavriat i magistratura). Uchebnoe posobie Kravchenko I.N., KnoRus, 2020.
3. Kommersializatsiya intellektualnoy sobstv.: Monograf. /V.I.Muxopad - M.: Magistr, NIS INFRA-M, 2019.
4. Djumaxodjaev A. Patentshunoslik. Darslik. T.: 2001.
5. Amonov B., Yermolaeva V., Karimova S. O'zbekiston Respublikasining istiqbolli ixtirolari. Toshkent: O'zR DPI, 2009.
6. Amonov B. va boshqalar. Normativ huquqiy hujjatlar to'plami. T.: 2009. 948 b.

7. Amonov B.A., Karimova S.A. Kak poluchit patent na izobretenie, yego pravovaya oxrana i zashita v Respublike Uzbekistan. Uchebnoe posobie dlya patentovedov. Tashkent, 2011.- S.78.

8. www.ima.uz – Intellektual mulk agentligi portali

5-MAVZU.
TOVAR BELGILARI, XIZMAT KO'RSATISH BELGILARI VA
JOY NOMLARIGA HUQUQIY MUHOFAZA BERISH

Reja:

1. Tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisi.
2. Talabnomani tuzish tartibi.
3. Talabnomaga o'zgartirishlar kiritish.
4. Tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi qaror.
5. Madrid bitimi tartibi.
6. Original va kontrafakt mahsulotlarning farqi.

“Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida”gi Qonunga¹⁶ hamda Tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisini ro'yxatdan o'tkazish uchun talabnoma tuzish, topshirish va ko'rib chiqish qoidalariga (Adliya vazirligi tomonidan 29.07.2009 yilda 1988-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan, bundan keyin – Qoidalar) muvofiq harakat qilish zarur.

Qonunning **3-moddasiga** ko'ra, “Tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisi (bundan buyon matnda tovar belgisi deb yuritiladi) bu bir yuridik va jismoniy shaxslar tovarlari va xizmatlarini boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning shu turdagi tovarlaridan farqlash uchun xizmat qiladigan, belgilan-

¹⁶ “Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida”gi Qonun. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001 y., 9-10-son, 178-modda; 2002 y., 9-son, 165-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007 y., 37-38-son, 379-modda; 2011 y., 52-son, 555-modda; 2013 y., 1-son, 1-modda.

gan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan belgilardir. Tovar belgilari yakka tartibdagi va jamoaviy bo'lishi mumkin.

Tovar belgisi yoki xizmat ko'rsatish belgisining o'zini nima? Oldin tovar belgisi (xizmat ko'rsatish belgisi) deganda nimalar tushunilishini aniqlab olamiz, u bir yuridik va jismoniy shaxslar tovarlari va xizmatlarini boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning shu turdagi tovarlari va xizmatlaridan farqlash uchun xizmat qiladigan, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan belgidir. Belgilar quyidagicha bo'ladi:

yakka tartibdagi – alohida yuridik yoki jismoniy shaxsga tegishli belgi;

jamoaviy – yuridik va (yoki) jismoniy shaxslar birlashmasining ular tomonidan ishlab chiqariladigan va (yoki) realizatsiya qilinadigan, bir xil sifatga yoki boshqa umumiy tavsiflarga ega bo'lgan tovarlarini belgilash uchun mo'ljallangan belgi.

Tovar belgilari sifatida quyidagilar ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin:

so'zli belgilar – so'zlar, so'z ko'rinishiga ega bo'lgan harfiy birikmalar (xususan, har qanday ketma-ketlikdagi unililar va undosh tovushlarning bo'g'in hosil qiluvchi birikmalari), so'z birikmalari, gaplar, shuningdek ularning birikmalari;

tasviriy belgilar – jonli mavjudotlar, predmetlar, tabiiy va boshqa ob'ektlar tasvirlari, shuningdek chiziq, dog'lar, har qanday figuralarning tekislikdagi kompozitsiyalari (hajmlilardan tashqari);

hajmli belgilar – fazoviy joylashgan uch o'lchamli ob'ektlar, figuralar va chiziq va figuralarning kombinatsiyalari;

jamlama belgilar – turli xarakterdagi: tasviriy, so'zli, muayyan shakldagi hajmli va boshqa elementlar kombinatsiyasi;

boshqa belgilar, shu jumladan tovushli, yorug'likdan iborat bo'lgan, golografik, hidli kabi belgilar.

Qonun hujjatlarida tovar belgisi sifatida ro'yxatdan o'tka-

zilishi mumkin bo'lmagan ob'ektlar ro'yxati belgilangan. Qoidalarining 4-bandida ular bilan yaqindan tanishishingiz mumkin.

Belgini ro'yxatdan o'tkazish uchun qaerga murojaat qilinadi, degan savol tug'iladi. Eslatib o'tamiz, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan jismoniy va yuridik shaxslar belgini ro'yxatdan o'tkazish uchun Agentlikka talabnoma berishadi.

Talabnomani Intellektual mulk agentligiga (IMA) berish lozim. Bu quyidagicha amalga oshiriladi:

shaxsan tashrif buyurganda (100011, Toshkent shahri, Xadra mavzesi, Markaz 14. + (998 71) 232-50-42. Ishonch telefonlari: + (998 71) 232-50-54. IMA manziliga borish zarur);

pochta xizmatlaridan foydalanganda quyidagi manzilga hujjatlarni yuborish lozim: 100011, Toshkent sh., Xadra mavzesi, Markaz 14, uy 33, IMA);

IMAgaga mustaqil ravishda talabnoma taqdim etib, u bilan yozishmalar olib borish yoxud mutaxassislarga yordam so'rab murojaat qilinadi. IMA rasmiy saytidagi havola orqali o'tib, haqiqiy patent vakillari ro'yxati bilan tanishib chiqishingiz mumkin. Patent vakiliga yordam so'rab murojaat qilganda ishonchnoma rasmiylashtirishingiz lozim. U oddiy yozma shaklda rasmiylashtiriladi. Notarial tasdiqlash talab etilmaydi. Talabnomaga ishonchnomani albatta ilova qilish kerak. Talabnoma taqdim etilganidan keyin, uni ko'rib chiqish jarayonida ham patent vakili xuddi shu shartlarda ishga jalb etilishi mumkin.

Talabnoma qanday yoziladi. Havola orqali yuklab olinadigan blankani to'ldiring. Shu yerning o'zida uning to'ldirilgan namunasi keltirilgan. Qoidalarining II bobida¹⁷ blankani

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2009 yil 29 iyulda 1988-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009 y., 30-31-son, 353-modda; 2011 y., 40-son, 417-modda; 2013 y., 37-son, 489-modda.

to'ldirishga doir batafsil yo'riqnoma va tushuntirishlar berilgan. Uning mazmuniga doir quyidagi talablar belgilangan, u quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

tovar belgisi sifatida belgini ro'yxatdan o'tkazish uchun talabnoma beruvchining joylashgan joyi yoki yashash manzili ko'rsatilgan arizasi;

talabnomada ko'rsatilgan belgining tasviri;

belgilarni ro'yxatdan o'tkazish uchun tovarlar va (yoki) xizmatlarning xalqaro tasnifiga muvofiq guruhlangan, tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazish so'ralayotgan tovarlar va (yoki) xizmatlarning ro'yxati.

Ayrim hollarda talabnomaga qo'shimcha hujjatlar ilova qilinishi kerak bo'ladi. Jamoaviy belgini ro'yxatdan o'tkazish uchun talabnoma taqdim etilsa, unga yuridik va (yoki) jismo-niy shaxslar birlashmasi qatnashchilarining jamoaviy belgidan foydalanish to'g'risidagi **kelishuvi** ilova qilinadi.

Kelishuvda quyidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim:

jamoaviy belgini o'zining nomiga ro'yxatdan o'tkazishga vakolat berilgan shaxsning nomi;

ushbu belgidan foydalanish huquqiga ega bo'lgan shaxslar ro'yxati (to'liq rasmiy nomi va joylashgan joyini ko'rsatgan holda);

jamoaviy belgini ro'yxatdan o'tkazish maqsadi;

jamoaviy belgi bilan belgilanadigan tovarlarning ro'yxati va yagona sifat yoki boshqa umumiy ko'rsatkichlari;

jamoaviy belgidan foydalanish shartlari;

jamoaviy belgidan foydalanishni nazorat qilish tartibi haqidagi nizom;

kelishuvni buzganlik uchun javobgarlik haqidagi nizom.

Bu – muhim! Barcha hujjatlar ulardan nusxa olish qulay bo'lishini mo'ljallab rasmiylashtirilishi lozim.

Talabnoma o'zbek yoki rus tilida yozilgan bo'lishi kerak. Ilova qilinadigan hujjatlar o'zbek, rus yoki boshqa tilda bo'lishi mumkin. Agar talabnoma hujjatlari boshqa tilda topshi-

rilgan bo'lsa, talabnomaga ularning o'zbek yoki rus tilidagi talabnoma beruvchi yoki patent vakilining imzosi bilan tasdiqlangan tarjimasi ilova qilinadi.

Talabnomaga talabnomani topshirish uchun belgilangan tartibda patent boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjat ilova qilinishi lozim.

Taqdim etilgan talabnomaga o'zgartirishlar qanday kiritiladi.

Talabnoma materiallariga tuzatish, aniqlashtirish va qo'shimchalar kiritish uchun IMAga o'z xohishingiz bayon etilgan arizani yo'llashingiz zarur. Bunda u talabnoma mohiyatini o'zgartirishi mumkin emasligini yodda tuting. Ariza yozishda havola orqali olinadigan kerakli blankadan foydalaning. Qoidalarining III bobida tegishli talabnomalarni yozishga doir batafsil yo'riqnomalar berilgan.

Talabnomaga quyidagi o'zgartirishlar kiritilishi mumkin: talabnoma beruvchining, patent vakilining nomini, nomlashini o'zgartirish; talabnoma beruvchining, patent vakilining manzilini, yozishmalar olib boriladigan manzilini o'zgartirish; talabnoma beruvchini o'zgartirish; kelishuvga o'zgartirish kiritish; xatolarni tuzatish; tovarlar ro'yxatini qisqartirish.

Arizaga talabnoma materiallariga o'zgartirishlar kiritish uchun patent boji to'langanligi to'g'risidagi hujjatni ilova qilish zarur.

Talabnomani ko'rib chiqishga uzoq vaqt ketadi. Taqdim etilgan ma'lumotlar rasmiy ekspertizadan va talabnomada ko'rsatilgan belgi ekspertizasidan o'tkaziladi. Rasmiy ekspertizadan o'tkazishning o'ziga 30 kun ajratiladi, uning davomida talabnoma materiallari tarkibi, zarur hujjatlar mavjudligi va ularning belgilangan talablarga muvofiqligi tekshiriladi. Biroq taqdim etilgan hujjatlar belgilangan talablarga muvofiq emasligi aniqlansa, ushbu muddat uzaytiriladi. Talabnoma beruvchiga so'rovnoma yuboriladi, unga uch oy ichida javob berish zarur. Biroq talabnoma beruvchining iltimosnomasiga

ko'ra ushbu muddat ham uzaytirilishi yoki o'tkazib yuborilgan taqdirda tiklanishi mumkin.

Talabnoma beruvchi muddatni uzaytirish to'g'risida yozma shaklda iltimosnoma beradi va patent boji ni to'laydi. Bunday iltimosnoma talabnoma beruvchiga so'rovnoma yuborilgan sanadan e'tiboran uch oy o'tguncha taqdim etiladi.

O'tkazib yuborilgan muddatni tiklash to'g'risidagi iltimosnoma talabnoma beruvchi tomonidan muddat o'tib ketgan kundan boshlab ikki oy ichida muddatni o'tkazib yuborishga uzrli sabablarni ko'rsatgan holda taqdim etiladi. Iltimosnoma talabnoma beruvchi tomonidan ekspertiza so'ragan qo'shimcha materiallar bilan yoki ularni taqdim etish muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnoma bilan birgalikda taqdim etiladi. Iltimosnoma bilan birgalikda belgilangan miqdorda patent boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etiladi. Shuni yodda tutish lozimki, agar shunday hujjat taqdim etilmagan bo'lsa, iltimosnoma taqdim etilmagan deyiladi, bu haqda talabnoma beruvchiga bildirishnoma yuboriladi.

Hujjatni taqdim etish muddatini uzaytirish yoxud o'tkazib yuborilgan muddatni tiklash to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda talabnoma beruvchi IMA tomonidan xabardor qilinadi.

Talabnoma beruvchidan qo'shimcha materiallar so'ralishi mumkin, shu jumladan bunday materiallarsiz talabnomada ko'rsatilgan belgining ekspertizasini o'tkazib bo'lmaganda. Taqdim etilgan qandaydir hujjat yoki ma'lumotlarning haqiqiyliги (ishonchliligi) yuzasidan ekspertizada asosli shubhalar yuzaga kelganda talabnoma beruvchidan tasdiqlovchi ma'lumotlar so'ralishi mumkin. So'rovnomada muayyan masala bo'yicha ekspertiza bildirgan fikr, xususan, Qonun moddalari, Qoidalar va boshqa normativ hujjatlardagi qoidalarga havolalar bilan asoslangan bo'lishi kerak¹⁸.

¹⁸ https://buxgalter.uz/publish/doc/text151659_tovar_belgisi_qanday_ruyhatdan_utkaziladi

Talabnoma, odatda, talabnoma beruvchining ishtirokiz ko'rib chiqiladi. Biroq ba'zi hollarda uning ishtirok etishi zarur bo'ladi. Ekspertiza tomonidan talabnomada ko'rsatilgan belgi, tovarlar va xizmatlar ro'yxati bo'yicha qo'shimcha tushuntirishlar olish zarurati, talabnomada ko'rsatilgan belgining ro'yxatdan o'tkazish shartlariga muvofiqligi yuzasidan ekspertizaning va talabnoma beruvchining pozitsiyasini aniqlash ana shunday hollarga kiradi.

Tomonlar bir-birlariga bermoqchi bo'lgan savollar bilan tanishib chiqqandan so'ng uchrashuv o'tkaziladi. Ekspertizaning savollari qo'shimcha ravishda uchrashuvning maqsadga muvofiqligi xabar qilingan so'rovnomada, talabnoma beruvchining savollari uni o'tkazish haqidagi iltimosnomada bayon etilishi mumkin.

Uchrashuv vaqti oldindan kelishiladi. Yuzma-yuz uchrashuv yakunlariga ko'ra bayonnoma tuziladi. Ekspertizaning so'rovnomalariga talabnoma beruvchining javobi bayonnoma o'rnini bosishi mumkin.

Tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi qaror. Talabnomada ko'rsatilgan ro'yxatdagi barcha tovarlar va xizmatlar yoki qonun hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiq keluvchi ushbu ro'yxatning faqat bir qismi yuzasidan qaror qabul qilinadi. Rangli tasvirdagi belgini ro'yxatdan o'tkazish so'ralayotgan bo'lsa, tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi qarorda belgidagi rang yoki ranglar uyg'unligi ko'rsatiladi.

Tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi qaror ro'yxatdan o'tkazish sanasiga qadar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari asosida avvalroq ustuvorlikka ega bo'lgan aynan o'xshash yoki aralashtirib yuborish darajasida o'xshash tovar belgisiga talabnoma kelib tushishi munosabati bilan qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Xalqaro ro'yxatdan o'tkazish va O'zbekistonda huquqiy jihatdan muhofaza qilish. Bu borada quyidagilar-

ni yodda tutish zarur: BIMT XBning xabarnomasida keltirilgan xalqaro ro'yxatdan o'tkazilgan belgilar davlat ekspertizasidan o'tkazilganda ijobiy xulosa chiqarilgandagina O'zbekiston hududida huquqiy jihatdan muhofaza qilinadi;

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasiga binoan, avval muhofaza qilingan va xalqaro reestrda chiqarilgan tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazish haqidagi talabnoma IMa ga avval ushbu belgini xalqaro ro'yxatdan o'tkazish egasi bo'lgan shaxslar tomonidan topshirilishi mumkin.

Madrid bitimi tartiblari haqida ozgina to'xtalib o'tsak. Madrid Bitimining mohiyati shundan iboratki, bitimning ishtirokchi mamlagatlaridan biri (kelib chiqish mamlakati) da ro'yxatga olingan tovar belgisi BIMT Xalqaro byurosi (Jeneva)da xalqaro ro'yxatga olish yo'li bilan boshqa ishtirokchi mamlakatlarda soddalashtirilgan tartibda muhofaza qilinishi mumkin. Ushbu Bitimga muvofiq ro'yxatga olish xalqaro ro'yxatga olish hisoblanadi, chunki **har bir bunday ro'yxatga olish muhofaza so'ralayotgan barcha mamlakatlarda kuchga ega**. Ya'ni talabnoma beruvchidan boshqa ishtirokchi mamlakatlarda milliy ro'yxatga olish uchun hech qanday qo'shimcha xatti-harakatlar talab qilinmaydi. (xalqaro patent berish ko'zda tutilmaydigan ixtirolar uchun RST tizimidan tubdan farq qilishiga aloqida e'tibor bering).

Talabnoma beruvchi tomonidan tovar belgisining o'z mamlakati (belgining kelib chiqish mamlakati)ning milliy patent idorasida dastlabki ro'yxatga olinishi tovar belgisini xalqaro ro'yxatga olish yo'lidagi birinchi qadam deb hisoblanishi mumkin. **Ammo milliy patent idorasida ro'yxatga olinmagan tovar belgisini xalqaro ro'yxatga olish mumkin emas**.

Tovar belgisini xalqaro ro'yxatga olish uchun talabnoma kelib chiqish mamlakatining milliy patent idorasi orqali BIMT Xalqaro byurosiga taqdim etiladi. Talabnoma tarkibiga maxsus blankada tuzilgan ariza va ro'yxatga olish uchun

talabnoma berilayotgan belgining tasviri kiradi. Talabnoma xalqaro ro'yxatga olish so'ralayotgan tovar va xizmatlar uchun ro'yxat, shuningdek ularning MKTU bo'yicha toifasini o'z ichiga olishi kerak. Madrid Bitimining rasmiy tili fransuz tili hisoblangani sababli, **xalsaro talabnomaning barcha materiallari faqat fransuz tilida tuziladi.**

Xalqaro talabnoma taqdim etishda belgilangan miqdorda xalqaro boj to'lanishi zarur.

Milliy IMA yoki patent idorasi xalqaro ro'yxatga olish uchun talabnomani olgandan keyin uning ro'yxatga olingan milliy tovar belgisiga mos kelishini tekshiradi va talabnoma berish sanasini belgilaydi. Agar talabnoma o'rnatilgan talablarga mos kelsa, milliy patent idorasi talabnomani Xalqaro byuroga jo'natadi.

Xalqaro byuro talabnomani olgandan keyin zudlik bilan ushbu tovar belgisini ro'yxatga oladi. Shundan so'ng tovar belgisi xalkaro ro'yxatga olinganligi to'g'risida talabnoma beruvchini, talabnoma beruvchi o'z belgisini muhofaza qilishni so'rayotgan mamlakatlarning milliy patent idoralarini xabardor qiladi va BIMT chop etadigan davriy byulletenda **xalqaro ro'yxatga olish to'g'risidagi ma'lumotlarni nashr qiladi.**

Madrid Bitimiga muvofiq, ro'yxatga olingan tovar belgisining amal qilishi tarqaladigan har bir davlat ushbu belgi milliy ro'yxatga olish talablariga to'g'ri kelmasa, bir yil (12 oy) mobaynida xalqaro ro'yxatga olishni tan olmay, rad etish huquqiga ega. **Biroq bir yildan keyin xalqaro ro'yxatga olingan belgini rad etish mumkin emas.** Agar yil davomida bunday rad etish hollari qayd etilmasa, xalqaro ro'yxatga olish undan kelib chiqadigan mutlaq huquqlar bilan birga milliy ro'yxatga olish kuchiga ega bo'ladi.

Xalqaro ro'yxatga olishning amal qilish muddati 20 yilni tashkil qiladi hamda uni bir necha bor xuddi shunday davrga uzaytirish mumkin bo'ladi.

Endi yana bir masala to'g'risida gapirmasa bo'lmaydi. Bugungi kunda respublikamiz bozorlarida sotilayotgan kontrafakt – asl mahsulotni qaroqchilik yo'li bilan ishlab chiqarish va sotish hollari ko'payib bormoqda. Asl mahsulotning shtrix kodi, muddati, ishlanishi ancha ustun bo'ladi. Qaroqchi mahsulot bozori chaqqonligi patent egasiga iqtisodiy zarar keltiradi. Shuning uchun mutasaddi vazirlik va idoralar bu borada bosh qotirish va patent egalarini himoya qilishi talab etiladi **(qo'llanmaning Ilova qismida O'zbekistondagi ko'plab kontrafakt mahsulotlar haqida aniq ma'lumot berib o'tilgan – B. O.)**.

Nazorat uchun savollar

1. Tovar belgilari va tadbirkorlar o'rtasida qanday bog'liqlik bor?
2. Tovar belgisini ro'yxatga olish qancha davom etadi?
3. Brend (e'tirof etilgan) o'zbek mahsulotlari haqida so'zlab bering.
4. Dunyoning brend mahsulotlarini chiqaradigan mashhur kompaniyalar faoliyatidan xabardormisiz?
5. Madrid bitimi tartiblarini bilasizmi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Belgilarni xalqaro ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida Madrid Bitimi. T.: IPS. NORMA.1967.
2. Tovar belgilari bo'yicha qonunlar to'g'risida Shartnoma. T.: IPS. NORMA.1994.
3. Belgilarni ro'yxatga olish uchun tovarlar va xizmatlarni xalqaro tasniflash to'g'risida Nissa bitimi. T.: IPS. NORMA.1957.
4. "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi Qonun. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001 y., 9-10-son, 178-modda; 2002 y., 9-son, 165-modda; O'zbekiston Respub-

likasi qonun hujjatlari to'plami, 2007 y., 37-38-son, 379-modda; 2011 y., 52-son, 555-modda; 2013 y., 1-son, 1-modda.

5.O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2009 yil 29 iyulda 1988-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan Qoidalar. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009 y., 30-31-son, 353-modda; 2011 y., 40-son, 417-modda; 2013 y., 37-son, 489-modda.

6-MAVZU. PATENT AXBOROTI VA PATENT TADQIQOTLARINI O'TKAZISH

Reja:

1. Xalqaro patent tasnifi (klassifikatsiyasi)
2. Patent axborotini qidirish usullari. Ma'lumotlar bazalari bilan ishlash. Jahon mamlakatlari patent hujjatlari.

Patent axboroti - bu eng zamonaviy texnik yutuqlardan to'la hajmda va imkon qadar tez foydalanish demakdir. Patent axboroti nafaqat ilmiy-texnik, balki katta tijorat qiymatiga ega. Patent axboroti o'z ichiga texnik axborot, huquqiy axborot, iqtisodiy va boshqa axborot turlarini oladi. Jamoatni patent axborotidan foydalanishini yengillashtirish uchun ixtisoslashgan patent fondlari va patent ma'lumotlar bazalari ishlab turibdi. Ular patent axborotini qidirish va zarur ma'lumotlarni tahlil qilishni osonlashtirish uchun ularni tartibga oladi va saqlaydi.

BIMT statistikasining ko'rsatishicha, jahonda har yili millionga yaqin yangi ixtiro, yarim millionga yaqin sanoat namunasi, milliondan ortiq tovar belgilari yaratiladi, yaratilayotgan adabiyot va san'at asarlarining miqdori shunchalik kattaki, rasmiy jihatdan ularni hisob-kitob kilib bo'lmaydi.

Shuni qayd etish lozimki, intellektual mulk ob'ektlari nafaqat industrial va iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi, balki fan va texnika sohasidagi axborot almashinuvi-ning muhim vositasi, jamiyat madaniy rivojining ko'rsatkichi bo'lib koldi.

IM huquqlarining ishonchli muhofazalanishi huquqiy jamiyat rivojining darajasi, davlatning iqtisodiy rivojlanishi ko'rsatkichidir. Faqat shunday huquqiy jamiyatdagina ijodkor kishilar, biznesmenlar, tovar ishlab chiqaruvchilari va boshqalar o'z mehnatlari samarasini ko'rgandagina, uni davom ettirish uchun iqtisodiy rag'batga ega bo'ladilar. Agar inson o'z huquqlarini, ularni qanday qilib huquqiy jihatdan rasmiylashtirish, muhofaza qilish va foydalanishni bilsagina (ya'ni, tijorat foydasi olsagina), u IM huquqlari tizimining foydali tomonlaridan foydalana oladi.

Bugungi kunda zamonaviy texnik bilimlar, ixtirolar sanoat namunalari va hakoza to'g'risidagi axborotning qanchalik muhimligi barchaga ayon. Aniq va o'z vaqtidagi axborotga ega bo'lish aksariyat holarda muvaffaqiyat va mag'lubiyat o'rtasidagi farqni bildirishi mumkin. Masalan, yangi ixtirolar to'g'risida axborotga ega bo'lmagan har qanday tadqiqot instituti kimdir allaqachon hal qilib qo'ygan muammo ustida tadqiqot olib borayotganini aniqlaguncha qancha vaqt va mablag'ni behuda sarflashi mumkin. Bunday o'zini oqlamaydigan tavakkalchiliklarga faqat bir usul – har qanday loyihani tegishli axborot tadqiqotlari o'tkazishdan boshlash bilan yo'l qo'ymaslik mumkin.

Patent axborotini universal axborot resursi deb atash mumkin, chunki u ham katta tijorat qimmatiga ega. Jumladan:

1. Patent axboroti doimiy ravishda hajmi oshib borayotgan zamonaviy texnika yutuqlaridan tez va to'la xabardor bo'lib borish imkonini beradi. Patentlar hamma vaqt eng so'ngi axborotni beradi, chunki bozor iqtisodiyoti va raqobat kurashi ixtirochilar (yoki ularning ish beruvchilari)ni o'z g'oyalarini patentlashni birinchi navbatdagi vazifa, deb hisoblashga majbur qiladi. Chunki bir xil ixtiroga talabnoma beruvchilar ichida birinchi bo'lib talabnoma bergan kishi patent oladi va demak bu patentdan kelib chiqadigan huquqlarga ega bo'ladi;

2. Muhim huquqiy axborotlar, masalan, patent bilan muhofazalangan ixtiro hajmi, mutlaq huquqlarning amal qilish muddati va hokazo to'g'risidagi axborotlarni o'z ichiga oladi;

3. IM ob'ektlarini iqtisodiy tahlil qilish, balki texnika, ishlab chiqarish tarmoqlari, tadbirkorlik faolligining rivojlanishini kuzatish imkonini beradi;

4. Patent axboroti patent egalari, ixtirochilar, ularning patent agentlari bilan aloqa bog'lash uchun ular to'g'risidagi (manzili, telefonlari va h.k.) foydali axborotlarni ham o'z ichiga oladi. Bu litsenziya shartnomalari tuzish, patentlangan mahsulotni sotish yoki sotib olish, hamkorlikda ilmiy taqqiqot ishlari yoki innovatsiya loyihalarini bajarish uchun zarur bo'lgan amaliy aloqalarni tezda o'rnatish imkonini beradi.

Patent axborotini talabnoma berilgan va sanoat mulki ob'ektlari (ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari) sifatida tan olingan turli texnik echimlari va ishlanmalar to'g'risidagi, shuningdek patentlar va ushbu mulkka tegishli sub'ektlarning huquqiy maqomi to'g'risidagi axborot deb atash mumkin.

Tuzilishi jihatidan patent axboroti quyidagi axborot resurslariga bo'linadi.

1. Patent hujjatlari, u o'z ichiga rasmiy chop etilgan patent olish uchun berilgan talabnomalar yoki patent berilgan ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalarining tavsiflari, shuningdek ro'yxatga olingan tovar belgilari to'g'risidagi ma'luotlarni oladi. Qayd etib o'tamizki, ko'p mamlakatlarda patent olishga berilgan talabnomalar Patent idoralari o'tkazadigan va talabnoma berilgan ixtiroga qarshi bo'lgan bir qator materiallarni o'z ichiga oladigan patent qidiruv to'g'risidagi hisobotlar bilan birga nashr etiladi.

Patentga bog'liq adabiyotlar, u dastlabki patent hujjatlari: referatlar, annotatsiyalar, formula bandlarini tahliliy sintetik qayta ishlash natijasidagi turli materiallardan iborat bo'ladi. Bunday materiallar odatda, tarkibidagi axborotning xarak-

teri va maqsadiga ko'ra ixtisoslashgan turli referativ yoki obzorlarda chop etiladi.

Patent axboroti texnik va tijorat axborot manbai bo'lishidan tashqari, quyidagi o'ziga xos xususiyatlari ham tilga olinadi:

1. Barcha patent hujjatlari bir xil tuzilishga ega.

Har bir ixtiro tavsifida ixtirodan oldingi texnika darajasi ochib beriladi va ixtironing ushbu texnika darajasiga qo'shgan xissasi (uning yangiligi) ajratib ko'rsatiladi. Bu patent hujjatidan foydalanuvchiga boshqa ilmiy-texnik adabiyotlarni o'rganmasdan turib ham ixtironi tahlil qilish imkonini beradi, shuningdek shu soxaning texnologik rivojlanish tarixini ochib beradi.

2. Patent hujjatlari faqat g'oyaning o'zini ochib beribgina qolmay, balki, odatda uni sanoatda amaliy qo'llanish imkoniyati to'g'risidagi mufassal axborotni beradi. Aksar hollarda patent hujjatlari boshqa adabiyotlarda chop etilmaydigan axborotlarni beradi. Masalan, Amerika mutaxassislarining baxolashicha, AQSh patentlarida ochib berilgan texnologiyalarning kamida 70 % patent adabiyotlaridan boshqa adabiyotlarda ochib berilmagan.

3. Patent hujjatlari tasnif ramzlariga ega bo'lib, ular patent hujjatlarini ularning mazmuni qaysi texnika soxasiga tegishli bo'lsa, shu soxaga muvofiq tasniflash imkonini beradi. Bu esa axborot qidiruvini osonlashtirish uchun patent axboroti masivlariga ishlov berish va sistemalashtirish imkonini beradi.

4. Barcha patent hujjatlari bibliografik ma'lumotlar bilan ta'minlanadi, ular huquqiy ma'lumotlar, masalan, patent berilgan sana, ixtironing ustuvorlik sanasi, talabnoma beruvchi to'g'risidagi ma'lumotlar va boshqalar keltiriladi. Patent hujjatlarini qidirish va ishlov berishni engillashtirish uchun bibliografiya umumqabul qilingan maxsus kodlar bo'yicha sistemalashtiriladi.

5. Patentlar tarkibida referat bo'lib, u axborot qidiruvini tezda, ixtiro tavsifi va formulasiga faqat zaruriyat tug'ilgan-

dagina bevosita murojaat qilgan holda, amalga oshirish imkonini beradi.

6. Tasnif ramzlarining mavjudligi va bibliografik ma'lumotlarning kodlanishi avtomatlashtirilgan ma'lumot-axborot tizimlari ma'lumotlar bazalarini yaratish imkonini beradi, ulardan axborot tadqiqotlari o'tkazishdan keng foydalaniladi.

BIMTning statistik ma'lumotlariga ko'ra, jahonda bir yilda beriladigan **talabnomalar soni 2,5 mln. dan oshadi. Uning 30 foizigina patentga aylanadi**¹⁹. Dunyo reytingiga ko'ra, har yili Xitoyda 1,401 mln, AQSh 622,0 ming, Yaponiya 319, 0 ming talabnoma topshirilsa, O'zbekistonda u bor-yo'g'i 541 tani tashkil etadi (55-o'rin). Bugungi kunda barcha olingan patentlarning soni 40 mln. dan oshadi. Tabiiyki, patent hujjatlarining asosiy qismi yetakchi industrial rivojlangan mamlakatlarga to'g'ri keladi.

BIMT standartlari (RST shartnomalari) bilan ixtirolarga patent berilishi so'rlagan talabnomalar bo'yicha patent-axborot qidiruvi o'tkazishda Patent idoralari tayanadigan patent hujjatlari minimumi belgilanganda. Ushbu minimum o'z ichiga 1920 yildan boshlab Buyuk Britaniya, Germaniya, Rossiya (sobiq SSSR bilan birga), AQSh, Fransiya, Shveytariya (faqat franstuz va nemis tillarda) va Yaponiyada nashr etilgan patent hujjatlarini oladi. Bu minimumga shuningdek Yevropa patent idorasi nashrlari va BIMT nashr qiladigan RST xalqaro patent talabnomalari kiradi.

Axborot qidiruvi texnikaning u yoki bu soxasi rivojlangan boshqa mamlakatlar bo'yicha ham o'tkazilishi mumkin. O'zbekiston patentini olish uchun talabnoma talabnoma beruvchilar albatta O'zbekiston Patent hujjatlari bo'yicha axborot qidiruvi o'tkazishlari shart. Patent axboroti qidiruvini olib

¹⁹ Reyting stran mira po kolichestvu patentov — sravnitelniy analiz statisticheskix dannix o patentnoy aktivnosti stran mira, kottoriy vipuskaetsya Vsemirnoy organizatsiey intellektualnoy sobstvennosti (World Intellectual Property Organization).

borish mamlakati qidiruvining vazifasidan kelib chiqib tanlanishi kerak. Masalan, ixtironi Avstraliyada patentlash mo'ljallanayotgan bo'lsa, axborot qidiruvi o'z ichiga Avstraliya patent hujjatlarini olishi zarur. Axborot qidiruvi olib borishda patent hujjatlarining u yoki bu mamlakatning muayyan qonunchiligiga bog'liq bo'lgan bir nechta turlari mavjudligini bilish kerak.

Patent hujjatlarining muayyan turlari ixtiro tavsiflarida BIMTning St 16 standarti bo'yicha harfiy raqamli kodlar bilan belgilanadi. O'zbekistonning bosh patent fondi IMAdagi Davlat patent kutubxonasi (Toshkent sh.) hisoblanadi. Bu fond da jahonning 70 dan ortiq mamlakatidan to'plangan ixtirolarning tavsiflari va patent byulletenlari saqlanadi. **Bizning taklifimizcha, barcha oliy o'quv yurtlari (ular soni 140 da oshgan) magistrleri va tadqiqotchi olimlari davlat patent fondiga majburiy ravishda 5-10 kunga tashrif buyurishi kerak bo'ladi. Bu tashrif ularga ko'plab g'oyalar, fikrlarni beradi.**

XX asrning oxirlarida Butun jahon Internet tarmog'ining tarqalishi munosabati bilan patent axborotidan foydalanish va unga ishlov berish samaradorligini oshirishda yangi bosqich boshlandi. Yangi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishi bir vaqtning o'zida soni chegaralanmagan iste'molchilarning patent axboroti bo'yicha ma'lumotlar bazalari zaxiralaridan foydalanish uchun keng imkoniyatlar ochib beradi. Yirik ma'lumotlar bazalarining rivojlanishi bilan patent axborotining eltuvchilari sifatida optik disklar va kichik patent fondlariga extiyoj pasayadi. Har bir foydalanuvchi o'z ish joyini tark etmagan holda o'zining kompyuteri orqali kerakli axborotni osongina topishi mumkin.

Bugungi kunda eng to'liq va foydalanish uchun qulay ma'lumotlar bazalari quyidagilardan iborat:

ERO espasenet (manzili: <http://bbb.epo.org/>/espasenet), u orqali Yevropa Patent idorasining patent hujjatlari, RST,

Yevropa mamlakatlari, shuningdek AQSh, Yaponiya, Kanada va boshqa mamlakatlarning talabnomasini qidirish mumkin;

BIMT ma'lumotlar bazalari (manzili: <http://indpl.wipo.int>), unda RST talabnomalari, AQSh, Yevropa, Lotin Amerikasi mamlakatlari patent hujjatlari mavjud;

AQSh Patent idorasi ma'lumotlar bazalari (<http://bbb.yuspto.gov/web/meny/>), u 1976 yildan boshlab to'plangan to'liq matnli va referativ ma'lumotlar bazalaridan foydalanish imkonini beradi.

Rossiya sanoat mulki federal instituti ma'lumotlar bazalari (<http://bbb.fips.ru>), u axborotni rus tilida qidirish uchun qulaydir;

Devent firmasining ma'lumotlar bazalari (<http://vvv.devent.com>), u 1963 yildan boshlab to'plangan farmastevtika bo'yicha hujjatlar, 1995 yildan boshlab to'plangan qishloq xo'jaligi va veterinariya bo'yicha hujjatlar, shuningdek jahonning 40 dan ortiq mamlakatidan boshqa tarmoqlar bo'yicha talabnoma va patentlarni o'z ichiga oladi.

Jahon ma'lumotlar bazalariga kirish uchun Internet tarmog'idan foydalanish patent axborotini tezkor qidirish va ishlov berish uchun yangi imkoniyatlar ochib beradi.

Xalqaro patent tasnifining maqsadi axborotni tezda qidirib topish va ishlov berish imkoniyatini ta'minlash uchun patent hujjatlarini sistemalashtirish (tartibga solish) tizimini yaratishdan iborat. Qabul qilingan tasniflash tizimi asosida patent fondlarida patent hujjatlari indeksastiyalanadi va joy-joyiga qo'yiladi, ma'lumotlar bazalarida axborot qidiriladi.

XPT tashkil etish tarixi 1951 yilda, Yevropa patent ishlari bo'yicha kengashi tomonidan Patent tasnifi bo'yicha kichik komitet tashkil etilgan vaqtdan boshlanadi. Bu komitet, bir qator Yevropa davlatlari o'rtasidagi kelishuvga muvofiq, o'sha vaqtda qo'llanilayotgan ixtirolarni tasniflashning turli milliy tizimlarini unifikastiyalashtirish ishlarini boshladi.

1954 yilda XPTning asosiy sxemasi tuzildi. 1966 yilda

XPTning kichik guruhlargacha bo'lgan aniqlikdagi ishlanmasi (to'liq sxemasi) ni ishlab chiqish ishlari tugallandi va u 1968 yilning 1 sentabridan boshlab kuchga kirdi. 1971 yilda Xalqaro patent tasnifi bo'yicha Strasburg bitimi tuzildi. Ushbu bitimning ishtirokchilari faqat 29 davlatdan iborat bo'lsa ham, aslida jaxonning 80 dan ortiq mamlakatidagi Patent idoralari, shuningdek mintaqaviy patent idorasi ham XPTdan foydalanadi. XPTning doimiy ravishda qayta ko'rib chiqish va uning zamon talablari darajasida bo'lishini ta'minlash uchun Strasburg bitimiga muvofiq, ekspertlar komiteti ta'sis etilgan bo'lib, bitimning ishtirokchi davlatlari vakillari uning a'zosi-dir. XPT muntazam ravishda xar besh yilda bir marta qayta ko'rib chiqiladi 2000 yilning 1 yanvaridan boshlab XPTning yettinchi taxriri amal qilmoqda.

XPT bo'yicha asosiy nashr sinflar ko'rsatkichi bo'lib, har biri lotin alifbosining bosh harflari bilan belgilanadigan **8 ta bo'limdan iborat:**

- A – Insonning hayotiy ehtiyojlarini qondirish;
- B – Turli texnologik jarayonlar;
- S – Kimyo va metallurgiya;
- D – To'qimachilik va qog'oz;
- E – Kurilish;
- F – Amaliy texnika; yoritish va isitish; dvigatellar va nasoslar; qurol va o'q dorilar;
- G – Texnik fizika;
- H – Elektr.

XPTning xar bir bo'limi sinflarga bo'linadi. Sinf ramziy ifodasiga bo'lim indeksi va ikkita raqam kiradi. Xar bir sinf o'z nomiga ega. Misol, A – Insonning hayotiy ehtiyojlarini qondirish bo'limi o'z ichiga "A 01 qishloq xo'jaligi" "A 61 Tibbiyot" va xokazo sinflarni oladi.

O'z navbatida sinflar kichik sinflarga bo'linadi, ularning ramziy ifodasiga lotin harfi bilan belgilanadigan bo'lim nomi, ikki xonali sondan iborat sinf belgisi va kichik sinfni bildiruv-

chi lotin harflari kiradi. Misol, “A 01 qishloq xo‘jaligi” sinfi “A 01 D xosilni yig‘ib-terib olish, o‘rim,...” va hokazo kichik sinflardan iborat.

Kichik sinflar o‘z ichiga guruxlarni oladi. Guruhlarning ramziy belgisiga bo‘lim indeksi, sinf, kichik sinf belgisidan tashqari bitta, ikkita yoki uchta raqamdan iborat ifoda kiradi, bu raqamli ifodadan keyin qiya chiziq va ikkita nol qo‘yiladi. Misol, “A 01 D 46/00 Mevalar, sabzavotlar, xmel va hokazolar-ni yig‘ishtirib olish, daraxt va butalarni silkitish qurilmasi”.

Har bir XPT guruhi bittadan bir nechtagacha kichik guruhlarga ega bo‘lishi mumkin. Misol: “A 01 D 46/08 Paxta terimi” va xokazo.

Muayyan kichik guruh indeksi va uning matn bilan ochib beriladigan (masalan, indeks H 10 H 23/00; uning mohiyati Tumbler qayta ulagichlar) mohiyati XPT ruknisi deb ataladi.

XPT rukni quyidagi tushunchalar toifasini bildiradi:

1. Muxofaza qilinadigan ob‘ektlar, ya‘ni qurilmalar, usullar, moddalar turlariga muvofiq ravishda mahsulotlar jarayonlar (misol: “A 01 D 46/10 ~o‘za ko‘sgini poyadan ajratish uchun paxta terish mashinalari”);

2. Faoliyat sohasining belgisi (misol: “A 61 Tibbiyot yoki vetereinariya”).

Birinchi guruh belgilardan XPTning barcha darajalari uchun foydalaniladi. Ikkinchi guruh, odatda, ierarxiyaning yuqori darajalarida (kichik sinf va undan yuqori) ularga qo‘shiladi.

XPT ierarxik tuzilma bo‘lganligi sababli, kichik guruhlarning ham bir-biriga nisbatan bo‘ysunishida ierarxik tuzulishga ega. Bunda bir kichik guruhning undan yuqori guruhga bo‘ysunish darajasini, xususan kichik guruh unga nisbatan bitta kam nuqtaga ega bo‘lgan yaqin yuqori ruknga bo‘ysunadigan rukn ekanligini ko‘rsatadi. Bunda ruknlar matni oldidagi nuqta ierarxiya bo‘yicha kattaroq guruhning matnini takrorlamaslik uchun uning o‘rnida qo‘llaniladi. Masalan, **H**

01 F 1/00 – “Tarkibida qattiq magnitli kukunsimon metallar yoki qotishmalar boʻlgan magnitlar yoki magnit jismlar” ruknining matni quyidagilardan tashkil topadi:

H 01 F 1/00 Magnit materiali boʻyicha farqlanadigan magnitlar yoki magnit jismlar

1/02. tarkibida qattiq magnit materiallar

1/04.. metallar yoki qotishmalar

1/06... zarrachalar shaklida, masalan kukun.

XPT ruknlari matnining oʻziga xos muhim xususiyati obʻektlarni belgilash uchun faqat umum qabul qilingan texnik atamalardan emas, balki ularning vazifasini koʻrsatadigan atamalardan foydalanilishidir, masalan, oʻziyurar transport vositalari (“avtomobillar” oʻrniga) yoki issiqlikni izolyatsiyalovchi qobiqli idishlar (“termoslar” oʻrniga). Bu xususiyat patent hujjatlarining huquqiy xarakteri, xususan ixtiro hajmini belgilash talablari bilan bogʻliq.

XPTning baʼzi bir ruknlari izohlar va havolalar shaklidagi “ichki maʼlumot-qidiruv apparati” bilan taʼminlanadi. Bunday havolalar quyidagicha boʻlishi mumkin:

1. Rukn hajmining cheklanganligini koʻrsatadi. Misol: bunday havola u bilan belgilangan mavzu shu ruknning matni bilan qamrab olinganligiga qaramay, u tasniflash tizimining boshqa joyiga kiritilishini bildiradi.

2. Boshqa ruknlarning ustunligini koʻrsatadi. “A 42 V 3/02 Bargli yoki maydalangan tamakini namlash yoki quritish (3/12 ustunlikka ega); A 42 V 3/12 Tamakini bugʻlash, fermentlash yoki aromatlash”. Bunday havola koʻrsatilgan boshqa rukn ustunlikka egaligini koʻrsatadi, yaʼni ixtiro bir vaqtning oʻzida shu ikki ruknga teng kiritiladigan hollarda uni shu ruknlarning birida – A 42 V 3/12da tasniflash maqsadga muvofiqligini bildiradi. Bu misolda bugʻlash, namlashning bir turi sifatida A 42 V 3/12 ruknida indeksastiyalanadi, tamakini namlashning boshqa usullari esa A 42 V 3/02 ruknida indeksastiyalanadi.

3. XPTning ba'zi joylari va kichik bo'limlarida oxirgi mos rukn qoidasi joriy qilingan. Ya'ni, ixtironing texnik mohiyati ega bo'lgan ikki yoki undan ortiq rukn bilan qamrab olingan bo'lsa, bu qoidaga muvofiq ixtironing texnik mohiyati ushbu ruknlardan faqat oxirgi ruknda tavsiflanadi. qayd etib o'tamizki, bu qoida tegishli izoxlr bo'lgan hollardagina, qo'llaniladi. Masalan, A 61 K, S07, S08, S10 va boshqa sinflarda.

XPTdan foydalanishni yengillashtirish uchun sinflar ko'rsatkichiga to'liq yo'riqnoma – XPTga kirish ilova qilinadi. Shuningdek ixtiro mohiyatiga oid muhim so'zlar bo'yicha tegishli indekslarni topish imkonini beradigan Alifbo-predmetli ko'rsatkich XPTning tarkibiy qismi xisoblanadi. Foydalanuvchilarga qulaylik yaratish uchun XPTga muhim atamalar ko'rsatkichi (u guruhlar ruknlari nomidan muhim atamalarni ajratib olish yo'li bilan yaratilgan APKning bir variantidan iborat), Teskari havolalar ko'rsatkichi (masalan, A rukni uchun boshqa istalgan rukndan A rukniga dalillar keltiriladi) va XPT turli redaksiyalarining bir-biriga moslik ko'rsatkichlari ham chiqariladi.

XPTda yo'riqnomaga muvofiq, ixtirolarni indeksatsiyalashning quyidagi asosiy qoidalari qo'llaniladi.

1. Eng avvalo, ixtironing texnik mohiyatini to'g'ri belgilab olish zarur. Masalan, yangi avtomobil porsheni ixtiro qilingan bo'lsa, ixtironing asosiy predmeti porshenning o'zi yoki uni qandaydir qurilma masalan IYoDda joylashtirish uchun porshenning maxsus moslamasi ekanligini aniqlab olish kerak;

2. So'ng ixtiro predmeti tegishli qurilmalar sinfi (kichik sinfi) bo'yicha indeksatsiyalanadi. Agar to'g'ri keladigan rukn topilmasa, ixtiro umumiy predmet sinfi (tur – zot, qism – butun) bo'yicha indeksatsiyalanadi.

3. Agar talab etiladigan sinf bo'lmasa, ixtiro predmeti qo'llanilishi bo'yicha indeksatsiyalanadi. Masalan, qurilma usulni amalga oshirish vositasi sifatida qaralishi va te-

gishlicha shu usul sinfi bo'yicha (masalan, suvga ishlov berish qurilmasi va hokazo) indeksastiyalanishi mumkin.

4. Agar qo'llanish bo'yicha sinfi bo'lmasa, ixtiro predmeti yakuniy mahsulotni olish vositasi sifatida qaralishi va yakuniy mahsulot (masalan, yog'och-qirindili plitalar tayorlash qurilmasi) sinfi bo'yicha indeksastiyalanishi mumkin;

5. Ixtiro ba'zi mahsulotlardan foydalanish (ishlov berish) vositasi sifatida qaralishi va shu mahsulot sinfida (masalan, kontakt linzalarini dezinfeksiyalash qurilmasi) indeksastiyalanishi mumkin.

6. Agar tegishli ruknlar topilmasa, ixtiro usulni amalga oshirish yoki yakuniy mahsulot olish uchun dastlabki mahsulot sifatida (masalan, keramika buyumlari ishlab chiqish uchun tarkib) qaralishi mumkin. Demak, ixtiro ushbu usul yoki yakuniy mahsulot sinfi bo'yicha tavsiflanadi;

7. Ixtironing o'zi yakuniy mahsulot bo'lishi, demak uni olish usuli bo'yicha indeksastiyalanishi mumkin.

Patent hujjatlarini sistemalashtirish imkoninini beradigan boshqa muhim xususiyat biliografiya ma'lumotlarining unifikastiyalashgan tizimi bo'lib, patent hujjatlari bu bibliografiya ma'lumotlari bilan ta'minlandi.

Har bir patent hujjati ushbu hujjatning asosiy ma'lumotlarini ochib beruvchi biliografik ma'lumotlar bilan ta'minlanadi. Bu bibliografik ma'lumotlarni identifikastiyalash uchun ST-9 BIMT Standartiga muvofiq INID-kodlaridan foydalaniladi.

Bibliografik ma'lumotlarni identifikastiyalash uchun foydalaniladigan asosiy INID-kodlari va eng zarur ma'lumotlarni keltiramiz:

- (10) hujjatlarni identifikastiyalash
- (11) hujjat nomeri
- (12) hujjat turining so'zlar bilan ifodalanishi
- (13) ST-16 BIMTga muvofiq hujjat turi kodi
- (19)hujjatni e'lon qiluvchi mamlakatni idetifikastiyalash uchun ST-3 BIMT kodi

- (20) Milliy ro'yxatga olish to'g'risidagi ma'lumotlar
- (21) Talabnomani ro'yxatga olish nomeri
- (22) Talabnoma berilgan sana
- (24) Sanoat mulki xuquqi amal qila boshlaydigan sana
- (25) Talabnoma dastlabki marta berilgan til
- (26) Talabnoma e'lon qilingan til
- (30) Ustuvorlik ma'lumotlari
- (31) Ustuvor talabnoma nomeri
- (32) Ustuvorlik sanasi
- (33) Ustuvorlik mamlakati
- (50) Texnik axborot
- (51) Xalqaro patent tasnifi
- (54) Ixtironing nomi
- (57) Ixtiro referati yoki formulasi
- (58) Patent qidiruvi
- (70) Hujjatga aloqador shaxslarni identifikastiyalash
- (71) Talabnoma beruvchi (lar)ning nomi (nomlari)
- (73) Patent egasining nomi
- (74) Patent vakili yoki agentining nomi
- (75) Ixtirochi, ham talabnoma beruvchi hisoblanadigan shaxs nomi
- (76) ham ixtirochi, ham talabnoma beruvchi va patent egasi bo'lgan shaxs nomi
- (98) Talabnoma beruvchi bilan yozishmalar olib borish uchun manzil.

3. Patent axborotlarini qidirish samaradorli bo'lishi uchun eng avvalo turli davlatlarning rasmiy patent byulletenlari bilan ishlay bilish va bu mamlakatlarda qanday patent hujjatlari nashr etilishini bilish zarur.

Qayd etib o'tamizki, har qanday qidiruvni O'zbekistonning patent xujjatlari bo'yicha boshlash zarur. Masalan, ixtiro deb kutilayotgan ishlanmaning yangiligini o'rganishda biz xuddi shunday ixtironi ochib bergan O'zbekiston patenti mavjudligini aniqlashimiz mumkin. Bu holda boshqa mamlakatlarning

patent hujjatlari bo'yicha ixtironing yangiligini tadqiq qilishni davom ettirish xech qanday ma'no kasb etmasligi aniq.

Bugungi kunda O'zbekistonda quyidagi patent hujjatlari nashr etiladi:

berilgan dastlabki patent va patentlarga ixtirolarning tavsifi;

patent berilgan foydali modellarning tavsifi;

“Rasmiy axborotnima” rasmiy patent byulleteni bo'lib, unda ro'yxatga olingan ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari, EHM uchun dasturlar, ma'lumotlar bazalari va seleksiya yutuqlari to'g'risidagi ma'lumotlar har oyda chop etiladi.

Qayd etib o'tamizki, berilgan muhofaza hujjati turining harfiy belgisi (ixtiroga patent – IAP, foydali modelga patent – FAP, sanoat namunasiga patent – SAP, tovar belgisiga guvohnoma - MGU) va beshta raqamdan iborat ketma-ket nomerlanadigan nomerlarga ega. Masalan, IAP 04452 nomeri ixtiroga berilgan patentni bildiradi. Muhofaza hujjatlaridan farqli ravishda talabnomalar har yili yangidan nomerlanadi, bunda talabnomaning dastlabki ikki raqami talabnoma topshirilgan yilni bildiradi. Masalan, IAP 99400582 nomeri bu ixtiroga talabnoma 1999 yildan 582-son bilan berilganligini bildiradi.

“Rasmiy axborotnoma” rasmiy byulleteni quyidagicha tuzulishga ega bo'ladi:

1. birinchi bo'limlarda davlat restrida ro'yxatga olingan ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari va boshqa ob'ektlar to'g'risidagi ma'lumotlar chop etiladi. Ro'yxatga olingan tovar belgilarining rangli tasvirlari byulletenning oxirida alohida bo'limda keltiriladi;

2. keyin ro'yxatga olingan litsenziya shartnomalari va sanoat mulkining turli ob'ektlariga huquqlarni berish to'g'risidagi shartnomalar chop etiladi;

3. so'ngra IMAning turli rasmiy xabarlari, intellektual mulk sohasidagi turli me'yoriy hujjatlar, bitimlar chop etiladi;

4. shundan so'ng patent egalari nomlarining o'zgarishi, muhofaza hujjatlarining amal qilishini muddatidan ilgari bekor qilish to'g'risidagi ma'lumotlar va hokazo chop etiladi;

5. oxirgi bo'limda ushbu byulletenda chop etilgan ob'ektlarning sistematik va nomer ko'rsatkichlari keltiriladi.

Har bir "Rasmiy axborotnoma" byuletenida barcha axborotlar ikki tilda: o'zbek va rus tillarida chop etilishini ta'kidlab o'tamiz. Endi axborotni qidirishning asosiy usullarini ko'rib chiqamiz. Odatda quyidagi usullardan keng foydalaniladi:

1. Mavzuviy yoki predmetli qidirish. Masalan, ushbu qidirish turida texnika darajasidan shu ixtiro bilan o'xshash texnik echimlar aniqlanadi, qidirish biror-bir qiziqarli texnik belgilari yoki o'lchamlari bo'yicha amalga oshiriladi.

2. Nomli qidirish. Bunday qidirish muayyan firmaning texnikaning biror-bir sohasi (sohalari)dagi ixtirosini aniqlash zarur bo'lgan hollarda o'tkaziladi. Bundan tashqari, muayyan ixtirochining faoliyati to'g'risida axborot olish juda muhim va hokazo. Nomli qidirish nafaqat texnik, balki tijorat qimmatiga ham ega bo'lishi ravshandir;

3. Xujjatning rasmiy belgilari, masalan hujjat nomeri, ustuvorlik sanasi, hujjatning chop etilishi va turi (patent, talabnoma, foydali model) bo'yicha qidirish. Masalan, ixtironing patentga layoqatliligini tadqiq etish, ob'ektning patent sofligini baholashda ushbu qidirish usulidan foydalaniladi.

Biz ilgari qayd etib o'tganimizdek, bugungi kunda patent qidiruvining eng tezkor vositasi jahon patent ma'lumotlari bazalarida Internet orqali qidiruv olib borishdir. Shuning uchun misol tariqasida Yevropa Patent idorasi (YePI) ma'lumotlar bazalarida patent axborotini qidirish usulini ko'rib chiqamiz.

Ushbu ma'lumotlar bazalari bilan ishlash quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

1. Ma'lumotlar bazalariga ulanish. Ma'lumotlar bazalariga <http://vww.epo.org> manzilini terib yoki bevosita <http://ep/>

espasenet.com/.EPI veb sayti orqali chiqish mumkin. Ma'lumotlar bazalariga ulangandan so'ng kompyuterda 12-rasm-da ko'rsatilgan "B1-es@senet-yor ratevay tou patents" beti paydo bo'ladi. Ma'lumotlar bazalari bilan nafaqat ingliz, balki nemis va fransuz tillarida ishlash mumkinligiga e'tiborni qaratamiz;

2. Foydalanuvchiga uchta faol darcha taklif etiladi;

1. Simple Text – mavzuviy va predmetli qidirish uchun;

2. Wiew a parent application – nomerlar bo'yicha qidirish uchun;

3. Company name Search – nom bo'yicha qidirish uchun;

Quyidagi qidirish vazifasiga bog'liq holda tegishli qidirish topshiriqlari to'ldirilgan va Search bosiladi.

3. Agar kengaytirilgan mezonlar sonidan foydalanib qidirish o'tkazilishi zarur bo'lsa, quyiroqdan ko'rsatilgan, masala, "Wordlvide – 30 mln documents" bosiladi. Bunda qidirish sahifasi paydo bo'ladi.

Bu trda faol darchalarga bizdagi mavjud qidirish mezonlarini kiritish mumkin. Masalan, agar bizning vatandoshlarimiz ixtirochi Zarif Tadjiboevning qanday talabnoma yoki patentlari borligini ko'rmoqchi bo'lsak (ma'lumot uchun shuni aytib o'tamizki, u RST tizimi bo'yicha xalqaro talabnoma bergan **bi-rinchi o'zbek ixtirochisi**) tegishli darchada lotin harfi bilan uning ismi va familiyasini terish kifoya.

4. Endi topilgan har qanday talabnoma yoki patentlar, masalan ER0794277 patentini ko'rib chiqish mumkin. Agar biz buni tanlasak, "B2-es@senet - Document viev Naviation" sahifasini ko'ramiz.

O'sha joyda patentning to'liq bibliografik ma'lumotlari va referat keltiriladi. Yuqorida ko'rsatilgan faol menyudan foydalanib ixtiro tavsifi (Desk), formula (Klaims) va chizmalar (Draving) ni ko'rish mumkin.

5. Agar biz V09616219ga bossak Butunjahon intellektual mulk tashkilotining ma'lumotlar bazalari bilan aloqa o'rna-

tamiz va ushbu xalqaro talabnomaning faksimal tasvirini ko'rishimiz mumkin.

Xulosada shuni ta'kidlaymizki, barcha izlab topilgan patent axboroti keyinchalik tahlil qilish, printerda bosib chiqarish va hokazo uchun kompyuterning qattiq disketalarida saqlanishi lozim.

Xalqaro patent tasnifi va tizimlari. Butun jahon intellektual mulk tashkilotining tarixi 1883 va 1886 yillardan - Sanoat mulkini muhofaza qilish Parij konvensiyasi va Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish Bern konvensiyasi qabul qilingandan boshlangan. Bu Konvensiyalar "Xalqaro byurolar" deb nomlangan o'z kotibiyatlarini tashkil etishni ko'zda tutgan edi. 1893 yilda bu ikki kotibiyat "Intellektual mulkni muhofaza qilish bo'yicha birlashgan xalqaro byurolar" yoki fransuz tilida qisqartirilgan BIRPI nomi ostida yagona kotibiyatga birlashtirildi.

Hozirgi Butun jahon intellektual mulk tashkiloti (qisqartirilgan shaklda "BIMT", ingliz tilida - "WIPO", fransuz va ispan tillarida — "OMRI") 1967 yil 14 iyulda imzolangan "Butun jahon intellektual mulk tashkilotini ta'sis etish Konvensiyasi"ga muvofiq tuzilgan. Bu Konvensiya 1970 yilda kuchga kirgan.

Hozirda BIMT Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tizimi tarkibiga (1974 yil dekabridan) kiruvchi ixtisoslashgan 16 ta tashkilotdan biri. 2020 yilga kelib tashkilot 204 davlatni birlashtirdi.

BIMTning faoliyati ko'p qirralidir. U milliy qonunchiliklarni zamonaviylashtirish bo'yicha yangi xalqaro bitimlar va loyihalarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadi, rivojlanayotgan mamlakatlarga texnik yordam ko'rsatadi, patent ma'lumotlarini yig'adi va tarqatadi, oylik jurnallar (xususan, "Sanoat mulki" va "Mualliflik huquqi" jurnallarini) chiqaradi, intellektual mulk ob'ektlarini himoya qilish sohasida xalqaro tartiblarning bajarilishini ta'minlaydi, BIMT a'zo davlatlari orasida

boshqa ko'rinishdagi ma'muriy hamkorlikni rivojlantirishga ko'maklashadi.

BIMT o'z faoliyatida quyidagi asosiy maqsadlarni ko'zda tutadi:

1. Davlatlar o'rtasida hamkorlik, shuningdek, boshqa ixtiyoriy xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro aloqa yo'li bilan butun jahonda intellektual mulkni muhofaza qilish va undan foydalanishga ko'maklashish.

Intellektual mulkni muhofaza qilish sohasida Ittifoqlar o'rtasida ma'muriy hamkorlikni ta'minlash. Parij Ittifoqi, Bern Ittifoqi, Madrid Ittifoqi, RST Ittifoqi va hokazo.

Shunday qilib, BIMT tarkibiga kiruvchi ittifoqlarni ma'muriy boshqaradi va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi. Hozirgi kunda sanoat mulki va mualliflik xuquqi sohasida 20 dan ortiq xalqaro konvenstiya, shartnoma va bitimlarning bajarilishi BIMT nazoratida turibdi.

BIMT Konvenstiya doirasida ta'sis etilgan uchta rahbarlik organiga ega: **Bosh Assambleya, Konferenstiya va Muvofiqlashtirish komiteti. BIMTning yuqori organi Bosh Assambleyadir.** Bosh Assambleya BIMT faoliyatining asosiy masalalarini hal qiladi, xususan, Muvofiqlashtirish komissiyasining taqdimotiga ko'ra BIMT Bosh direktorini tayinlaydi, Bosh direktor va Muvofiqlashtirish komissiyasining hisobotlarini ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi va ularga zarur yo'riqnomalar beradi, barcha Ittifoqlarga umumiy bo'lgan ikki yillik harajatlar budjetini tasdiqlaydi, kotibiyatning ish tillarini aniqlaydi, shuningdek boshqa ko'pgina masalalarni hal qiladi.

BIMT Konferenstiyasi muhimligi jihatidan BIMTning ikkinchi organi. Assambleyadan farqli ravishda, ittifoqlarda ishtirokidan qat'i nazar barcha BIMT a'zo mamlakatlari Konferenstiya a'zosi hisoblanadi. Konferenstiyaning vazifalariga intellektual mulk sohasida barcha mamlakatlarga umumiy ahamiyat kasb etadigan masalalarni muhokama qilish va ular bo'yicha mos tavsiyanomalar qabul qilish kiradi.

BIMTning uchinchi organi asosan barcha Ittifoqlar uchun ahamiyatli bo'lgan kelishuv tavsiyanomalarini ishlab chiqish uchun tuzilgan **Muvofiqlashtirish komiteti** hisoblanadi. Xususan, Muvofiqlashtirish komiteta Assambleya va Konferenstiyaning kun tartibini tayyorlaydi, Assambleyaga Bosh direktor lavozimiga nomzodni taqdim etadi va hokazo.

Bosh Assambleya va Konferensiya navbatdagi sessiyalarga ikki yilda bir marta yig'lsa, Muvofiqlashtirish komiteti o'z sessiyalarini yilda bir marta o'tkazadi.

Talabnoma beruvchilar tomonidan RST, Madrid va Gaaga tizimlari bo'yicha to'lanadigan xalqaro bojlar Xalqaro byuroning asosiy daromad manbai. Bunday bojlar, odatda, BIMT daromadlari umumiy yig'indisining 73%ni tashkil etadi. BIMTning boshqa daromadlari unga a'zo davlatlarning hukumatlari to'laydigan badallar (o'rtacha 18%) va BIMT nashrlarini sotishdan tushadigan daromadlardan tashkil topadi. BIMT shuningdek rivojlanayotgan mamlakatlarda patent tizimining shakllanishiga texnik va moliyaviy yordam ko'rsatadi.

Shunday qilib, BIMT faoliyati butun jahonda intellektual mulk huquqlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish uchun mustahkam asos yaratadi.

Nazorat uchun savollar.

1.Ma'lumotlar bazalari bilan ishlash, ularni qidirish va topish usullari?

2.Patent axboroti nima va qaysi maqsadlar uchun qidiruv ishlari olib boriladi?

3.Jahon mamlakatlari patent hujjatarini qidirish usuli.

4.Prototip qanday maqsadlar uchun qidirish ishlari olib boriladi?

5.Kompaniyaning intellektual aktivlari nima?

6.Kompaniya, korxonaning intellektual aktivlarini boshqarish uchun qanday asosiy qadam qo'yilishi lozim?

Foydalanilgan adabiyotlar

1."Tovar belgilari va xizmat ko'rsatish belgilari to'g'risida"-gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (1993 yil 7 mayda qabul qilingan).

2."EHM uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (1994 yil mayda qabul qilingan).

3."Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni (1994 yil 6 mayda qabul qilingan).

4."Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (1996 yil 30 avgustda qabul qilingan, 2006 yilda to'ldirilgan).

5."Seleksiya yutuqlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (1996 yil 30 mayda qabul qilingan).

6.O'zbekiston Respublikasi Fuqaro Kodeksi (1996 yil 29 avgustda qabul qilingan).

7.Djumaxadjaev A. Patentshunoslik. T.: Mehnat, 2001.

7-MA'RUZA. **INNOVATSION FAOLIYAT ASOSLARI**

Reja:

1. Innovatsion faoliyat nima.
2. IM va innovatsiyaning o'zaro aloqasi.
3. "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonunning asosiy tushunchalari.
4. Innovatsiyalarning turlari.
5. Innovatsiyani moliyalashtirish manbalari.

Ixtironi yaratishdan maqsad uni muayyan tovar yoki texnologik jarayon ko'rinishida amalga oshirishdir. Bunda ixtirodan patent egasi foydalanganligi yoki buni uning litsenziyasi bo'yicha boshqa shaxs (ya'ni litsenziat) bajarganligidan qat'i nazar, eng muhimi ixtiro yordamida yaratilgan tovar yoki texnologiya o'zining muayyan iste'molchisini topganligi hisoblanadi. Agar bunday tovar yoki texnologiya o'z iste'molchisi (xaridori)ni topmasa, bu ushbu ixtiro talab qilinmaganligini, binobarin uni yaratish uchun ketgan barcha sa'y-harakat va harajatlar behuda bo'lganligini anglatadi.

Ixtironi sanoatda qo'llanish, odatda, tajriba-sanoat buyumini ishlab chiqish va sinash, mahsulotni standartlashtirish va sertifikatlash, zarur ishlab chiqarish uskunalari xarid qilish yoki yaratish, texnologik jarayonni ishga tushirish, mahsulotni reklama qilish va sotish, unga texnik xizmat ko'rsatish va boshqalar bo'yicha chora-tadbirlardan iborat ko'p nogonali jarayonni tashkil etadi.

Bugungi kunda IMning ixtirolar va bopqa ob'ektlaridan foydalanishni oqilona tashkil etish innovatsiya faoliyati deb nomlanadigan biznesning ixtisoslashgan sohasiga aylandi.

Innovatsiya faoliyati deganda olimlar, muhandislar, patent- shunoslar, menejerlar, iqtisodchilar, moliyachilar, ishlab chiqaruvchilar bilim, harakatlarini birlashtiruvchi va IM ob'ektlarini tijorat nuqtai nazaridan amalga oshirilishga qaratilgan jarayon tushuniladi²⁰. Bunday faoliyatning yakuniy natijasi **innovatsiya (lotincha yangilik kiritish)**, ya'ni ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarining natijalari, xususan: ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, integral mikrosxemalar topologiyalari, nou-xau, IMning boshqa ob'ektlaridan amaliyotda foydalanish hisoblanadi.

Intellectual mulk sohasi va innovatsion faoliyat bir-biriga egizak tushunchalardir. Bugungi kunda O'zbekistonda birinchisi qonunchilik bazasi shakllangan bo'lib, ikkinchisi hali yangi soha hisoblanadi. "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonun 2020 yil 24 iyulda O'RQ-630-son bilan tasdiqlangan²¹.

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi (3-modda):

innovatsiya — fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalaniladigan, qo'llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta'minlaydigan yangi ishlanma;

innovatsion infratuzilma — innovatsion faoliyatni moddiy-texnik, moliyaviy, tashkiliy-uslubiy, axborot, konsultativ va boshqa jihatdan ta'minlaydigan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, mulkchilikning istalgan shaklidagi ular birlashmalarining majmui;

innovatsion loyiha — yangi ishlanmalar yaratish uchun bajarish muddatlarini, ijrochilarni, moliyalashtirish manba-

²⁰ Djumaxo'jaev A. Patentshunoslik. T.: Mehnat, 2001. B. 298.

²¹ "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonun. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.07.2020 y., 03/20/630/

larini va tegishli infratuzilmani shakllantirishni nazarda tutuvchi tadbirlar majmui;

innovatsion faoliyat — yangi ishlanmalarni tashkil etish, shuningdek ishlab chiqarish sohasida ularning o'tkazilishi va amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha faoliyat;

innovatsiyalar yaratish uchun davlat buyurtmasi — O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga innovatsion loyihani bajarish uchun topshiriq;

texnologiyalar transferi — yangi ishlanmani u olinadigan (ishlab chiqariladigan) sohadan amalda qo'llash sohasiga o'tkazishga qaratilgan tadbirlar majmui;

yangi ishlanma — mavjud o'xshash intellektual faoliyat natijalariga nisbatan yangi belgilarga ega bo'lgan, amalda qo'llash mumkin bo'lgan va amaliyotda undan foydalanganda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta'minlay oladigan intellektual faoliyat natijasi (ishlab chiqarish, ma'muriy, tijorat yoki boshqa xususiyatga ega yangi yoki mukammal texnologiya, xizmat va tashkiliy-texnik yechim).

Innovatsion faoliyat sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

innovatsion rivojlantirishning huquqiy jihatdan tartibga solinishini ta'minlash;

innovatsion faoliyat sohasidagi ustuvor yo'nalishlarni belgilash, shu jumladan texnologik taraqqiyotni prognozlashtirish asosida belgilash;

innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlar va infratuzilmani yaratish;

innovatsion faoliyat sub'ektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish;

innovatsion faoliyat sohasidagi respublika, tarmoq va hududiy davlat dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

innovatsion faoliyatga investitsiyalarni jalb etishga ko'maklashish;

innovatsion faoliyat sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish;

innovatsion faoliyat sohasida kadrlarni tayyorlashni, qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni tashkil etish;

innovatsion faoliyat sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Ammo chuqur tahlil qilinadigan bo'lsa, bu borada katta ko'lamdagi ishlar oldimizda turibdi. Birinchidan, innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish uchun infratuzilma yaratilmagan, ikkinchidan, maqsadli ko'rsatkichlari erishilishini baholash mezonlari tasdiqlanmagan; iqtisodiyot tarmoqlarini va ijtimoiy sohani innovatsion rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilanmagan va hokazo.

7-moddada ko'rsatilganidek, O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi innovatsion faoliyat sohasidagi vakolatli davlat organidir. Vazirlik innovatsion faoliyat sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradi; innovatsion rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi; innovatsion faoliyat sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqadi; innovatsion faoliyat xavflarini baholash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi; mamlakatning innovatsion rivojlanish holati tahlilini amalga oshiradi; innovatsion faoliyat sub'ektlari o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlashga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradi; innovatsion loyihalarning davlat ekspertizasi tashkil etilishini ta'minlaydi; yagona davlat buyurtmachisi sifatida innovatsion loyihalarni shakllantiradi, tasdiqlaydi va moliyalashtiradi; innovatsiyalar yaratish uchun davlat buyurtmasi doirasida innovatsion loyihalarning bajarilishini monitoring qiladi va bajarilish samaradorligini baholashni amalga oshiradi; O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag'lari hisobidan xarid qilinadigan texnologiyalar transferiga oid shartnomalarni ro'yxatdan o'tkaza-

di; davlat va xo'jalik boshqaruvi organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga va boshqa tashkilotlarga moliyalashtirish uchun yangi ishlanmalarni tavsiya qiladi; yangi ishlanmalarni tijoratlashtirishni moliyalashtiradi va texnologiyalar transferiga ko'maklashadi; innovatsion faoliyat sub'ektlarini tashkil etish va rivojlantirishga ko'maklashadi, innovatsion faoliyat natijalarini joriy etishga doir samarali mexanizmlarni shakllantiradi; innovatsion faoliyat sub'ektlari uchun kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini tashkil qilishda ishtirok etadi; innovatsion faoliyat sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

Qonunning 12-moddasidainnovatsiyalarniyaratishgadoirdavlatbuyurtmasinishakllantirishmexanizmlari yoritilgan. Ya'ni, innovatsiyalarni yaratishga doir davlat buyurtmasini shakllantirish va tasdiqlash O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, vazirliklar, idoralar va boshqa manfaatdor tashkilotlar takliflari asosida vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi, deyilgan.

Innovatsion loyihalarni innovatsiyalarni yaratishga doir davlat buyurtmasi doirasida amalga oshirishning eng ko'p muddati ikki yildan oshishi mumkin emas. Innovatsiya loyihalarini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, texnologiyalarni foydali tijoratlashtirish va raqobatbardosh tovarlarni ishlab chiqarish uchun dastlabki harajatlar talab qilinadi. Bunday harajatlar laboratoriyadan tajriba-sanoat ishlab chiqarishiga o'tish, mufassal patent taqqiqotlarini o'tkazish va eng muhimi, patentlash, shu jumladan xorijda patentlash harajatlari, shuningdek tayyor mahsulot va texnologiyalarga guvohnoma olish bo'yicha ishlar majmuining zarurligi bilan bog'liqdir²².

Vazirlikdainnovatsionloyihalarningtexnikvailmiyekspertizalario'tkaziladi (**13-modda**). Texnik va ilmiy ekspertizalarni o'tkazish jarayonida ishtirokchilarning mustaqilligi hamda

²² Djumaxo'jaev A. Patentshunoslilik. T.: Mehnat, 2001. B. 302.

huquqiy jihatdan himoyalanganligi, ekspertizalar natijalarining xolisligi, ochiqdigi ta'minlanishi kerak. Ilmiy ekspertiza innovatsion loyiha bo'yicha asoslangan qaror (xulosa) qabul qilish maqsadida innovatsion loyihaning ilmiy yangiligini, dolzarbligi va amaliy ahamiyatini o'rganishga, shu jumladan ilmiy jamoaning ilmiy-uslubiy salohiyatini, moddiy-texnika bazasini tahlil qilish hamda baholashga qaratilgan faoliyatdir.

Ilmiy ekspertizani baholash mezonlari quyidagilar-dan iborat: ilm-fan yutuqlariga asoslangan mahsulot ishlab chiqarishni tayyorlash (tashkil etish), ushbu mahsulotning import o'rnini bosishi va (yoki) eksportga yo'naltirilganligi bo'yicha salohiyatini baholash uchun ilmiy-texnik hujjatlarni ishlab chiqishni rejalashtirishni nazarda tutuvchi loyihani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar; loyihani tijoratlashtirish istiqbollari; innovatsiya ob'ektiga bo'lgan talab darajasi; intellektual mulk ob'ektlariga doir muhofaza hujjatlarining mavjudligi; loyiha ijrochilarida ilmiy-texnik yoki innovatsion faoliyatni amalga oshirish bo'yicha tegishli tajribaning va tajriba-konstruktorlik ishlari natijalarining mavjudligi; ishlab chiqarish bazasining texnologik jihatdan ta'minlanganlik darajasi.

Qonunning 16-moddasida intellektual mulk ob'ektlari yaratilgan hollarda, ularning mualliflari yoki huquq egalari deb e'tirof etilish, shuningdek intellektual mulkni huquqiy jihatdan himoya qilish masalasi kiritilgan.

Innovatsiyalar quyidagi turlarga bo'linadi **(18-modda)**:

mahsulotga oid innovatsiyalar — texnik va texnologik jihatdan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotni (ishlarni va xizmatlarni) ishlab chiqishga hamda joriy etishga qaratilgan innovatsiyalar;

jarayonga oid innovatsiyalar — texnik va texnologik jihatdan yangi yoki takomillashtirilgan ishlab chiqarish yoxud ta'lim usullarini ishlab chiqish va joriy etishga, shuningdek texnologiyalar transferini amalga oshirishga qaratilgan innovatsiyalar;

marketingga oid innovatsiyalar — mahsulotlarning dizayni va qadoqlaridagi o'zgarishlarni qamrab oluvchi yangi yoki takomillashtirilgan usullarni joriy etishga, mahsulotni (ishlarni va xizmatlarni) sotish va taqdim etishning yangi usullaridan foydalanishga, yangi narxlash strategiyalarini shakllantirishga qaratilgan innovatsiyalar;

tashkiliy innovatsiyalar — biznesni tashkil etish va yuritish, ish o'rinlarini tashkil etish va tashqi aloqalarni yo'lga qo'yishning yangi yoki takomillashtirilgan usullarini joriy etishga qaratilgan innovatsiyalar.

Intellektual mulkka bo'lgan huquq mavjudligi va undan tushgan foyda texnologiyalar transferi uchun shartnoma tuzishning asosiy sharti hisoblanadi **(23-modda)**. O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobiga xarid qilindigan texnologiyalar transferi uchun shartnomalar vakolatli davlat organi tomonidan ro'yxatga olinadi.

Intellektual mulk ob'ektlariga bo'lgan mulk huquqlarini uchinchi shaxslarga o'tkazish va mazkur ob'ektlardan foydalanishga bo'lgan huquqni royalti ajratmalariga asoslangan litsenziya shartnomalarini tuzish yo'li bilan berish, shu jumladan ularni keyinchalik ushbu huquqlarni oluvchi tomonidan tijoratlashtirish sharti bilan berish orqali amalga oshiriladi.

Intellektual mulk ob'ektiga doir huquq egasining tashkilot ustav fondidagi ulushi miqdori ta'sischilarning o'zaro kelishuvi bo'yicha belgilanadi **(25-modda)**.

Innovatsion infratuzilmaning sub'ektlariga quyidagilar kiradi: innovatsion texnologik park; texnologiyalar transferi markazi; innovatsion klaster; venchur tashkiloti; innovatsiya markazi.

Innovatsiya markazi innovatsion faoliyat sohasida yangi g'oyalarni yaratishdan yangi ishlanmalarni tijoratlashtirish-gacha bo'lgan to'liq ishlar turkumini amalga oshirish maqsadida yuridik shaxs shaklida tashkil etiladi, deb yozilgan **30-moddada**.

Innovatsiya markazi birinchi navbatda intellektual mulkka oid yangi g'oyalar va ishlanmalarni hayotga tatbiq etish uchun moddiy-texnik shart-sharoitlarni ta'minlashga ko'maklashadi; innovatsion loyihalarni moliyalashtirish va ularni amalga oshirishga ko'maklashadi; marketing tadqiqotlarini o'tkazadi; yangi g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni ommalashtirish maqsadida reklama va ko'rgazmaga oid xizmatlar ko'rsatadi.

Bizningcha, venchur tashkilotlari va texnologiyalar transferi sohasida O'zbekistonda yangi tashabbuslar kutilmoqda.

Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish manbalari jumlasiga quyidagilar kiradi (31-modda):

O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti;

Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjeti hamda viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari;

Innovatsion rivojlanishni va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi;

innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash jamg'armalari;

venchur jamg'armalari;

innovatsion faoliyat sub'ektlarining o'z mablag'lari;

xalqaro grantlar, tijorat banklarining, shu jumladan chet el banklarining va xalqaro moliya institutlarining maqsadli kreditlari;

xususiy investorlarning, shu jumladan chet ellik xususiy investorlar va boshqa homiylarning mablag'lari.

Barcha mamlakatlarda innovatsiya faoliyati sohasidagi asosiy investorlardan biri davlat hisoblanadi. Odatda, davlat global, ustuvor, fundamental loyihalarni amalga oshirishni moliyalashtiradi. Innovatsiyaga oid investitsiyalar berishning muqobil va eng muhim manbai venchur jamg'armalari hisoblanadi. **Venchur kapitali (inglizcha xavf-xatar)** turli xil innovatsiya loyihalarini moliyalashtirish manbai sifatida 50-yillarning o'rtalarida AQShda, Silikon vodiysida, zamona-

viy informatika va telekommunikatsiyalar beshigi deb ataladigan joyda vujudga keldi. 1,5 mlrd. AQSh dollari qiymatidagi yangi kremniy tranzi- storini ishlab chiqarish loyihasi birinchi loyihalardan bo'lgan edi. Aynan venchur kapitali Arr1e Somruteq, VES, Sompad, 8ip Microcoft, G'ederal va boshqa muvaffaqiyat qozonayotgan kompaniyalarning rivojlanishiga ko'maklashdi, ular shaxsiy kompyuterlar va biotexnologiyalarni ishlab chiqarish kabi yangi sanoat tarmoqlarining keskin o'sishiga imkon berdi²³.

O'zbekistonda ham innovatsion faoliyat uchun keng imkoniyatlar ochilmoqda. Jumladan, oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari, Fanlar akademiyasi ilmi-tadqiqot institutlari har yili yuzlab loyihalarni Innovatsion rivojlanish vazirligiga topshirmoqdalar. Grant loyihalari miqdori oshib bormoqda. **Ammo nazarimizda, ijtimoiy soha, xususan, sotsiologiya, falsafa, siyosatshunoslik sohasidagi grantlarning soni yildan yilga kamayib bormoqda.** Bu muhim sohaning jamiyatdagi o'rni, imkoni va qudratini birgina loyiha orqali izohlash mumkin. "Oliy ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens nazorat"ning siyosiy-huquqiy muammolari va ularning yechimi (O'zMU)" nomli fundamental loyiha jamiyatga katta miqdorda ma'naviy va iqtisodiy foyda keltirishi mumkin. Biroq vazirlikda bu va boshqa gumanitar sohadagi grantlarni yutish uchun ko'plab sun'iy to'siqlar yaratilgani olimlarning qiziqishini so'ndirmay qolmaydi.

Nazorat savollari

1. Innovatsiya, innovatsiya faoliyati nima?
2. "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi qonun qachon qabul qilingan, uning asosiy maqsad va vazifalari nimadan iborat?
3. Innovatsiyalar qanday turlarga bo'linadi (qonun 18-moddasi): Innovatsiya loyihasi deb nimaga aytiladi?
4. Innovatsiya loyihalari qanday ish turlarini o'z ichiga

²³ Djumaxo'jaev A. Patentshunoslik. T.: Mehnat, 2001. B. 304-305.

olishi mumkin?

5. Innovatsiya firmalari va texnoparklar nima uchun zarur?

6. Innovatsiya investitsiyalari nima?

7. Venchur moliyalashtirishining asosiy xususiyatlari nimadan iborat?

8. Venchur jamg'armalari

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonun. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.07.2020. [www. lex.uz](http://www.lex.uz)

2. "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi Qonun. 29.10.2019. www. lex.uz

3. Djumaxo'jaev A. Patentshunoslik. T.: Mehnat, 2001.

4. Kommersializatsiya intellektualnoy sobstv.: Monogr. /VI. Muxopad - M.: Magistr, NIS INFRA-M, 2019. -512s.

5. Osnovi izobretatelstva i patentovedeniya. (Bakalavriat i magistratura). Uchebnoe posobie Kravchenko I.N., KnoRus, 2020. 262 s.

8-MA'RUZA.

INTELLEKTUAL MULKNI BOSHQARISH

Reja:

1. Intellektual mulk ob'ektlarini boshqarishda xorij tajribasi.
2. Patent-axborot bo'limlarining faoliyatini tashkil qilish.
3. Patent-axborot bo'limlariga qo'yiladigan talablar.

Intellektual mulk ob'ektlarini boshqarish jarayoni "Nokia" kompaniyasining tajribasi misolida ko'rib chiqilishi mumkin. Ushbu usul quyidagi asosiy bosqichlardan iborat:

kompaniya portfelidagi intellektual aktivlarni tasniflash, shuningdek ulardan foydalaniladigan maqsadlarni va bu ob'ektlar uchun mulk huquqlari qanday tarzda (kimga) amalga oshirilganligini tahlil qilish;

intellektual aktivlarning narxini aniqlash, ularni xarid qilish va kuchda saqlash uchun zarur harajatlarni aniqlash, shuningdek biznes strategiyasiga muvofiq bu mulk qimmatini oshirish bo'yicha ishlar rejasini ishlab chiqish. Bu bosqich aktivlarni saqlash (masalan, patentlarni kuchda saqlash), ularni litsenziyalash yoki ulardan voz kechishdan iborat bo'lishi mumkin.

Ammo foydalanilayotgan texnologiyalarni baholashni tashqi ekspert o'tkazmasligi kerak. Buning natijasida:

bo'lajak kapital qo'yilmalari to'g'risida qaror qabul qilish. yangi bilimlar portfelini yig'ish va jarayonni doimiy asosda takrorlash imkoni tug'iladi.

Bunday jarayon kompaniya va uning asosiy raqobatchilarning bozordagi va innovatsiyalar poygasidagi o'rnini tahlil qilishga, shuningdek ilmiy tadqiqotlar yo'nalishlari va intellektual mulk ob'ektlarini himoya qilish (masalan, ixtironi patentlash yoki uni tijorat siri sifatida saqlash, "nou-xau") to'g'risida ob'ektiv qarorlarni tezkor ravishda qabul qilishga yordam beradi.

Mazkur tizim bo'yicha intellektual aktivlarni boshqarishda ishla- tiladigan muhim mezonlar quyidagilar:

1.biznesga kerak bo'ladigan ixtirolarni qayta ishlash va ko'rib chiqish vaqti;

2.patentlar va boshqa muhofaza hujjatlarining amal qilish muddati tugagunicha ko'zlangan kapital qo'yilmalar (harajatlar);

3.biznes foydalanayotgan patentlar va litsenziyalar portfe- li tarkibining foizi;

4.rejalashtirilayotgan xarajatlardan foiz sifatida tasni- flashning sifat jihatdan qimmat; rejalashtirilayotgan xara- jatlarning foizi sifatida ifodalangan muhim patentlar bilan ishlash holati.

Albatta, intellektual aktivlarni boshqarishning ko'rsatil- gan usulini kichik korxonalarining qo'llashi qiyin bo'ladi. Bu alohida tayyorgarlik, kadrlar, huquqiy va iqtisodiy bilimlarni talab qiladi. Respublikamiz misolida oladigan bo'lsak, bun- day intellektual boshqaruv jarayoni hanuzga qadar shakl- lanmagan. Demak, xorij tajribasini, xususan, Xitoy, Yaponiya tajribasini o'rganishga ehtiyoj oshib boraveradi.

Kompaniya (korxonada) tashkil etiladigan **patent-axbo- rot bo'limining faoliyati** quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga olishi kerak²⁴:

jahon bo'yicha patent hujjatlari oqimini tezkor qayta it- plash va korxonada menejmenti va ilmiy-konstruktorlik bo'lin- malarini o'zlashtirishga qulay shaklda patent axboroti bilan o'z vaqtida maqsadli ta'minlash;

²⁴ Djumaxo'jaev A. Patentshunoslik. T.: Mehnat, 2001. B. 316.

korxonada ishlab chiqilayotgan yangi texnik yechimlar- ni tahlil qilish, potensial ixtirolar va boshqa intellektual mulk ob'ektlarini aniqlash;

yangi ixtirolarning patentga layoqatliligi va patent sofligi- ni baholash, ishlab chiquvchilar xatti-harakatlarini o'z vaqti- da muvofiqlashtirish;

ixtirolar va sanoat namunalarini patentlash, tovar belgila- rini ro'yxatga olish uchun talabnoma hujjatlarini tuzish;

patent idorasi bilan ish yuritish, so'rovnomalarga javob berish, patent bojlarini to'lashni nazorat qilish;

korxonada intellektual aktivlarini tartibga olish va hisob- ga olish, ulardan samarali foydalanish bo'yicha takliflarni tayyorlash;

rahbariyatga litsenziya bitimlarining loyihalari, ixtiro uchun litsenziyalarni sotish va sotib olish to'g'risida takliflar- ni tayyorlash;

xizmat ixtirolaridan foydalanish, mualliflik haqi mukofot- larini to'lash va boshqa masalalar tartibi to'g'risida ma'mu- riyat (ish beruvchi) va ishchilar o'rtasida ichki shartnomalar- ni tayyorlash.

Yuqoridagi vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun pa- tent-axborot bo'limi quyidagi talablarga mos kelishi kerak:

1. O'z shtatida malakali mutaxassislar - patentshunoslarga (kichik korxonalar uchun eng kamida bitta) ega bo'lishi. Pa- tentshunosning texnik mutaxassisligi korxonada faoliyatining ixtisosiga mos kelishi lozim;

2. Tegishli texnik ta'minotga ega bo'lishi. Shunda inter- netdan unumli foydalanib, Yevropa, Osiyo mamlakatlari yi- rik patent jamg'armalarining elektron ma'lumotlar bazasiga murojaat qilib patent tadqiqotlarini tez va samarali o'tkazish mumkin.

3. Korxonada patent axboroti jamg'armasiga ega bo'lishi mu- him. Bunday jamg'arma kamida korxonada faoliyati va boshqa muhim qo'shma sohalar yo'nalishlari bo'yicha referatlar va

ixtirolar tavsiflarining mavzular bo'yicha tanlamasini (axborot MPKga muvofiq tartibga solinadi), avvalgi patent ta-dqiqotlarining natijalarini, shuningdek korxonada ishlab chiqilgan yoki ishlab chiqilayotgan intellektual mulkning bar-cha ob'ektlari bo'yicha to'liq hujjatlarni o'z ichiga olishi kerak. Bundan tashqari, bo'lim intellektual mulkni muhofaza qilish sohasidagi amaldagi qonunchilik bo'yicha hujjatlar to'plami:

qonunlar, qarorlar, boshqa me'yoriy-huquqiy va uslubiy hujjatlar, IMa ga doir hujjatlari bilan to'ldirilishi kerak.

Ochig'ini tan olish kerakki, Yevropa Ittifoqiga kiruvchi davlatlar ixtirolarga patent muhofaza hujjatini olish va un-dan foydalanish borasida ancha ilgarilab ketdilar. Ilm-fan va ishlab chiqarishning bevosita birgalikda ishlashi, o'zaro uyg'unlik va boshqaruv mexanizmlari yevropaliklarga ku-ch-qanot berdi, deyish mumkin. Albatta, bu jarayon iqtisod-ning rivojlanishiga turtki bermoqda. Ayrim kompaniyalarda patent portfeli soni 200-300 ta ixtironi tashkil etishi qo'shim-cha mablag'larning oqimi kirib kelishiga sabab bo'lmoqda.

Xorijda patentshunos yoki patent vakilining faoliyati quy-i-dagilarga asoslanadi:

1. Motivatsiya;

2. Faoliyat maqsadi yoki rejalashtiriladigan natijaning aniqligi;

3. Patent axboroti sifati va ishonchliligi;

4. Vositalar. Professional bilim, mahorat va ish ko'nikma-lari faoliyat vositasidir. Bundan tashqari, psixologik ilmiy mu-hit, korxonahabariyati hamda qo'l ostidagilar bilan ishlay olish qobiliyati;

5. Natija. Patentshunos ishining korxonahabariyati, masa-lan, ixtironi vaqtida patentlash, uni manfaatli litsenziyalash, muhim tijorat axborotini tezkor qidirish ko'rsatkichlari ham patentshunosning ulkan yutug'iga xizmat qiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Nima uchun korxonalariga patent-axborot bo'limlari zarur?
2. Korxonaning patent-axborot bo'limi qanday talablarga javob berishi kerak?
3. Patentshunos professional faoliyatining samarali tashkil etilishi qanday omillar bilan belgilanadi?
4. Butun jahon intellektual mulk tashkilotini vazifasini sharhlab bering?
5. Butunjahon patent axborotlar tizimi bilan ishlash tartiblari.
6. Shartnomalar va bitimlar, litsenziya shartnomalari.
7. Patent-axborot bo'limining faoliyati asosiy yo'nalishlari
8. Xorijda patent vakillari nimaga asoslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Osnovi nauchnix issledovaniy i patentovedenie: ucheb.-metod. Posobie/ Novosib. gos. agrar. un-t. Injener. in-t; sost.: S. G. Shukin, V. I. Kochergin, V. A. Golovatyuk, V. A. Valkov.– Novosibirsk: Izd-vo NGAU. 2013.– 228 s.
2. Kommersializatsiya intellektualnoy sobstv.: Monogr. /V.I.Muxopad - M.:Magistr,NIS INFRA-M, 2019. -512s.
3. Osnovi izobretatelstva i patentovedeniya. (Bakalavriat i magistratura). Uchebnoe posobie Kravchenko I.N., KnoRus, 2020. 262 s.
4. Djumaxo'jaev A. Patentshunoslik. T.: Mehnat, 2001.
5. Cherkasova O. Zashita intellektualnoy sobstvennosti : ucheb. posobie / O. V. Cherkasova ; M-vo obrazovaniya i nauki Ros. Federatsii, Ural. feder. un-t. — Yekaterinburg : Izd-vo Ural. un-ta, 2017. — 102 s.

**“Mutaxassislikka kirish (Patentshunoslilik)” fanidan
mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular**

1. Intellektual mulk huquqi tarixi, vujudga kelishi va rivojlanishi.
2. G’arb mamlakatlarida intellektual mulk huquqining roli va o’rni.
3. O’zbekistonda sanoat mulki ob’ektlarini muhofazalash sohasining rivojlanish tarixi.
4. Mualliflik huquqi ob’ektlari
5. O’zbekistonda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni muhofaza qilishning bugungi ahvoli va muammolari.
6. Mamlakatimizda intellektual mulk huquqini himoya qilish masalasi bo’yicha vakolatli organning vazifalari.
7. O’zbekistonda patentshunoslilik sohasi ahamiyatining ortib borishi, bu boradagi davlat siyosatining asosiy yo’nalishlari.
8. XXI asrda jahon iqtisodi rivojlanishida IMning roli.
9. Hozirgi zamon IM tizimida xalqaro aloqalarning muhim xususiyatlari.
10. O’zbekistonda IM bozorini shakllantirish muammolari
11. EHM uchun dasturlar va ma’lumotlar bazalari himoyasi.
12. Ixtirolarning patentga layoqatliligi, ixtiro formulasi va referatini tuzish shartlari.
13. Sanoat namunasiga talabnomalarning tuzilishi va patentlash tartibi.
14. Tovar belgilarini ro’yxatga olishga talabnoma tuzish va ro’yxatga olish tartibi.
15. Tovar belgilarining milliy iqtisodiyotimiz rivojida tutgan o’rni.

16. Patent axboroti manbalari. Patent axborotini qidirish usullari.
17. IMga oid xalqaro konvensiya va bitimlar.
18. O'zbekistonda Innovatsion faoliyatni rivojlantirishning huquqiy asoslari.
19. Ixtirochilik va innovatsion sohalarning hamkorlik munosabatlari.
20. Ixtirolarni xorijiy patentlashning asosiy tamoyil va mexanizmlari.
21. Ixtiro, foydali modelni patentlashda jahon ma'lumotlar bazalari bilan ishlash va analog nusxalar hujjatlari bilan tanishish
22. Patentshunoslikning huquq, iqtisod, ishlab chiqarish sohalari bilan yaqin munosabatlari.
23. O'zbekiston va MDH mamlakatlarida patent huquqidagi asosiy farqlar (Yevroosiyo patent idorasi misolida).
24. IM huquqini boshqaga o'tkazishda litsenzion shartnomani tuzish talablari.
25. Seleksiya yutuqlari. O'simlik turlari va navlari, hayvon zotlari va ularni patentlash uchun qo'yiladigan talablar
26. Turdosh huquqlar ob'ektlari.
27. O'zbekistonda IM sohasining yutuqlari va muammolari (Prezidentimiz Sh.Mirziyoevning 2020 yil 12 oktabrdagi shu sohaga doir selektor yig'ilishidagi nutqi asosida).
28. Patentshunoslar va patent vakillarining asosiy vazifalari.
29. Bozor iqtisodiyoti sharoitida patentshunoslik fanining maqsadi va vazifalari.
30. O'zbekistonda intellektual mulk bozorini yaratish zaruriyati.

**“Mutaxassislikka kirish (Patentshunoslilik)” fanidan
test savollari**

**1. Intellektual mulk huquqi O‘zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasining qaysi moddasida belgilangan?**

- 1.18-modda
- 2.80-modda
- 3.89-modda
- 4.42-modda

2. Intellektual mulk ob’ektlariga qaysilar kiradi?

1. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar, sanoat mulki
2. Adabiyot, san’at, muzika, rassomchilik, ixtirochilik
3. Rasmiy hujjatlar (qonunlar, qarorlar) va ularning rasmiy tarjimalari;
4. Rasmiy ramzlar va belgilar (bayroqlar, gerblar, ordenlar)

**3. O‘simliklarning yangi navlari va hayvonlarning yangi
zotlariga bo‘lgan huquqlar qachonkuchga kiradi?**

1. Laboratoriya dalolatnomasi olingandan keyin
2. Seleksiya yutug‘iga doir ma’lumotlar Rasmiy byulletenda e’lon qilingandan keyin
3. Vakolatli organdan patent berilgan taqdirda
4. Qishloq xo‘jaligi vazirligi tegishli organidan ruxsatnoma olingandan keyin

**4. Muallifning mulki huquqlari Fuqarolik kodeksining
qaysi moddalarida ko‘rsatilgan?**

1. 1056-modda
2. 1060-modda
3. 1091-modda
4. 1110-modda

5. Mualliflik huquqining himoya belgisi harfini aniqlang.

1. Aylana ichiga olingan lotincha «S» harfi;
2. Mualliflik huquqlari egasining ismi (nomi);
3. Aylana ichiga olingan lotincha «R» harfi;
4. Kitobning nomi

6. Tovar belgisi nomidan foydalanish huquqini ro'yxatdan o'tkazish uchun beriladigan talabnomaga doir talablarni sanab o'ting.

1. Ariza va talabnomada ko'rsatilgan belgining tasviri
2. Belgilarni ro'yxatdan o'tkazish uchun tovarlar va xizmatlarning xalqaro tasnifiga muvofiq guruhlangan, tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazish so'ralayotgan tovarlarning ro'yxati
3. Foydalanish huquqini ro'yxatdan o'tkazish so'ralayotgan tovar turining nomi hamda uning alohida xususiyatlari tavsifi
4. Hammasi to'g'ri

7. Mualliflik huquqi qachonyuzaga keladi?

1. Fan, adabiyot va san'at asariga mualliflik huquqi uni yaratish fakti bo'yicha yuzaga keladi.
2. Vakolatli organda ro'yxatdan o'tganidan keyin
3. Kitob yoki muzika e'lon qilinsa
4. Tomoshabinlar va o'quvchilar tomonidan e'tirof etilsa

8. Turdosh huquqlar (fonogramma, ijrochi) ning muhofaza belgilarini ko'rsating.

1. Aylana ichidagi lotincha «R» harfi;
2. Mutlaq turdosh huquqlar egasining ismi (nomi);
3. Fonogramma birinchi marta chop etilgan yil.
4. 1-3 javob to'g'ri

9. O'simlik navi tushunchasini ayting.

1. Nav - o'simliklar guruhi bo'lib, u nasldan naslga barqaror o'tuvchi, muayyan genotip yoki genotiplar kombinatsiya-

sini boshqalaridan ajratib turuvchi belgilarga qarab aniqlanadigan

2. Ayni bir botanik taksondagi boshqa o'simliklar guruhi-dan bir yoki bir necha belgilari bilan farqlanadigan

3. Klon, liniya, birinchi avlod duragayi, populyatsiya nav-ning muhofaza qilinadigan

4. Hammasi to'g'ri

10. Intellektual mulk ob'ektlari muhofaza hujjatini olish uchun patent bojlari kimga to'lanadi?

1. Intellektual mulk ob'ektlaridan foydalanish huquqi-ni ro'yxatdan o'tkazish uchun Intellektual mulk agentligiga to'lanadi

2. Hujjatni rasmiylashtirgan patent vakiliga to'lanadi.

3. Soliq idorasiga to'lanadi.

4. Davlat xizmatlari agentligiga to'lanadi

11. Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (ruscha-da VOIS) qarorgohi qaerda joylashgan?

1. Parij shahrida

2. London shahrida

3. Jeneva shahrida

4. Nyu-York shahrida

12. O'zbekiston Patent idorasi qachon ochilgan va u qachon Intellektual mulk agentligiga aylantirilgan?

1. 1999 yil va 2010 yilda Agentlikka aylangan

2. 1992 yil va 2011 yilda Agentlikka aylangan

3. 1992 yil va 2013 yilda Agentlikka aylangan

4. 1993 yil va 2013 yilda Agentlikka aylangan

13. Tovar belgisidan foydalanmaganlik oqibatlarini tushuntiring.

1. Tovar belgisidan u ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin uzrli

sababsiz uzluksiz besh yil davomida foydalanilmagan taqdirda,

2. Tovar belgisidan u ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin uzrli sababsiz uzluksiz bir yil davomida foydalanilmagan taqdirda,

3. Korxonada shu tovar belgisida mahsulot chiqarmagan taqdirda

4. Hammasi to'g'ri

14. Mualliflik huquqining amal qilish muddatini ayting.

1. Mualliflik huquqi muallifning butun hayoti davomida va uning vafotidan keyin ellik yil davomida amal qiladi

2. Muallif vafotidan keyin yuz yil davomida amal qiladi

3. Muallif vafotidan keyin tugaydi

4. Muallif vafotidan keyin oila a'zolariga o'tkaziladi

15. Seleksiya yutug'i xizmat tartibida qanday yaratiladi?

1. Muallif (hammuallif) egallab turgan lavozimga xos vazifalarni bajargan bo'lsa;

2. Seleksiya yutug'ini yaratish maqsadini ko'zlab zimmalariga maxsus yuklatilgan vazifalarni bajargan bo'lsa;

3. Ish beruvchi tomonidan berilgan moddiy vositalar yoki moliyaviy mablag'lardan foydalangan bo'lsa;

4. Hammasi to'g'ri

16. Mutlaq huquqlarning boshqa shaxsga o'tishi nima ni bildiradi?

1. Intellektual mulk ob'ektiga nisbatan mutlaq huquqlarning huquq egasi tomonidan shartnoma bo'yicha boshqa shaxsga to'liq yoki qisman o'tkazilishi

2. Mutlaq huquqlarning oila a'zolari yoki yaqin shogirdlariga o'tkazilishi

3. Mutlaq huquqlarning korxonaga yangi mulkdoriga o'tkazilishi

4. Javoblarning uchinchisi to'g'ri

17.Sanoat mulki ob'ekti patenti qachon haqiqiy emas deb e'tirof etiladi?

1.Sanoat mulki ob'ekti patenti Apellyatsiya kengashiga berilgan apellyatsiya bo'yicha ixtiro, foydali model formulasida yoki sanoat namunasining muhim belgilari majmuida talabnomaning dastlabki materiallarida bo'lmagan belgilarning mavjud bo'lganida

2. Sud qaroriga binoan

3.Ishlab chiqarishga tadbiiq etishga loyiq bo'lmaganida

4. Birinchi va to'rtinchi javob to'g'ri

18.Ixtiroga patent berish haqidagi talabnoma nima-dan iborat bo'ladi?

1.Ixtironing muallifi (hammuallifi) arizasi, ixtironing uni amalga oshirish uchun yetarli bo'lgan darajada to'liq ochib berilgan tavsifi (xarakteristikasi)

2.Ixtironing mohiyatini ifodalovchi hamda uning tavsifiga to'la muvofiq bo'lgan formulasi va ixtiro referati

3.Birinchi javob to'g'ri

4.Birinchi va ikkinchi javob to'g'ri

19.Intellektual mulkning huquq egalari kimlar hisoblanadi?

1.Ilmiiy, badiiiy va musiqaviy asarni yozgan muallif

2.Kitobni nashr etgan nashriyot

3.Musiqaviy asarni ijro etgan qo'shiqchi

4.Muallif, uning merosxo'rlari, shuningdek qonun yoki shartnoma asosida mutlaq shaxsiy va mulkiy huquqlarga ega bo'lgan har qanday jismoniy yoki yuridik shaxslar

20.Sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij konvensiyasi qachon va qaerda imzolangan?

- 1.1883 yil 20 martda Parij shahrida
- 2.1889 yil 1 martda Rim shahrida
- 3.1900 yil 10 sentabrda Parij shahrida
4. 1901 yil 21 sentabrda London shahrida

21 .Asar muallifining shaxsiy nomulkiy huquqlarini sanab bering.

- 1.Asar muallifi deb e'tirof etilish huquqi (mualliflik huquqi);
- 2.Asarni har qanday shaklda oshkor qilish yoki oshkor qilishga ruxsat berish huquqi.
- 3.Asarning kitob ko'rinishida chop etilishi fakti.
4. Birinchi va ikkinchi javob to'g'ri

22. Seleksiya yutug'i ixtirosiga patent olgan egasining majburiyati

1. Patentini foyda olish maqsadida boshqa shaxsga sotishi
- 2.O'simlikning tegishli navi yoki hayvonlarning tegishli zotini patentning amal qilish muddati davomida ularni ro'yxatga olish vaqtida tuzilgan nav yoki zot tavsifida aytib o'tilgan belgilar saqlab qolinadigan tarzda asrashi
- 3.Patentidan istalgan vaqtda istalgan holatda foydalana olishi
4. Hammasi to'g'ri

23. Patentshunoslikka kirish fanida talaba o'rganadigan tushunchalar

1. O'zR IMOni muxofazalash sohasidagi milliy qonunchilik hamda xalqaro bitim va shartnomalar
2. Patent olish uchun talabnomalarni tuzish va berish tartibi, litsenziya savdosini tashkil etish usullari

3. Patent-axborot tadqiqotlarini o'tkazish, patent hujjatlarini tahlil qilish usullari

4. Hammasi to'g'ri

24. Adabiy va badiiy asarlarni himoya qilish to'g'risidagi Bern konvensiyasi qachon qabul qilingan?

1. 1965 yil 14 martda

2. 1971 yil 24 iyulda

3. 1980 yil 5 yanvarda

4. 1990 yil 30 dekabrda

25. Ixtiro va foydali modelga patent necha yilga beriladi?

1. 25 yil va 10 yil

2. 20 yil va 10 yil

3. 15 yil va 5 yil

4. 20 yil va 5 yil

26. Ixtirolar va foydali modellar uchun topshiriladigan hujjatlar

1. Ariza, tavsif, referat, formula, chizmalar, boj to'lovi

2. Ariza, tavsif tarjimasini va boj to'lovi

3. Ariza, formula va boj to'lovi

4. Arizada barcha hujjatlar havola qilinadi

27. Xorijda tovar belgisi qanday amalga oshiriladi?

1. Bevosita xorijiy davlatning intellektual mulk ob'ektlarini ro'yxatdan o'tkazuvchi organiga murojaat qilish orqali

2. Madrid sistemasidan foydalangan holda bir yoki bir necha davlatlarni ko'rsatgan tarzda Xalqaro Byuroga ariza topshirish orqali

3. O'sha davlatda ro'yxatdan o'tgan patent vakillari orqali

4. Hammasi to'g'ri

28. Intellektual mulk ma'nosi nima?

1. Insonning foyda olish uchun asar yozish usuli
2. Ijodiy aqliy **faoliyat** mahsuli
3. Ixtirosini ro'yxatdan o'tkazish usuli
4. Mualliflik huquqining bir turi

29. Madrid sistemasi nima?

1. Tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha Madrid bitimi (1891 y.)
2. Tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha Madrid bitimiga Bayonnoma (1989 y.)
3. Ispaniyacha hujjat topshirish talablari
4. Birinchi va ikkinchi javoblar to'g'ri

30. Fonogrammani tayyorlovchining huquqlarini keltiring

1. Fonogrammaning asl nusxasi yoki nusxalarini sotish yoki mulk huquqini o'zgacha tarzda boshqa shaxsga o'tkazish yo'li bilan tarqatish (tarqatish huquqi)
2. Fonogramma tarqatilganidan keyin uni prokatga berish (prokatga berish huquqi)
3. Fonogrammani efirga uzatish yoki kabel orqali yuborish (efirga uzatish yoki kabel orqali yuborish huquqi)
4. Hammasi to'g'ri

Ikkinchi bob

INTELLEKTUAL MULK SOHASIDAGI XALQARO HUJJATLARNING MAZMUN-MOHİYATI



1. Sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij konvensiyasi

Sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij konvensiyasi intellektual mulk huquqi obektlaridan hisoblangan sanoat mulki obektlarining xalqaro huquqiy himoyasi sohasida birinchi xalqaro huquqiy hujjat hisoblanib, u 1883 yil 20 martda qabul qilingan hamda 1900 yil 14 dekabrda Bryussel, 1911 yil 2 iyunda Vashington, 1925 yil 6 noyabrda Gaa-ga, 1934 yil 2 iyunda London, 1958 yil 31 oktabrda Lissabon, 1967 yil 14 iyulda Stokgolmda qayta ko'rib chiqilgan va 1979 yil 2 oktabrda o'zgartirilgan.

Bugungi kunda mazkur Konvensiyaga 198 ta mamlakat a'zo hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida shartnomaga 1991 yil 25 dekabrdan boshlab amal qilinib kelinadi.

Konvensiya ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari, firma nomlari va kelib chiqishi yoki kelib chiqish joyi nomi, shuningdek nohalol raqobatdan himoyalanişga bo'lgan huquqlarni himoya hilish sohasida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarni tartibga soladi.

Konvensiyaning o'ziga xos jihati shundaki, u sanoat mulki obektlarining huquqiy maqomini belgilab beruvchi yagona xalqaro huquqiy hujjat xisoblanadi.

Konvensiya 30 ta moddadan iborat bo'lib, sanoat mulki tushunchasi, sanoat mulkiga nisbatan mutlaq huquqqa egalariга milliy rejim taqdim etish tartibi, ustuvorlik huquqi va boshqa masalalarni huquqiy jihatdan muvofiqlashtirib boradi.

Xalqaro hujjatning birinchi moddasida sanoat mulki obektiga huquqiy sharh berilgan bo'lib, unga ko'ra ixtiroga patentlar, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari, firma nomlari va kelib chiqishi yoki kelib chiqish joyi nomi, shuningdek nohalol raqobatdan himoyalanişga bo'lgan huquq sanoat mulkini muhofaza qilish ob'ektlari hisoblanadi. Sanoat mulki o'z ma'nosida nafaqat sanoat va savdoga, balki qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va qazib olish sanoati sohasiga hamda sanoat yoki tabiiy kelib chiqishning barcha mahsulotlariga, masalan: vino, don, tamaki bargi, mevalar, chorva mollari, foydali qazilmalar, mineral suvlar, pivo, gul, unga tatbiq etiladi.

Parij konvensiyasi har bir a'zo mamlakat fuqarolari boshqa barcha a'zo mamlakatlarida ayni paytda taqdim etilgan yoki tegishli qonunlar asosida keyinchalik o'z fuqarolariga beriladigan afzalliklardan ushbu Konvensiyada nazarda tutilgan huquqlardan kamsitmasdan foydalanishini nazarda tutadi. Shundan kelib chiqib, mutlaq huquq egalariining huquqlari mamlakat fuqarolari huquqlari singari muhofaza qilinadi. Huquq buzishilishi fakti aniqlangan holatda buzilgan huquqlarni tiklash bo'yicha zaruriy ta'sir choralariini ko'rish ham nazarda tutiladi.

Konvensiyaga ko'ra ustuvorlik huquqi quyidagicha tartibga solinadi, ya'ni ittifoqning har bir mamlakati milliy qonunchiligiga yoki Ittifoq mamlakatlari o'rtasida tuzilgan ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama bitimlarga muvofiq to'g'ri

rasmiylashtirilgan, talabnomani milliy taqdim etish kuchiga ega bo'lgan har qanday talabnoma berilishi ustuvorlik huquqi paydo bo'lishi uchun asos deb e'tirof etiladi.

Konvensiya nazarda tutilgan yana bir muhim jihat shuki, bunda patentlangan yoki patentlangan usul bilan tayyorlangan mahsulotni sotish milliy qonunchilik asosida cheklanganligi yoki qisqarganligi asosida patent berilishi rad etilishi va patent haqiqiy emas deb hisoblanishi mumkin emas. Bu qoida patent huquqi egalari huquqlarini samarali himoya qilishda juda muhim hisoblanadi. Sanoat namunalari Ittifoqning barcha mamlakatlarida muhofaza qilinadi.

Konvensiyaning 6^{ter} -moddasiga ko'ra, shartnomaga a'zo mamlakatlar rasmiy belgilar va nazorat tamg'alari va kafolatlar, bayroqlari va boshqa davlat emblemalari tovar belgilari sifatida yoki ushbu gerblar belgilari elementlari sifatida vakolatli ma'murlarning ruxsatisiz ro'yxatdan o'tkazilishini rad etish va haqiqiy emas deb e'tirof etish va tegishli chora-tadbirlar ko'rish yo'li bilan taqiqlaydilar.

Xizmat ko'rsatish belgilariga ham mazkur shartnomada nazarda tutilgan qoidalarga asoslanib xalqaro huquqiy himoya taqdim etiladi.

Konvensiyaga ko'ra, kelib chiqish mamlakati qonuniga zid bo'lmagan, jamoalarga tegishli jamoaviy belgilarni hatto agar ushbu jamoalar sanoat yoki savdo korxonasi egalari bo'lmasa ham ro'yxatdan o'tkazish va muhofaza qilishga talabnomalarni qabul qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladilar. Har bir mamlakat jamoaviy belgini muhofaza qilishning alohida shartlarini o'zi belgilaydi va agar ushbu belgi ommaviy manfaatlariga zid bo'lsa, muhofaza rad etilishi mumkin.

Firma nomi barcha a'zo mamlakatlarda majburiy tartibda talabnoma bermasdan yoki ro'yxatdan o'tkazmasda, yoki tovar belgisining bir qismi hisoblanishidan qat'i nazar, muhofaza qilinadi. Shartnomaga a'zo mamlakatlar boshqa mamlakatlarning fuqarolarining nohalol raqobatdan samarali himoya-

lanishga bo'lgan huquqlarini ta'minlashi shart.

Shartnomaning ijro etilishi bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy vazifalar Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro konvensiya tomonidan ta'sis etilgan Ittifoq Byurosi bilan birlashtirilgan Ittifoq Byurosining huquqiy vorisi hisoblangan Xalqaro byuro tomonidan amalga oshiriladi. Xalqaro byuro sanoat mulkini muhofaza qilishga tegishli axborotni to'playdi va e'lon qiladi. Shartnomaga a'zo har bir mamlakat sanoat mulkini muhofaza qilishga tegishli bo'lgan har bir yangi qonun matnini va barcha rasmiy matnlarni darhol Xalqaro byuroga beradi. Bundan tashqari, u sanoat mulkini muhofaza qilishga to'g'ridan-to'g'ri aloqador bo'lgan va Xalqaro byuro o'z faoliyati uchun foydali deb hisoblashi mumkin bo'lgan sanoat mulki sohasida o'zining vakolatli xizmatlarining barcha materiallarini Xalqaro byuroga yuboradi.

Shartnomada shu bilan birga moliyaviy masalalar ham batafsil yoritib berilgan. Shartnomada belgilangan qoidalarga ko'ra, Ittifoq budjetga ega bo'ladi. Ittifoq budjeti Ittifoqning o'zining tushumlari va harajatlarini, uning ittifoqlar uchun umumiy bo'lgan xarajatlar budjetiga badalini, shuningdek tegishli hollarda Tashkilot Konferensiyasi budjetiga o'z ajratmalarini o'z ichiga oladi. Ittifoq bo'lgan Xalqaro byuro materiallarini sotishdan olingan tushumlar va bunday e'lon qilish huquqini berishdan olingan tushumlar;

hadyalar, vasiyat qilingan mablag'lar va subsidiyalar budjeti quyidagi manbalardan moliyalashtiriladi:

- Ittifoq mamlakatlarining badallari;
- Ittifoqqa tegishli bo'lgan Xalqaro xizmatlar byurosiga taqdim etiladigan yig'imlar va to'lovlar;
- Ittifoqqa tegishli;
- rentalar, foizlar va har xil boshqa daromadlar.

Ushbu shartnomani imzolagan Ittifoqning har bir mamlakati uni ratifikatsiya qilishi mumkin, agar u uni imzolamagan bo'lsa, unga qo'shilishi mumkin. Ratifikatsiya qilish yorliqlari

va qoʻshilish toʻgʻrisidagi hujjatlar saqlash uchun Bosh Direktorga topshiriladi. Ittifoq aʼzosi hisoblanmagan istalgan mamlakat ushbu Shartnomaga qoʻshilishi va bu bilan Ittifoq aʼzosi aylanishi mumkin. Qoʻshilish toʻgʻrisidagi hujjatlar saqlash uchun Bosh Direktorga topshiriladi. Istalgan mamlakat ushbu Konvensiya xalqaro munosabatlar uchun oʻzi javob beradigan bayonotda yoki bildirishnomada koʻrsatilgan barcha yoki ayrim hududlarga nisbatan qoʻllanilishi haqida oʻzining ratifikatsiya yorligʻida yoki qoʻshilish toʻgʻrisidagi hujjatda bayon qilishi yoki keyinchalik istalgan vaqtda bu haqda Bosh Direktorga yozma bildirishnoma yuborishi mumkin.

Istalgan mamlakat ushbu Shartnomani Bosh Direktor nomiga bildirishnoma yuborish yoʻli bilan denonsatsiya qilishi mumkin. Bundan denonsatsiya barcha oldingi Hujjatlar denonsatsiya qilinishi ham hisoblanadi va faqat buni bajaragan mamlakatga joriy etiladi, ayni vaqtda Ittifoqning qolgan mamlakatlariga nisbatan esa Konvensiya kuchda qoladi va bajarilishi kerak.

Ittifoqning ikki yoki bir necha mamlakati oʻrtasidagi ushbu Konvensiyani talqin qilish yoki qoʻllashga tegishli muzokaralar yoʻli bilan hal etilmagan istalgan nizo Sud Statutiga muvofiq ariza berish yoʻli bilan koʻrsatib oʻtilgan mamlakatlarning istalgan biri tomonidan, basharti faqat koʻrsatib oʻtilgan mamlakatlar nizoni bartaraf etishning boshqa usuli haqida ahdlashmasa, Xalqaro sudga berilishi mumkin. Ariza berayotgan mamlakat Xalqaro byuroga Sudning koʻrib chiqishi uchun berilgan nizo toʻgʻrisida xabar berishi kerak; Xalqaro byuro bu haqda Ittifoqning qolgan mamlakatlarini xabar-dor qilishi zarur.

Mazkur konvensiyada nazarda tutilgan meʼyorlarni Oʻzbekiston Respublikasining milliy qonunchiligiga implementatsiya qilish masalalariga nazar tashlab, shunga guvoh boʻlish mumkinki, Konvensiya normalarining aksariyati milliy qonunchilikka implementatsiya qilingan. Lekin shunga qara-

masdan Konvensiyadagi ayrim normalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij konvensiyasi 4^a -modda 4-bandida xalqaro himoya uchun berilgan talabnomaga ustuvorlik huquqining kelib chiqish asoslari bo'yicha qoidalar aks ettirilgan. Mazkur qoidalar O'zbekiston Respublikasining "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonunining 18-moddasida aks ettirilgan. Xususan, Konvensiyaning 4-modda G-bandida nazarda tutilgan qoidalar "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonunining 18-modda 6-bandida implementatsiya qilingan. Lekin, Mazkur Qonun va O'zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasi tomonidan qabul qilingan qoidalarda talabnoma uchun ustuvorlik huquqining yuzaga kelishi uchun u qanday rasmiylashtirilishi lozimligi bo'yicha qoidalar mavjud emas. Shu sababli ham, Sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij konvensiyasining 4-modda 2-bandini O'zbekiston Respublikasining "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonunining 18-moddasida quyidagicha shaklda implementatsiya qilish ahamiyatli hisoblanadi: "O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asoslagan holda milliy talabnomalarini taqdim etish qoidalariga muvofiq to'g'ri rasmiylashtirilgan talabnomani taqdim etish ustuvorlik huquqining yuzaga kelishi uchun asos deb e'tirof etiladi".

Sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij konvensiyasi 5^a -modda 4-bandiga ko'ra, majburiy litsenziya patentga talabnoma berilgan sanadan boshlab to'rt yil muddat yoki patent berilgan sanadan boshlab uch yil muddat ichida foydalanmaslik yoki yetarlicha foydalanmaslik sababi bilan talab qilinishi mumkin emas. Agar patent egasi o'z harakatsizligi uzrli sabablar bilan bog'liq bo'lganligini isbotlasa, majburiy litsenziya berish rad etiladi. Mazkur qoidalar "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasida aks ettirilgan bo'lib, unga ko'ra, patent ega-

lari patent ro'yxatga olingan sanadan boshlab uch yil mobaynida sanoat mulki ob'ektidan foydalanmasa yoki yetarli darajada foydalanmasa, ushbu muhofaza etilayotgan sanoat mulki ob'ektidan foydalanishni xohlovchi va foydalanishga tayyor har qanday shaxs, patent egasi litsenziya shartnomasi tuzishdan bosh tortgan taqdirda, o'ziga majburiy nomutlaq litsenziya berishni so'rab sudga iltimosnoma bilan murojaat qilishi mumkin. Yuqorida keltirib o'tilgan Konvensiya qoidalari hamda "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonunda nazarda tutilgan qoidalarni tahlil qilib shuni aytish mumkin, Konvensiyadagi ayrim mazkur Qonunda aks etmay qolgan. Shu sababli ham, "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasi quyidagicha ifodalanishi kerak: "Patent egalari patentga talabnoma berilgan sanadan boshlab to'rt yil muddat yoki patent berilgan sanadan boshlab uch yil muddat mobaynida sanoat mulki ob'ektidan foydalanmasa yoki yetarli darajada foydalanmasa, ushbu muhofaza etilayotgan sanoat mulki ob'ektidan foydalanishni xohlovchi va foydalanishga tayyor har qanday shaxs, patent egasi litsenziya shartnomasi tuzishdan bosh tortgan taqdirda, o'ziga majburiy nomutlaq litsenziya berishni so'rab sudga iltimosnoma bilan murojaat qilishi mumkin. Agar patent egasi o'z harakatsizligi uzrli sabablar bilan bog'liq bo'lganligini isbotlansa, majburiy litsenziya berish rad etiladi".

Sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij konvensiyasi 6^{ter}-modda 1-bandiga ko'ra, rasmiy belgilar, nazorat va kafolat tamg'alari, bayroq va boshqa davlat belgilari tovar belgilari sifatida vakolatli muassalarning ruxsatisiz ro'yxatdan o'tkazilishini rad etish va haqiqiy emas deb e'tirof etiladi yoki tegishli chora-tadbirlar ko'rish yo'li bilan taqiqlanadi, shuningdek geraldika nuqtai nazaridan bunga har qanday taqlid qilish ta'qiqlanadi. Mazkur moddada nazarda tutilgan qoidalar O'zbekiston Respublikasining "Tovar belgilari, xizmat

ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi Qonunining 10-moddasida implementatsiya qilingan. Lekin mazkur Qonunning 10-modda birinchi bandida geraldika nuqtai nazaridan davlat belgilariga taqlid qilish asosida yaratilgan belgilarni ro'yhatdan o'tkazishning rad etilishi bilan bog'liq qoidalar aks ettirilmagan. Bu esa o'z navbatida, vakolatli davlat muassasasi (O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi idorasi) tomonidan bunday shakldagi belgilarni ro'yxatdan o'tkazishni rad etish uchun yuridik asos mavjud emasligiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi Qonunining 10-modda 1-bandi quyidagicha shaklda ifodalansa, ahamiyatga molik bo'ladi: "Quyidagilar tovar belgilari sifatida ro'yxatdan o'tkazilmaydi: - davlat gerblari, bayroqlari va davlat mukofotlarining tasviri tushirilgan yoki ularga taqlid qilib yaratilgan belgilar...".

Sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij konvensiyasi normalarini ichki qonunchilikka impelementatsiya qilish intellektual mulk obektlari xalqaro himoyasi, intellektual mulk sohasidagi muhim amal hisoblanadi.

2. Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to'g'risidagi Bern konvensiyasi

Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to'g'risidagi Bern Konvensiyasi adabiyot, fan va san'at asarlarini xalqaro huquqiy himoyasi sohasidagi xalqaro universal shartnoma xisoblanadi. Mazkur Konvensiya 1886 yilda qabul qilingan. Konvensiya 1971 yil 24 iyulda yangi tahrirda Parij hujjati qabul kilingan, 1979 yil 28 sentabrda ushbu hujjatga tegishli o'zgartirishlar kiritilgan.

Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to'g'risidagi Bern Konvensiyasiga bugungi kunda 164 ta mamlakat a'zo hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida ushbu shartnomaga 2005 yil 19 apreldan boshlab amal qilinib kelinadi.

Mazkur shartnomaning asosiy maqsadi, Bern ittifoqiga kiradigan mamlakatlar hududida mualliflarning adabiyot va badiiy asarlarga bo'lgan huquqlarini imkoni boricha samarali va bir xilda muhofaza qilishdir.

Konvensiya 38 modda va qo'shimcha bo'limdan iborat bo'lib mualliflar huquqlarining to'liq ro'yxatini namoyish etadi.

Konvensiya uch yo'nalishdagi qator koidalarga, shuningdek rivojlanayotgan mamlakatlarga tegishli maxsus qoidalariga asoslanadi.

Konvensiyaning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. "Milliy tartib" tamoyili;
2. "Uzluksiz himoya qilish" tamoyili;
3. "Himoya qilishning erkinligi" tamoyili.

Konvensiyada shu narsa ta'kidlab o'tiladiki, mualliflik huquqlaridan foydalanish va ularni amalga oshirish biron-bir rasmiyatchilikni bajarish bilan bog'liq emas. Bunday foydalanish va amalga oshirish ishlari asar yaratilgan davlatda himoya qilish mavjudligi yoki mavjud emasligiga qaramaydi. Agar muallif asar yaratilgan mamlakatning fuqarosi bo'lmasa, uning haqiqiy konvensiyadagi himoya qilish kuchi tavsiya etiladi, u shu mamlakatning muallif-fuqarolari foydalangan huquqlardan foydalanadi. Bunga ko'ra:

a) qaysi mamlakat bo'lishidan qat'i nazar, birinchi mar-ta asar chiqarilgan joy uning mamlakati hisoblanadi. Ittifoq himoya qilishning turli muddatlarni tavsiya qiluvchi bir necha mamlakatlarida bir vaqtning o'zida yuzaga kelgan asar uchun qonunchiligi eng qisqa himoya muddatini tavsiya qilgan mamlakat uning mamlakati hisoblanadi;

b) ittifoqqa kirmaydigan bir necha mamlakatlardan va ittifoqqa kiradigan bir mamlakatda chiqarilgan asar uchun ittifoqdagi mamlakat uning mamlakati hisoblanadi.

Konvensiyaning nomulkiy huquq muammolariga bag'ishlangan moddasida muallifning mulkiy huquqidan qat'i nazar, hatto bu huquqlari tan olinganidan keyin ham u asarga

o'z muallifligini e'tirof etilishini, noto'g'ri ma'no berilishiga va asarning boshqa o'zgartirishlariga qarshilik qilish, shuningdek muallif obro'si va qadr-qimmatiga zarar yetkazuvchi har qanday tajovuzlarga qarshilik qilish huquqiga egadir.

Ushbu shartnomaga ko'ra, mualliflik huquqi bilan himoya qilinadigan ikki turdagi ob'ekt:

- a) shakli yoki usulidan qat'iy nazar kompyuter dasturlari;
- b) axborotlar tizimi yoki har qanday shaklda va joylashuvidan kat'i nazar intellektual ijod mahsuli hisoblangan boshqa ma'lumotlar (axborotlar bazasi) tan olinadi.

Ushbu Shartnomada mualliflarning quyidagi 3 turdagi huquqi:

- a) tarqatishga bo'lgan huquq;
- b) ijaraga berish huquqi;
- v) ommaga xabar qilish uchun yetkazish huquqi belgilangan.

Ushbu huquqlar alohida huquqlar turiga kirib, faqat muallifga tegishli bo'ladi. Shartnoma talabiga ko'ra bu huquqlarning cheklanishiga ham, ya'ni boshqa shaxslar tomonidan shaxsiy maqsadlarda foydalanishga ham yo'l qo'yiladi.

Tarqatish huquqi deganda - muallifga (huquq egasiga) shunday huquq tegishli bo'ladiki, bunda asar asli va uning nusxalari sotish yo'li bilan boshqalarga yetkazilishiga yoki huquq egasining o'zgacha huquqini o'tkazilishiga ruxsat berish huquqi tushuniladi.

Konvensiyada kinematografiya, arxitektura asarlarini va muayyan badiiy asarlarni muhofaza bilan ta'minlash mezonlari belgilab berilgan bo'lib, ushbu mezonlarga ko'ra:

1) kinematografik asarlar mualliflariga, agar ularning ishlab chiqaruvchisi Ittifoqqa kiruvchi mamlakatlarning birtortasida o'zining qarorgohi yoki odatiy yashash joyiga ega bo'lsa;

2) Ittifoqqa kiruvchi biron - bir mamlakat hududida qurilgan arxitektura asarlarining mualliflariga yoxud Ittifoqning

biron – bir mamlakatida joylashgan bino yoki boshqa inshootning bir qismi hisoblangan badiiy asarlarlar mualliflariga qo'llaniladi.

Konvensiyada shu bilan birga adabiyot, badiiy, fan va san'at asarlariga nisbatan umumiy himoya muddatlari belgilangan bo'lib, unga ko'ra:

- Umumiy holatda taqdim etiladigan muhofaza muallifning butun hayoti davomidagi vaqtni va uning vafotidan so'ng ellik yilni tashkil etadi;

- kinematografiya asarlari uchun muhofaza muddati asar birinchi marta barchaning ommaviy namoyish etilganidan ellik yilni tashkil etadi;

- anonim tarzda yoki taxallus ostida yaratilgan asarlar uchun muhofaza muddati bunday asarlar qonuniy tartibda ommaviy ijro etilganidan so'ng ellik yilni tashkil etadi;

- badiiy asarlar sifatida muhofaza qilinadigan fotografiya va amaliy san'at asarlarini muhofaza qilish muddati asar yaratilgan vaqtdan boshlab yigirma besh yiddan kam bo'lishi mumkin emas;

- muhofaza muddati muallif vafoti kunidan yoki yuqorida keltirilgan holatlar yuzaga kelgan kundan boshlab kuchga kiradi, lekin hamma vaqt muallif vafoti kunidan yoki yuqorida keltirilgan holatlar yuzaga kelgan yildan keyingi yilning 1 yanvaridan boshlab o'ta boshlagan hisoblanadi.

Mazkur Konvensiyada muallifning asarini qonunga xilof ravishda qayta bostirib, mualliflik huquqini buzish holatlari aniqlangan holatda belgilanadigan ta'sir choralari ham belgilangan bo'lib, unga ko'ra:

- agar asarlarning kontrafakt nusxalari huquqiy muhofazadan foydalanayotgan bo'lsa, ular Ittifoqning istalgan mamlakatida xatlab olib qo'yilishi lozim;

- yuqoridagi ko'rsatilgan qoida mamlakatda ishlab chiqilgan va muhofaza qilinmaydigan yoki muhofazadan foydalanishni to'xtatgan asarlarga nisbatan ham qo'llaniladi;

- xatlash har bir mamlakatning qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ittifoqning ikki yoki undan ortiq mamlakati o'rtasida ushbu Konvensiyaning talqin qilinishi yoki qo'llanishiga taalluqli va muzokaralar orqali hal etilmagan har qanday nizo, agar ko'rsatib o'tilgan mamlakatlar nizoni boshqa usullar bilan bartaraf etishga kelishmasalar, ko'rsatib o'tilgan mamlakatlarning istalgan biri tomonidan Sud statutiga muvofiq, ariza berish yo'li bilan Xalqaro sudga berilishi mumkin. Sudga ariza berayotgan mamlakat Xalqaro byuroga Sudga berilgan nizo haqida xabar berishi lozim; Xalqaro byuro bu haqda Ittifoqning boshqa mamlakatlarini xabardor qilishi kerak.

Mazkur konvensiyada nazarda tutilgan me'yorlarni O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligiga implementatsiya qilish masalalariga nazar tashlab, shunga guvoh bo'lish mumkinki, Konvensiya normalarining aksariyati milliy qonunchilikka implementatsiya qilingan. Lekin shunga qaramasdan Konvensiyadagi ayrim normalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunida, "Adabiyot va badiiy asarlarni himoya qilish to'g'risida"gi Bern Konvensiyasining 7-modda 2,4-bandlarida nazarda tutilgan qoidalar o'z aksini topmagan. Qonunning 35-moddasida mualliflik huquqining amal qilish muddati bo'yicha umumiy qoidalar belgilangan holos. Ushbu moddada ko'zga tashlanadigan muammo shundaki, unda mualliflik huquqining amal qilish muddati masalalarida ozgina aniqlik etishmaydi, ya'ni Qonunda kinematografik, fotografiya va amaliy san'at asarlarga bo'lgan bo'lgan mualliflik huquqining amal qilish muddati aniq belgilab berilmagan. Bu holat o'z navbatida O'zbekiston Respublikasida kinematografiya, amaliy san'at va fotografiya asarlariga bo'lgan mualliflik huquqining amal qilish muddatiga nisbatan "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qo-

nunning 35-moddasida nazarda tutilgan qoidalarni noto'g'ri tatbiq etilishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham ushbu Qonunning 35-moddasiga "Adabiyot va badiiy asarlar-ni himoya qilish to'g'risida"gi Bern Konvensiyasining 7-mod-da 2,4-bandlaridagi kabi, kinematografik asarlarga nisbatan mualliflik huquqining amal qilish muddati muallif roziligi bilan asar birinchi marta ommalashtirilganidan keyin ellik yil, badiiy asarlar sifatida himoya kilinadigan fotografiya va amaliy san'at asarlariga nisbatan mualliflik huquqining hi-moya muddati asar yaratilgan vaqtdan boshlab yigirma besh yil qilib belgilanishi lozim.

3. Patent huquqi to'g'risida shartnoma

Patent huquqi to'g'risida shartnoma davlatlararo xalqaro patent munosbatlarining protsessual-huquqiy jihatlarini ta-ribga solib boruvchi yagona universal xalqaro shartnoma hisoblanib, u 2000 yil 1 iyunda Jenevada Diplomatik konfe-rensiya tomonidan qabul qilingan.

Patent huquqi to'g'risidagi Shartnomaga bugungi kunda 27 ta mamlakat a'zo hisoblanadi. Ushbu bitimga oxirgi bo'lib Niderlandiya Qirolligi 2010 yil 27 dekabrda boshlab a'zo bo'lib kirdi. O'zbekiston Respublikasida ushbu shartnoma 2006 yil 19 iyuldan boshlab a'zo bo'lib kirgan.

Mazkur shartnomaning asosiy maqsadi xalqaro patent masalalari bo'yicha shartnoma doirasida maxsus ittifoq ta'sis etish orqali, mazkur soha munosabatlarining tartibgo soluvchi protsessual qoidalarni bir xillashtirish hamda patent soha-sidagi davlatlararo xalqaro hamkorlikni rag'batlantirishdir.

Shartnoma 27 ta moddadan iborat bo'lib, xalqaro patent munosabatlarida qo'llanidigan maxsus tamoillar, xalqaro pa-tent uchuni taqdim etilgan talabnomaga qo'yiladigan talab-lar, talabnoma berishdagi muddat masalalari, xalqaro patent munosabatlaridagi vakillik, patentning haqiqiyliigi va bekor

bo'lishi me'zonlari, ustuvorlik huquqi uchun da'vo arizasini tuzish, shartnomaga o'zgartirish vav qo'shimchalar kiritish tartibi, shartnoma bo'yicha kelib chiqadigan ayrim ma'muriy masalalar hamda sharnomani kuchga kirishi va denonsatsiya qilish tartibi bo'yicha kelib chiqadigan davlatlararo xalqaro huquqiy munosabatlarni tartibga soladi.

Sharnomaning ikkinchi moddasida xalqaro tatent munosabatlarida qo'llanadigan maxsus tamoillar aks ettirilgan. Mazkur moddada nazarda tutilgan qoidalarga ko'ra, shartnomaga a'zo davlatlar xalqaro patentga talabnoma taqdim etgan huquq egalariga eng qulay rejimni taqdim etishlari mumkin. Bunda ularning patentlarga nisbatan qo'llanadigan moddiy huquq talablarini o'z ixtiyoricha tayinlashga bo'lgan huquqlarini cheklash sifatida tushunilmasligi kerak.

Shartnomaning uchinchi moddasida mazkur shartnoma tatbiq etiladigin talabnomalar ro'yhati berilga blib, unga shartnoma a'zo davlatlarning idorasiga yoki idoralari uchun topshiriladigan patentlar va qo'shimcha patentlar olish uchun milliy va mintaqaviy talabnomalarga tatbiq etiladi.

Shartnomaning oltinchi moddasida xalqaro patent uchun taqdim etilgan talabnoma qo'yiladigan talablar aks ettirilgan bo'lib, mazkur talablarga ko'ra talabnoma:

RSTga muvofiq xalqaro talabnomalarga nisbatan nazarda tutilgan talablarga asosan tuzilishi;

Shartnomaga a'zo davlat idorasi tomonidan talab qilinishi mumkin bo'lgan shakllar va mazmunga tegishli talablar asosida tuzilishi lozim.

Shartnomaga a'zo davlatlar talabnomalarga nisbatan boj to'lashni talab qilishi mumkin. A'zo davlatlar talabnoma berish uchun boj to'lashga tegishli bo'lgan Patent kooperatsiyasi to'g'risidagi shartnoma qoidalarini qo'llashi mimkin.

Shartnomaning oltinchi moddasida patent egasining qonuniy vakilining huquq va majburiyatlari aks ettirilgan bo'lib unga ko'ra, patent vakili:

idorada qonunchilik asosida talabnomalar va patentlar bilan ish yuritish huquqiga ega bo'lishi;

o'z manzili sifatida Ahdlashuvchi tomon tomonidan ko'rsatilgan hududdagi manzilni ko'rsatishni talab qilishi mumkin.

Shartnomaga a'zo davlat tomonidan qo'llaniladigan talablarga rioya qiladigan vakil tomonidan yoki vakilga nisbatan amalga oshiriladigan har qanday tartib-taomillarga nisbatan xatti-harakatlar ushbu vakilni tayinlagan talabnoma beruvchi, egasi yoki boshqa manfaatdor shaxslar tomonidan yoki yuqorida sanab o'tilgan shaxslarga nisbatan amalga oshiriladigan xatti-harakat kuchiga ega.

Shartnomaning o'ninchi moddasida patentning haqiqiyliги va uni bekor qilish tartibi belgilab berilgan bo'lib, unga ko'ra, bir yoki bir nechta rasmiy talablarning bajarilmasligi patentni to'liq yoki qisman bekor qilish yoki uni haqiqiy emas deb e'tirof etish uchun asos bo'la olmaydi. Rasmiy talablarning bajarilmasligi ataylab qilingan yolg'onning natijasi bo'lgan holatlar buni istisno etadi.

Shartnomada ustuvorlik huquqi da'vo arizasini tuzish va ustuvorlik huquqini tiklash qoidalari ham aks ettirilgan bo'lib, unga ko'ra shartnomaga a'zo davlatlar quyidagi holatlarda talabnomaga nisbatan da'volarni tuzish yoki to'ldirish imkoniyatini nazarda tutadi :

iltimosnoma Yo'riqnomada ko'rsatilgan talablarga muvofiq idoraga topshirilgan bo'lsa;

iltimosnoma Yo'riqnomada ko'rsatilgan muddatda topshirilgan bo'lsa;

uning asosida ustuvorlik so'raladigan eng ilk talabnoma berilishi sanasidan boshlab hisoblanadigan ustuvor muddat tamom bo'lishi sanasidan kechikmay beriladigan talabnomani berish sanasi bo'lsa.

Shartnomaning o'n sakkizinchi moddasida Xalqaro byuro faoliyati sohasidagi huquqiy masalalar aks ettirilgan bo'lib, unga ko'ra u Shartnomaga tegishli bo'lgan ma'muriy funk-

siyalarni bajaradi. Xususan, Xalqaro byuro majlislar tayyorlaydi hamda Assambleya kotibiyati va Assambleya tomonidan ta'sis etilishi mumkin bo'lgan ekspertlar qo'mitasi va ishchi guruhlar funksiyasini bajaradi. Bosh direktor Assambleya tomonidan ta'sis etilgan istalgan qo'mita yoki ishchi guruh majlisini chaqiradi.

Shartnomaning o'n to'qqizinchi moddasida mazkur shartnomani qayta ko'rib chiqish qoidalari aks ettirilgan bo'lib, unga ko'ra, Shartnoma a'zo davlatlarning konferensiyalarida qayta ko'rib chiqilishi mumkin. Qayta ko'rib chiqish bo'yicha har qanday konferensiyalarni chaqirish to'g'risidagi qaror Assambleya tomonidan qabul qilinadi.

Parij konvensiyasining ishtirokchisi yoki Tashkilotning a'zosi bo'lgan va ularga nisbatan ushbu davlatning idorasi orqali yoki boshqa davlat yoxud hukumatlararo tashkilotning idorasi orqali patentlar qabul qilinishi mumkin bo'lgan istalgan davlat ushbu Shartnomaning qatnashchilari bo'lishi mumkin.

Patent huquqi to'g'risida Shartnoma o'nta davlat ratifikatsiya qilish yoki qo'shilish to'g'risidagi o'z hujjatlarini Bosh direktorga saqlash uchun topshirgandan so'ng uch oy o'tib kuchga kiradi.

Istalgan Ahdlashuvchi tomon Bosh direktorga bildirishnoma yuborib ushbu Shartnomani denonsatsiya qilishi mumkin. Istalgan denonsatsiya Bosh direktor tomonidan bildirishnoma qabul qilingan sanadan boshlab yoki bildirishnomada ko'rsatilgan istalgan kechroq sanadan boshlab bir yildan keyin kuchga kiradi. Denonsatsiya ko'rib chiqilayotgan istalgan talabnomaga nisbatan, yoki denonsatsiya kuchga kirgan sanada uzaytiruvchi Ahdlashuvchi tomonga nisbatan amal qiladigan istalgan patentga nisbatan ushbu Shartnomani qo'llashga daxl qilmaydi.

Patent huquqi to'g'risida shartnomasida nazarda tutilgan me'yorlarni O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligiga

implementatsiya qilish masalalariga nazar tashlab, shunga guvoh bo'lish mumkinki, Konvensiya normalarining aksariyati milliy qonunchilikka implementatsiya qilingan. Lekin shunga qaramasdan shartnomadagi ayrim me'yorlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Tovar belgilari bo'yicha qonunlar to'g'risida shartnoma

Tovar belgilari bo'yicha qonunlar to'g'risida shartnoma tovar belgilariga xalqaro huquqiy muhofaza taqdim etish sohasidagi universal xalqaro shartnoma hisoblanib, u tovar belgilarini xalqaro ro'yxatdan o'tkazish masalalari bo'yicha barcha protsessual holatlarni qamrab oladi. Mazkur shartnoma 1994 yil 27 oktabrda Jenevada imzolangan.

Tovar belgilari bo'yicha qonunlar to'g'risida shartnomaga bugungi kunda 45 ta mamlakat a'zo hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida ushbu shartnomaga 1998 yil 4 sentabrdan boshlab amal qilinib kelinadi.

Shartnomaning asosiy maqsadi foydalanuvchilar uchun tovar belgilarini ro'yhatdan o'tkazish bo'yicha milliy va mintaqiy tizimlar doirasida qulay shart-sharoitlar yaratishdir. Mazkur qulaylik shartnomada nazarda tutilgan qoidalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish orqali tovar belgisi egalari va ularning vakillari huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasi kafolatlarini yaratish orqali amalga oshiriladi.

Shartnoma 24 moddadan iborat bo'lib, tovar belgilarini xalqaro ro'yxatdan o'tkazish uchun beriladigan talabnoma, tovar belgilarini xalqaro ro'yxatdan o'tkazish vakillik masalalari, talabnoma berishdagi ayrim protsessual masalalar, tovar va xizmatlarning xalqaro tasnifi, tovar belgilarini ro'yxatga olishning amal qilish muddati va uni o'zgartirish, shartnomaga o'zgartirish kiritish, shartnomaga ishtirok etish, shartnomaning kuchga kirishi va denonsatsiya qilish masalari bo'yi-

cha davlatlararo xalqaro huquqiy munosabatlarni tartibga soladi.

Shartnomaning birinchi moddasida intellektual mulk huquqi sohasidagi ayrim atamalarning qisqacha izoxi berib o'tilgan. Mazkur moddaning ijobiy jihati shundaki, tovar belgilarini sohasidagi atamalarni shartnomaga a'zo mamlakatlarda milliy qonunchiligida unifikatsiyalash muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Shartnomada tovar belgilarini xalqaro ro'yxatdan o'tkazish uchun beriladigan talabnomaga doir qoidalar belgilangan bo'lib unga ko'ra, mazkur shartnomaga a'zo davlatlar talabnomada quyidagi ko'rsatmalar yoki elementlarning bo'lishini talab qilishi mumkin:

- ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida ariza;
- talabnoma beruvchining ismi va manzili;
- agar talabnoma beruvchi yuridik shaxs hisoblansa – yuridik shaxsning tashkiliy-huquqiy xususiyati va davlatning nomi;
- agar talabnoma beruvchi ishonchli vakilga ega bo'lsa, uning nomi va manzili;
- oldin berilgan talabnomaning ustuvorligi so'raladigan ariza;
- tovarlar va/yoki xizmatlar ko'rgazmaga jo'natilishi natijasida paydo bo'lgan muhofaza so'raladigan ariza;
- belgining bir yoki bir nechta tasviri;
- belgining yoki uning muayyan qismlarining transliteratsiyasi;
- belgining yoki uning muayyan qismlarining tarjimasini;
- shaxsning imzosi va boshqalar.

Shartnomaning 4-moddasida vakillik masalalariga oid qoidalar aks ettirilgan bo'lib unga ko'ra, istalgan Ahdlashuvchi davlat uning idorasi tomonidan qo'llaniladigan istalgan tartib-taomil maqsadlari uchun ishonchli vakil sifatida tayinlangan shaxs ushbu idora tomonidan amaliyotga qo'yilgan ishonchli vakil ekan-

ligini talab qilishi mumkin. Bunda davlat talabnoma beruvchi, mulkdor yoki istalgan boshqa manfaatdor shaxs uning idorasi oldida ishonchli vakil tomonidan taqdim etilishiga ruxsat bergan va buni talab qilgan hollarda, u bunday ishonchli vakil holatga bog'liq ravishda talabnoma beruvchi, mulkdor yoki boshqa shaxsning nomi va imzosi mavjud bo'lgan alohida bildirishnoma bilan tayinlanishini talab qilishi mumkin.

Shartnomaning 9-moddasi tovarlar va xizmatlarning tasnifi masalalarini tartibga soladi. Mazkur moddaga ko'ra, (Idora tomonidan talabnomaga nisbatan amalga oshirilgan har bir ro'yxatdan o'tkazish va har qanday e'lon qilish yoki ro'yxatdan o'tkazish va tovarlar va/yoki xizmatlar ko'rsatilishi, Nissa tasnifi klasslari bo'yicha va ko'rsatib o'tilgan Tasniflash tartibida guruhlashtirilgan ushbu tovarlar va yoki xizmatlar nomini ko'rsatadi, bunda har bir guruhda tovarlar yoki xizmatlarning mazkur guruhi tegishli bo'lgan klassning tartib raqami bo'lishi kerak.

Shartnomga a'zo davlat ro'xatdan o'tkazishni uzaytirish berish sharti bilan amalga oshirilishini va bunday arizada quyidagi ko'rsatmalarning barchasi yoki ayrimlari mavjud bo'lishini talab qilishi mumkin:

- ro'yxatdan o'tkazishni uzaytirish to'g'risidagi iltimos;
- ro'yxatdan o'tkazishning egasining nomi va manzili;
- tegishli ro'yxatdan o'tkazishning tartib raqami;
- ishonchli vakilning nomi va manzili, agar ro'yxatdan o'tkazishning egasi bunday ishonchli vakilga ega bo'lsa;
- amaliy yozishmalar uchun manzil, agar ro'yxatdan o'tkazishning egasi bunday yozishmalarga ega bo'lsa;
- ular uchun ro'yxatdan o'tkazishni uzaytirish so'ralayotgan tovarlar va xizmatlar reestriga kiritilgan nomlar;
- ro'yxatdan o'tkazishning egasi yoki uning ishonchli vakilidan boshqa shaxsning nomi va manzili;
- ro'yxatdan o'tkazishning egasi yoki uning ishonchli vakilining imzosi.

Shartnomaga ko'ra, istalgan Ahdlashuvchi tomon xizmat ko'rsatish belgilariga nisbatan Parij konvensiyasining tovar belgilariga nisbatan tegishli qoidalarini qo'llaydi va ularni ro'yxatdan o'tkazadi.

Istalgan ratifikatsiya yorlig'iga yoki davlatning qo'shilishi to'g'risidagi dalolatnomaga ariza ilova qilinishi mumkin. Arizada hujjat shuningdek boshqa bitta davlatning yoki bit-ta hukumatlararo tashkilotning hujjati ham saqlash uchun topshirilgan bo'lishi, yoki boshqa ikki davlatning hujjatlari, yoki bitta boshqa davlatning va ushbu Shartnomaning tomoni bo'lish huquqiga ega bo'lgan bitta hukumatlaro tashkilotning hujjatlari, ularning nomlari ko'rsatilgan holda saqlash uchun topshirilishi sharti bilan saqlash uchun topshirilgan deb hisoblanadi. Bunday arizani o'z ichiga olgan hujjat arizada ko'rsatilgan shartlar bajarilishi sanasidan boshlab saqlash uchun topshirilgan deb qaraladi. Biroq, agar arizada ko'rsatilgan hujjatni saqlash uchun topshirishga, o'z navbatida, bunday turdagi ariza ilova qilinsa, bunday hujjat oxirgi arizada ko'rsatilgan shartlar bajarilgan sanadan boshlab saqlash uchun topshirilgan deb hisoblanadi.

Istalgan Ahdlashuvchi tomon Bosh direktorga yo'llangan xabar qilish yo'li bilan ushbu Shartnomani denonsatsiya qilishi mumkin. Denonsatsiya Bosh direktor tomonidan bildirishnoma olingan sanadan boshlab bir yildan keyin kuchga kiradi. Denonsatsiya ko'rsatib o'tilgan davr tamom bo'lishi sanasida, ko'rsatib o'tilgan davr tamom bo'lgach denonsatsiya qilayotgan Ahdlashuvchi tomon bunday ro'yxatdan o'tkazish uzaytirilishi kerak bo'lgan sanadan boshlab istalgan ro'yxatdan o'tkazishga nisbatan ushbu Shartnomaning qo'llanilishini to'xtatishi mumkinligi sharti bilan ushbu Shartnoma ko'rib chiqilayotgan istalgan talabnomaga yoki denonsatsiya qilayotgan Ahdlashuvchi tomonga ro'yxatdan o'tkazilgan istalgan belgiga qo'llanilishiga daxl qilmaydi.

Tovar belgilari bo'yicha qonunlar to'g'risida shartnomada

nazarda tutilgan me'yorlarni O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligiga implementatsiya qilish masalalariga nazar tashlab, shunga guvoh bo'lish mumkinki, Konvensiya normalarining aksariyati milliy qonunchilikka implementatsiya qilingan. Lekin shunga qaramasdan shartnomadagi ayrim me'yorlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Belgilarni xalqaro ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida Madrid bitimiga bayonnoma

Belgilarni xalqaro ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida Madrid bitimiga bayonnoma 1967 yil Stokgolmda qayta ko'rib chiqilgan va 1979 yilda o'zgartirilgan Belgilarni xalqaro ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi Madrid bitimi asosida 1989 yil, 28 iyunda qabul qilingan. Mazkur Bayonnomaga bugungi kunda 83 ta mamlakat a'zo hisoblanadi. Bayonnomaga oxirigi bo'lib Qozog'iston Respublikasi 2010 yil 8 dekabrda qo'shildi. O'zbekiston Respublikasida ushbu shartnomaga 2006 yil 27 dekabrda boshlab amal qilinib kelinadi.

Bayonnoma 16 moddadan iborat bo'lib, belgilarni xalqaro ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha Madrid ittifoqiga mansublik, belgilarni xalqaro ro'yxatdan o'tkazish yo'li bilan muhofaza ga ega bo'lish, belgilarni xalqaro ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha xalqaro talabnoma, belgilarni milliy yoki mintaqaviy ro'yxatdan o'tkazishlarni xalqaro ro'yxatdan o'tkazishga almashtirish, tomonlarga nisbatan muhofaza qilishni rad etish va xalqaro ro'yxatdan o'tkazishni haqiqiy emas deb e'tirof etish, belgilarni xalqaro ro'yxatdan o'tkazish o'tkazish uchun yig'imlar, belgilarni xalqaro ro'yhatdan o'tkazishda mutlaq huquq egasi o'z garga nligi to'g'risidagi yozuvni qayd qilish, belgilarni xalqaro ro'yhatdan o'tkazish masalalari bo'yicha Xalqaro byuro faoliyati va uni moliyalashtirish, bayonnomaning kuchga kirishi va denonsatsiya qilish masalalari bo'yicha yuzaga kelgan huquqiy munosabatlarni tartibga soladi.

Bayonnoma belgini xalqaro ro'yhatdan o'tkazish orqali unga huquqiy muhofaza taqdim etish masalalari bo'yicha maxsus qoidalarni o'zida aks ettirgan.

Bayonnomada shu bilan birga belgilarni xalqaro ro'yhatdan o'tkazish bo'yicha xalqaro talabnomaga qo'yiladigan umumiy talablar ham belgilab berilgan. Mazkur qoidalarga ko'ra xalqaro talabnoma Bayonnomada ko'rsatilgan blankada taqdim etilishi kerak. Kelib chiqish idorasi vaziyatga qarab xalqaro talabnomadagi ma'lumotlar hozirgi vaqtda bazaviy talabnomadagi yoki bazaviy ro'yxatdan o'tkazishdagi ma'lumotlarga mos kelishini tasdiqlaydi

Bayonnomaga ko'ra, belgilarni xalqaro ro'yhatdan o'tkazish natijasida kelib chiquvchi muhofaza xalqaro talabnomani beruvchi shaxs yoki xalqaro ro'yxatdan o'tkazilgan belgi egasining arizasiga binoan Ahdlashuvchi Tomonga tatbiq etiladi.

Belgilarni xalqaro ro'yhatdan o'tkazishning amal qilish muddati u ro'yxatdan o'tkazilgan yoki yozuv kiritilgan sandan boshlab har bir manfaatdor Ahdlashuvchi tomondagi belgini muhofaza qilish bu belgi bevosita ushbu Ahdlashuvchi Tomon idorasiga ma'lum qilingani singari bo'ladi.

Ba'zi Ahdlashuvchi Tomonlarga nisbatan muhofaza qilishni rad etish va xalqaro ro'yxatdan o'tkazishni haqiqiy emas deb e'tirof etish xalqaro ro'yxatdan o'tkazish natijasida kelib chiqqan muhofazani mazkur bayonnomaning 3 ter (1) yoki (2)-moddaga muvofiq ushbu Ahdlashuvchi Tomonga tatbiq etish to'g'risida Xalqaro byuroning bildirishnomasini olgan Ahdlashuvchi Tomonlar idorasi, qo'llanayotgan qonunchilik bunga imkon bersa, rad etish to'g'risidagi bildirishnomada ko'rsatilgan Ahdlashuvchi Tomonga ushbu kengayishning mavzusi bo'lgan belgi muhofaza qilinmasligini ma'lum qilishga haqli.

Bayonnomaga ko'ra istalgan Ahdlashuvchi Tomon ushbu Bayonnoma tufayli amalga oshirilgan xalqaro ro'yxatdan

o'tkazishlar uchun mazkur Bayonnomaning «a»-kichik bandda nazarda tutilgan bir yillik muddat 18 oy bilan almashtirishini ma'lum qilishi mumkin. Bunday arizada agar muhofaza qilishni rad etish muhofaza qilishni taqdim etishga e'tiroz bildirish natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lsa, u holda eslatib o'tilgan Ahdlashuvchi Tomon idorasi 18 oy tamom bo'lgandan keyin bunday rad etish to'g'risida Xalqaro byuroga xabar berishi mumkin deb ko'rsatilishi ham mumkin.

Belgilardagi gerblar, gerb qalqonlari, portretlar, farqlovchi belgilar, unvonlar, firma nomlari yoki talabnoma beruvchi nomidan tashqari shaxslarning ismlari singari alohida elementlar yoki boshqa shunga o'xshash yozuvlardan foydalanishning qonuniyligini tasdiqlovchi hujjatlar har qanday legalizatsiyalardan hamda kelib chiqish idorasi tasdig'idan tashqari har qanday tasdiqlashdan ozod etiladi.

Mazkur Bayonnomaga ko'ra, belgilarni xalqaro ro'yxatdan o'tkazish asosiy bojni, qo'shimcha va qo'shilgan bojni shunchaki to'lash yo'li bilan avvalgi muddat tamom bo'lgan sanadan boshlab o'n yilga uzaytirilishi mumkin. Muhofaza qilish muddati tamom bo'lishidan olti oy avval Xalqaro byuro norasmiy xabar berish yo'li bilan eslatib o'tilgan muddat tamom bo'ladigan aniq sanani xalqaro ro'yxatdan o'tkazish egasiga va, zarur bo'lsa, uning vakiliga xabar qiladi.

Xalqaro talabnoma va xalqaro ro'yxatdan o'tkazish uchun yig'imlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- asosiy boj;
- belgi qo'llanadigan tovarlar yoki xizmatlar uchun kiritilgan uch klassdan ortiqcha xalqaro tasnifning har bir klassi uchun qo'shimcha boj;
- muhofaza qilishni kengaytirish to'g'risidagi har bir ariza uchun qo'shilgan boj.

Belgilarni xalqaro ro'yxatdan o'tkazish masalalari bo'yicha Xalqaro byuro quyidagi ma'lumotlarni Xalqaro reestrda qayd etadi:

- xalqaro ro'yxatdan o'tkazilgan belgi egasining nomi yoki manziliga tegishli har qanday o'zgarishlar to'g'risida;

- xalqaro ro'yxatdan o'tkazilgan belgi egasining vakilini tayinlash va ushbu vakilga tegishli har qanday ma'lumotlar to'g'risida;

- Bayonnomaga a'zo davlatlarga nisbatan xalqaro ro'yxatdan o'tkazishda sanab o'tilgan tovarlar va xizmatlar ro'yxatiga doir har qanday cheklashlar to'g'risida;

- Bayonnomaga a'zo davlatlarga nisbatan har qanday rad etish, reestrndan olib tashlash yoki xalqaro ro'yxatdan o'tkazishni haqiqiy emas deb e'tirof etish to'g'risida;

- belgilarni xalqaro ro'yxatdan o'tkazish ob'ekti bo'lgan belgilar uchun huquqlarga doir ma'lumotlar to'g'risida.

Ushbu Bayonnomaga muvofiq xalqaro ro'yxatdan o'tkazish bilan bog'liq funksiyalar hamda ushbu Bayonnomaga tegishli boshqa ma'muriy funksiyalar Xalqaro byuro tomonidan amalga oshiriladi.

Sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij konvensiyasining ishtirokchisi sanalgan istalgan davlat ushbu Bayonnomaning qatnashchisi bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, istalgan hukumatlararo tashkilot:

- ushbu tashkilotga a'zo bo'lgan davlatlardan biri Sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij konvensiyasining ishtirokchisi hisoblansa;

- ko'rsatilgan tashkilot ro'yxatdan o'tkazish maqsadlari uchun agar bunday idora mazkur bayonnomaning 9 quater-moddasiga ko'ra, bildirishnoma ob'ekti bo'lmasagina ushbu tashkilot hududida kuchga ega bo'lgan mintaqaviy idoraga ega bo'lsa, ushbu Bayonnomaning ishtirokchisiga aylanishi mumkin.

Ushbu Bayonnomaning amal qilish muddati cheklanmagan. Istalgan a'zo davlat Butunjahon Intellektual Mulk Tashkiloti Bosh direktoriga bildirishnoma yuborish yo'li bilan ushbu Hujjatni denonsatsiya qilishi mumkin. Denonsatsiya BIMT

Bosh direktori tomonidan denonsatsiya to'g'risida bildirish-noma qabul qilingandan so'ng bir yil o'tib kuchga kiradi.

Belgilarni xalqaro ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida Madrid bitimiga bayonnomada nazarda tutilgan me'yorlarni O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligiga implementatsiya qilish masalalariga nazar tashlab, shunga guvoh bo'lish mumkinki, Konvensiya normalarining aksariyati milliy qonunchilikka implementatsiya qilingan. Lekin shunga qaramasdan shartnomadagi ayrim me'yorlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

6. Belgilarni ro'yxatga olish uchun tovarlar va xizmatlarni xalqaro tasniflash to'g'risida Nissa bitimi

Belgilarni ro'yxatga olish uchun tovarlar va xizmatlarni xalqaro tasniflash to'g'risida Nissa bitimi 1957 yil 15 iyunda qabul qilingan, 1967 yil 14 iyulda Stokgolmda va 1977 yil 13 mayda Jenevada ko'rib chiqilgan.

Belgilarni ro'yxatga olish uchun tovarlar va xizmatlarni xalqaro tasniflash to'g'risida Nissa bitimiga bugungi kunda 83 ta mamlakat a'zo hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida ushbu shartnomaga 2002 yil 12 yanvardan boshlab amal qilinib kelinadi.

Mazkur shartnoma 14 ta moddadan iborat bo'lib, tovar va xizmatlarni xalqaro tasniflash sohasida xalqaro tasnifni qabul qilish, xalqaro tasnifni olib borish tillari va tartibi, tovar va xizmatlar tasnifi bo'yicha Ekspertlpr guruxining vakolatlari, Xalqaro byuro faoliyati, tovar va xizmatlarni xalqaro tasniflash sohasidagi BIMT faoliyati, tasniflash bilan bog'liq harajatlarni moliyalashtirish sohasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soladi.

Shartnomaning ikkinchi moddasida tasnifning yuridik ahamiyati keltirib o'tilgan bo'lib, unga ko'ra tasnif belgilarni muhofaza qilish hajmini aniqlash va xizmat ko'rsatish belgi-

larini e'tirof etishga nisbatan Maxsus ittifoqqa a'zo mamlakatlarni bog'liq qilmaydi. Maxsus ittifoqqa a'zo mamlakatlarining vakolatli organlari ular uchun belgilar ro'yxatga olinadigan tovarlar yoki xizmatlar tegishli bo'lgan Tasnif klasslari raqamlari belgilarini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi rasmiy hujjatlar va nashrlarga kiritadi.

Shartnomaga ko'ra, tovarlar va xizmatlar tasnifi bo'yicha maxsus Ekspertlar qo'mitasi ta'sis etiladi. Ushbu Qo'mitada shartnomaga a'zo har bir mamlakatdan bittadan vakil faoliyat yuritadi.

Butunjahon Intellektual Mulk Tashkiloti Bosh direktori Ekspertlar qo'mitasi iltimosiga binoan shartnoma a'zolari bo'lmagan, biroq Tashkilotning a'zolari bo'lgan yoki Sanoat mulkini himoya qilish bo'yicha Parij konvensiyasi ishtirokchilari bo'lgan mamlakatlarni kuzatuvchilar sifatida Ekspertlar qo'mitasi majlislarida ishtirok etishga taklif etishi mumkin.

Shartnomaning uchinchi moddasiga ko'ra Ekspertlar qo'mitasi quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- Tasnifga kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risida qaror qabul qiladi;

- Tasnifdan foydalanishni yengillashtiruvchi va uning bir xil qo'llanishini ta'minlovchi tavsiyanomalarni Maxsus ittifoqqa a'zo mamlakatlarga yuboradi;

- Maxsus ittifoq yoki Tashkilot byudjetiga moliyaviy daxl qilmaydigan rivojlanayotgan mamlakatlarning Tasnifdan foydalanishiga ko'maklashuvchi barcha boshqa chora-tadbirlarni ko'radi;

- Kichik qo'mitalar va ishchi guruhlar ta'sis etishga haqli.

Mazkur shartnomaga a'zo mamlakatlarining vakolatli organlari qabul qilingan o'zgartirishlar va tavsiyanomalarga nisbatan Ekspertlar qo'mitasi qarorlari to'g'risida Xalqaro byuro tomonidan xabardor etiladi. Tuzatishlar bildirishnomalar jo'natilgandan boshlab olti oydan so'ng kuchga kiradi. Istalgan boshqa o'zgartirishlar o'zgartirish to'g'risida qaror

qabul qilingan vaqtdan boshlab Ekspertlar qo'mitasi tomonidan belgilangan sanadan boshlab kuchga kiradi. Xalqaro byuro kuchga kirgan o'zgartirishlarni Tasnifga kiritadi. Ushbu o'zgartirishlar to'g'risidagi xabarlar BIMT Bosh Assambleyasi belgilab beruvchi davriy nashrlarda e'lon qilinadi.

Shartnomaning ijro etilishi bilan bog'liq masalalar BIMT Xalqaro byurosi tomonidan amalga oshiriladi. Xalqaro byuro, xususan, majlislar o'tkazilishini tayyorlaydi va Assambleya qo'mitasi, Ekspertlar qo'mitasi, Assambleya yoki Ekspertlar qo'mitasi tashkil etishi mumkin bo'lgan istalgan boshqa ekspertlar kengashi va ishchi guruhlar kotibiyati ishini ta'minlaydi.

Shartnomada tovar va xizmatlarni xalqaro tasniflash bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish masalalari aks ettirilgan. Ittifoq byudjeti Maxsus ittifoqning daromadlari va xarajatlari, Ittifoq uchun umumiy bo'lgan xarajatlar byudjetiga kiritiladigan badal hamda tegishli hollarda Tashkilot konferensiyasi byudjetiga ajratmalarni o'z ichiga oladi.

Ittifoq byudjeti quyidagi manbalar orqali moliyalashtiriladi:

- Ittifoqqa a'zo mamlakatlarning badallari;
- Xalqaro byuro tomonidan Maxsus ittifoqning faoliyat sohasiga tegishli bo'lgan xizmatlar ko'rsatilganligi uchun yig'imlar va to'lovlar;
- Xalqaro byuroning Maxsus ittifoqqa tegishli bo'lgan materiallarni e'lon qilishdan tushgan daromadlar va bunday e'lon qilish huquqlarini berishdan tushgan mablag'lar;
- hadyalar, vasiyat qilingan mablag'lar va subsidiyalar;
- rentalar, foizlar va boshqa daromadlar.

Ushbu Bitimni imzolagan istalgan mamlakat uni ratifikasiya qilishi mumkin, agar u unga imzo chekmagan bo'lsa, unga qo'shilishi mumkin. Ittifoq a'zosi bo'lmagan, biroq Sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij konvensiyasining ishtirokchisi sanalgan istalgan mamlakat ushbu Shartnoma-

ga qoʻshilishi va shu bilan Maxsus ittifoqning aʼzosiga aylanishi mumkin. Ratifikatsiya yorliqlari va qoʻshilish toʻgʻrisidagi hujjatlar saqlash uchun Bosh direktorga topshiriladi.

Istalgan mamlakat Bosh direktorga yuboriladigan bildirishnoma yoʻli bilan ushbu Bitimni denonsatsiya qilishi mumkin. Bunday denonsatsiya shuningdek ushbu Hujjatni denonsatsiya qilayotgan mamlakat ratifikatsiya qilgan yoki unga qoʻshilgan ushbu Bitimning oldingi hujjatini yoki oldingi hujjatlarini denonsatsiya qilish ham hisoblanadi; denonsatsiya uni denonsatsiya qilgan mamlakatgagina tatbiq etiladi; ayni vaqtda Maxsus ittifoqqa aʼzo boʻlgan boshqa mamlakatlar uchun Bitim kuchda qoladi va bajarilishi lozim. Denonsatsiya Bosh direktor tomonidan denonsatsiya toʻgʻrisida bildirishnoma olingandan bir yildan keyin kuchga kiradi.

Belgilarni roʻyxatga olish uchun tovarlar va xizmatlarni xalqaro tasniflash toʻgʻrisida Nissa bitimida nazarda tutilgan meʼyorlarni Oʻzbekiston Respublikasi milliy qonunchiligiga implementatsiya qilish masalalariga nazar tashlab, shunga guvoh boʻlish mumkinki, Bitim normalarining aksariyati milliy qonunchilikka implementatsiya qilingan. Lekin shunga qaramasdan shartnomadagi ayrim meʼyorlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

7. Xalqaro patent tasnifi toʻgʻrisida Strasburg bitimi

Xalqaro patent tasnifi toʻgʻrisida Strasburg bitimi 1900 yil 14 dekabrda Bryusselda, 1911 yil 2 iyunda Vashingtonda, 1925 yil 6 noyabrda Gaagada, 1934 yil 2 iyunda Londonda, 1958 yil 31 oktyabrda Lissabonda va 1967 yil 14 iyulda Stokgolmda qayta koʻrib chiqilgan 1883 yil 20 martda qabul qilingan Sanoat mulkini muhofaza qilish boʻyicha Parij konvensiyasining 19-moddasini eʼtiborga olgan holda 1971 yil 24 martda qabul qilingan.

Shartnomaga bugungi kunda 61 ta mamlakat aʼzo xisobla-

nadi. Ushbu bitimga oxirigi bo'lib Serbiya Respublikasi 2010 yilning 15 iyulidan boshlab a'zo bo'lib kirdi. O'zbekiston Respublikasida ushbu shartnoma 2002 yil 12 yanvardan boshlab kuchga kirgan.

Mazkur Konvensiyani qabul qilishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad patentlar tasnifining umumiy qabul qilingan yagona tizimi, mualliflik guvohnomalari, foydali modellar va foydalilik to'g'risidagi guvohnomalar umumiy manfaatlarga javob berishini va sanoat mulki sohasida yanada yaqinroq xalqaro hamkorlikka ko'maklashishini hamda ushbu sohada milliy qonun hujjatlarini umumlashtirishga yordam berishdir.

Konvensiya 17 ta moddadan iborat bo'lib, xalqaro patent tasnifi sohasida maxsus ittifoqni tuzish, xalqaro patent tasnifi qabul qilish, xalqaro patent tasnifining tillari, xalqaro patent tasnifidan foydalanish, xalqaro patent bo'yicha ekspertlar qo'mitasining faoliyat jarayoni, xalqaro patent sohasida Xalqaro Byuro vakolatlari, mazkur bitimning kuchga kirishi hamda uning bekor qilish sohasida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarni tartibga soladi.

Ushbu Bitimga a'zo mamlakatlar xalqaro patent tasnifi sohasida samarali xalqaro hamkorlik mexanizmlari shakllantirish maqsadida shartnoma doirasida patent tasnifi masalalari bo'yicha maxsus ittifoqni tashkil etdilar va ixtiroga patentlarni yagona tasniflash, mualliflik guvohnomalari, foydali modellar, foydalilik to'g'risidagi guvohnomalarni qabul qildilar.

Ushbu Bitimga ko'ra xalqaro patent tasnifi tillarining qo'llanishi masalalari quyidagicha tartibga solinadi. Tasnif ingliz va fransuz tillarida ishlab chiqiladi, agarda tasnifi matn har ikkali tilda ham tuzilgan bo'lsa, ushbu holatda ikkala matn ham to'liq asl matnlar hisoblanadi. Tasnifning ispan, nemis, portugal, rus va yapon tillaridagi hamda boshqa tillardagi rasmiy matnlari yoki ushbu hukumatlarga taqdim etilgan tarjima asosida ishlab chiqiladi.

Konvensiyada xalqaro patent tasnifi masalalari bo'yicha ekspertlar guruhini ta'xis etish masalalari ham yoritib berilga bo'lib, unga ko'ra mazkur shartnoma doirasida ta'xis etilgan ittifoqqa a'zo bo'lgan har bir davlat vakilga ega bo'lgan Ekspertlar qo'mitasi ta'xis etiladi. Ekspertlar qo'mitasi quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

- xalqaro patent tansifiga o'zgartirish kiritish;
- xalqaro patent tasnifdan foydalanish va uning yagona shaklda qo'llanishini rivojlantirish maqsadida Maxsus ittifoq mamlakatlariga tavsiyanomalar berish;
- rivojlanayotgan mamlakatlar ehtiyojlarini e'tiborga olgan holda ixtirolar ekspetizasida foydalaniladigan hujjatlarni qayta tasniflashda xalqaro hamkorlikka yordam berish;
- maxsus ittifoq yoki Butunjahon Intellektual Mulk Tashkiloti byudjetiga moliyaviy xarajatlar etkazmaydigan barcha boshqa chora-tadbirlarni qabul qilgan holda xalqaro patent tasnifini rivojlanayotgan mamlakatlarga qo'llashga yordam berish;
- xalqaro patent masalalari bo'yicha kichik qo'mitalar va ishchi guruhlar tuzish va boshqalar.

Ekspertlar qo'mitasiga a'zo har bir mamlakat bir ovozga ega. Ekspertlar qo'mitasi ovoz berishda hozir bo'lgan va qatnashadigan mamlakatlarning oddiy ko'pchilik ovozi bilan o'z qarorlarini qabul qiladi. Tasnifning asosiy tuzilmasi o'zgarishiga olib keluvchi yoki qayta tasniflash bo'yicha katta ishlarni keltirib chiqaruvchi qaror sifatida ovoz berishda mamlakatlarning beshdan bir qismini talab qiladigan istalgan qarorni qabul qilish uchun ovoz berishda hozir bo'lgan va qatnashadigan mamlakatlarning to'rtidan ich qismdan iborat ko'pchilik ovozi talab etiladi.

Mazkur bitim doirasida ta'xis etilgan xalqaro patent tasnifi bo'yicha Maxsus ittifoqning ma'muriy vazifalari Xalqaro byuro tomonidan amalga oshiriladi. Xalqaro byuro quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- xalqaro patent tasnifi masalalari bo'yicha majlislar o'tkazilishini tayyorlaydi;

- BIMT Bosh Assambleyasi, Ekspertlar qo'mitasi kotibiyati, BIMT Bosh Assambleyasi yoki Ekspertlar qo'mitasi tomonidan tashkil etilishi mumkin bo'lgan istalgan boshqa ekspertlar kengashi va ishchi guruhlar kotibiyati funksiyalari va boshqalar.

Konvensiyada xalqaro patent tasnifi masalalari bo'yicha ta'xis etilgan Maxsus ittifoq faoliyatini moliyalashtirish masalalari ham tartibga solingan bo'lib, unga ko'ra mazkur Ittifoq faoliyati quyidagi moliyaviy manbalar asosida moliyalashtiriladi:

- Maxsus ittifoqqa a'zo bo'lgan mamlakatlar tomonidan to'lanadigan a'zolik badallari;

- Xalqaro byuro tomonidan Maxsus ittifoqning faoliyat sohasiga tegishli bo'lgan xizmatlar ko'rsatilganligi uchun yig'imlar va to'lovlar;

- Xalqaro byuroning Maxsus ittifoqqa tegishli bo'lgan materiallarni e'lon qilishdan tushgan daromadlar va bunday e'lon qilish huquqlaridan foydalanishdan tushgan mablag'lar;

- hadyalar, vasiyat qilingan mablag'lar va subsidiyalar;

- rentalar, foizlar va boshqa daromadlar.

Ushbu Bitim imzolash uchun ochiq bo'lgan Xalqaro byuro tomonidan chop etilgan so'nggi har yilgi statistik ma'lumotlarga muvofiq topshirilgan patentga buyurtmanomalar yoki mualliflik guvohnomalari soni 40 mingdan oshgan mamlakat bo'lgan Sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij konvensiyasiga a'zo mamlakatlarning uchdan bir qismi tomondan ratifikasiya yorliqlari va qo'shilish to'g'risidagi hujjatlar saqlash uchun topshirilgandan keyin bir yildan so'ng kuchga kiradi.

Mazkur Bitimni ratifikasiya qilish yoki unga qo'shilish Bitimning barcha qoidalarini o'z-o'zidan qabul qilishga va ushbu Bitimda belgilangan barcha ustuvorliklarga ega bo'lishga

olib keladi. Maxsus ittifoqqa a'zo bo'lgan istalgan mamlakat BIMT Bosh direktoriga yuboriladigan bildirishnoma yo'li bilan ushbu Bitimni denonsatsiya qilishi mumkin. Denonsatsiya Bosh direktor tomonidan denonsatsiya to'g'risida bildirishnoma qabul qilingandan so'ng bir yildan keyin kuchga kiradi.

Xalqaro patent tasnifi to'g'risida Strasburg bitimida nazarda tutilgan me'yorlarni O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligiga implementatsiya qilish masalalariga nazar tashlab, shunga guvoh bo'lish mumkinki, Bitim normalarining aksariyati milliy qonunchilikka implementatsiya qilingan. Lekin shunga qaramasdan shartnomadagi ayrim me'yorlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

8. Sanoat namunalarining xalqaro tasnifini ta'sis etish to'g'risida Lokarno bitimi

Sanoat namunalarining xalqaro tasnifini ta'sis etish to'g'risida Lokarno bitimi 1968 yil 8 oktyabrda Lokarnoda imzolangan.

Sanoat namunalarining xalqaro tasnifini ta'sis etish to'g'risida Lokarno bitimiga bugungi kunda 51 ta mamlakat a'zo xisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida ushbu shartnomaga 2006 yil 19 apreldan boshlab amal qilinib kelinadi.

Mazkur shartnomaning qabul qilinishidan ko'zlangan maqsad sanoat namunalarining xalqaro tasnifi bo'yicha yagona xalqaro huquqiy standartni yaratish, mazkur obektlarning huquqiy muhofazasi sohasida xalqaro huquqiy hamkorlikni rivojlantirishdir.

Shartnoma 15 modda hamda sanoat mulki obektlarining tasnifi ro'yxatidan iborat. Shartnoma sanoat mulki obektlarining xalqaro tasnifi sohasida xalqaro hamkorlik bo'yicha Maxsus ittifoq tuzish, xalqaro tasnifni qabul qilish, xalqaro tasnifning xalqaro va milliy amaliyotda tatbiq etilishi, xalqa-

ro tasnif masalari bo'yicha ta'sis etiladigan ekspertlar guruxi faoliyati, bildirishnoma va tasnifni e'lon qilish hamda unga o'zgartirish kiritish, sanoat namunalarining xalqaro tasnifi sohasida BIMT Bosh Assambleyasi va Xalqaro Byuro vakolatlari, maxsus ittifoq faoliyatini moliyalashtirish masalalari, shartnomaga o'zgartirish kiritish, shartnomaning kuchga kirishi hamda denonsatsiya qilish masalalari sohasidagi davlatlararo xalqaro huquqiy munosaballarni tartibga soladi.

Shartnomaning birinchi moddasiga ko'ra, barcha a'zo davlatlar sanoat mulki obektlarining halqaro huquqiy himoyasi sohasida Maxsus ittifoq tuzishni nazarda tutadilar. Mazkur ittifoqdoirasi a'zo davlatlar sanoat namunalarining yagona tasnifini qabul qiladilar.

Shartnomaga ko'ra, Xalqaro tasnif quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- klasslar va kichik klasslar ro'yxati;
- klasslar va kichik klasslar ko'rsatilgan holda sanoat namunalarining birlashgan tovarlarning alifbo ro'yxati;
- tushuntiruvchi izohlar.

Shartnomaning ikkinchi moddasiga ko'ra, belgilangan majburiyatlarga rioya etish sharti bilan, xalqaro tasnif ma'muriy xususiyatga ega bo'ladi xolos. Biroq shartnomadagi qoidalarni istisno ekan holda har bir a'zo mamlakat tasnifga yuridik mazmun berishi mumkin. Xalqaro tasnif a'zomamlakatlar mamlakatlar hududida yaratilgan sanoat namunalari ni muhofaza qilishning xususiyati va hajmlari borasida a'zo mamlakatlarni bir-biri bilan bog'lab qo'ymaydi. Tovarlarning alifbo tarzidagi ro'yxatiga kiritish uchun nomlarni tanlashda Ekspertlar guruhi mutlaq huquqlar predmeti bo'lishi mumkin bo'lgan nomlardan foydalanishga yo'l qo'ymaydi. Biroq biror-bir terminning alifbo ro'yxatiga kiritilishi ko'rsatib o'tilgan termin mutlaq huquqlarning predmeti hisoblanishi yoki hisoblanmasligi to'g'risidagi masala bo'yicha Ekspertlar qo'mitasining fikri sifatida talqin qilinmaydi.

Shartnoma sanoat namunalarining xalqaro tasnifi masalalari bo'yicha Ekspertlar qo'mitasini ta'xis etishni nazarda tutadi. Shartnoma shu bilan birga Ekspertlar guruhi faoliyati masalalarini o'z ichiga olgan bo'lib, unga ko'ra, Ekspertlar guruhi alifbo tarzidagi tasniflar ro'yxati hamda tushuntiruvchi izohlarni Maxsus ittifoqqa a'zo mamlakatlarning oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qiladi. Ekspertlar guruhining xalqaro tasnifga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qarori esa a'zo davlatlarning oddiy ko'pchilik ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi. Ammo, agar ushbu qarorlar yangi klassni yaratish yoki tovarlarni bir klassdan boshqa klassga ko'chirishga daxldor bo'lsa, a'zo davlatlarning yakdil ovoz berish yo'li qaror qabul qilish talab etiladi. Ekspertlar guruhida ovoz yashirin tartibda beriladi.

Shartnomaning to'rtinchi moddasida sanoat namunalari xalqaro tasnifini elon qilish hamda unga o'zgartirish tartibi yoritib berilgan. Ushbu qoidalarga ko'ra, Ekspertlar guruhi tomonidan qabul qilingan tovarlar ro'yxati va tushuntiruvchi izohlar hamda xalqaro tasnifga kiritilgan istalgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar haqida Xalqaro byuro tomonidan shartnomaga a'zo mamlakatlarning vakolatli organlariga xabar qilinadi. Xabar qilingan vaqtdan boshlab Ekspertlar guruhi qarori kuchga kiradi. Biroq, agar ushbu qarorlar yangi klassni yaratish yoki tovarlarni bir klassdan boshqa klassga ko'chirishga daxldor bo'lsa, ular bildirishnoma yuborilgan kundan boshlab olti oy ichida kuchga kiradi.

Shartnomaga ko'ra, shartnomaning ijro etilishi sohasidagi umumiy masalalar Butunjahon Intellektual Mulk Tashkilotining Bosh Assambleyasi tomonidan muvofiqlashtirilib boriladi.

BIMT Bosh Assambleyasi shartnomaga a'zo bo'lgan har bir mamlakatdan yuborilgan vakillardan iborat. Har bir delegatsiyaning harajatlari uni tayinlangan hukumat tomonidan qoplanadi.

Shartnomaning 5-moddasiga ko'ra, BIMT Bosh Assambleyasi quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- Maxsus ittifoqni saqlash va rivojlantirish masalalarni ko'rib chiqish;
- BIMT Bosh direktori hisoboti va faoliyatini ko'rib chiqish;
- Maxsus ittifoqning uch yillik byudjetini qabul qilish;
- Maxsus ittifoqning moliyaviy reglamentini tasdiqlaydi;
- ekspertlar guruhi va ishchi guruhlarni tashkil etadi;
- shartnomaga kiritiladigan tuzatishlarni tasdiqlash va boshqalar.

Shartnomaning 7-moddasida Maxsus ittifoqning xalqaro tasnif sohasidagi faoliyatini moliyalashtirish masalalari aks ettirilgan bo'lib, unga ko'ra Maxsus ittifoq byudjetga ega. Maxsus ittifoq byudjeti Maxsus ittifoqning daromadlari va harajatlari, Ittifoq uchun umumiy bo'lgan harajatlar byudjetiga kiritiladigan badal hamda zarurat bo'lsa, Tashkilot konferensiyasi byudjetiga ajratmalarni o'z ichiga oladi. Maxsus ittifoq byudjeti quyidagi manbalar orqali moliyalashtiriladi:

- Maxsus ittifoqqa a'zo mamlakatlar tomonidan to'langan badallar;
- Xalqaro byuro tomonidan xizmatlar ko'rsatilganligi uchun yig'imlar va to'lovlar;
- Xalqaro byuroning Maxsus materiallarni e'lon qilishdan tushgan daromadlar;
- hadyalar, vasiyat qilingan mablag'lar va subsidiyalar;
- rentalar, foizlar va boshqa daromadlar.

Shartnomaga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi taklif Maxsus ittifoqqa a'zo bo'lgan istalgan mamlakat yoki Bosh direktor tomonidan kiritilishi mumkin. Bunday takliflar Bosh direktor tomonidan Assambleya ularni ko'rib chiqishidan kamida olti oy avval Maxsus ittifoqqa a'zo mamlakatlarga yuboriladi.

Shartnomani imzolagan Sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij konvensiyasining ishtirokchisi sanalgan is-

talgan mamlakat ratifikasiya qilishi mumkin. Birinchi bo'lib ratifikasiya yorliqlari va qo'shilish to'g'risidagi hujjatlarni saqlash uchun bergan beshta mamlakatga nisbatan ushbu Bitim beshinchi ratifikasiya yorliqlari va qo'shilish to'g'risidagi hujjatlari berilgandan keyin uch oydan so'ng kuchga kiradi.

Istalgan mamlakat Bosh direktorga yuboriladigan bildirishnoma yo'li bilan ushbu Bitimni denonsatsiya qilishi mumkin. Denonsatsiya Bosh direktor tomonidan denonsatsiya to'g'risida bildirishnoma olingandan bir yildan keyin kuchga kiradi.

Sanoat namunalarining xalqaro tasnifini ta'sis etish to'g'risida Lokarno bitimida nazarda tutilgan me'yorlarni O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligiga implementatsiya qilish masalalariga nazar tashlab, shunga guvoh bo'lish mumkinki, Bitim normalarining aksariyati milliy qonunchilikka implementatsiya qilingan. Lekin shunga qaramasdan shartnomadagi ayrim me'yorlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

9. Yangi o'simlik navlari muhofazasi bo'yicha konvensiya (UPOV)

O'simliklarning yangi navlarining huquqiy muhofazasi bo'yicha xalqaro konvensiya o'ziga xos jihati shundaki mazkur Konvensiya o'simliklarning yangi navlarining xalqaro huquqiy himoyasi sohasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi xalqaro huquqiy hujjat bo'lishi bilan birga O'simliklarning yangi navlari himoyasi bo'yicha Xalqaro Ittifoq²⁵ning ta'sis hujjati hamdir.

²⁵ O'simliklarning yangi navlari himoyasi bo'yicha Xalqaro Ittifoq O'simliklarning yangi navlari huquqiy muhofazasi bo'yicha xalqaro konvensiyasi asosida ta'sis etilgan, huquq subektliligi maqomiga ega bo'lgan mustaqil xalqaro hukumatlararo tashkilotdir. Butunjahon Intellektual Mulk Tashkiloti hamda UPOV o'rtasida tizilgan shartnomaga ko'ra, BIMTning Bosh Direktori UPOVning Bosh Kotibi xisoblanadi hamda UPOVga ma'muriy masalalar bo'yicha huquqiy yordam ko'rsatadi

O'simliklarning yangi navlarinig huquqiy muhofazasi bo'yicha xalqaro konvensiya (qisqartirilgan holda UPOV Konvensiyasi deb yuritiladi) 1961 yilda Parijda imzolangan hamda 1972, 1978 hamda 1991 yillarda qayta ko'rib chiqilgan. Konvensiya o'simliklarning yangi navlarini yaratuvchi seleksionerlarga beriladigan xalqaro muhofaza tizimini ta'sis etdi.

Mazkur konvensiyani qabul qilishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad, konvensiyaga a'zo mamlakatlar hududida qishloq ho'jaligini taraqqiy ettirish hamda seleksionerlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun yangi o'simlik navlarining huquqiy himoyasi kafolatlarini yaratish, jamiyat manfaatlari yo'lida yangi o'simlik navi mualliflarining huquqlarini cheklash bilan bog'liq masalalarni bartaraf etish hamda mazkur soha obektlarining huquqiy himoyasi sohasida yagona xalqaro tizimni yaratishdir.

Konvensiya bugungi 68 ta mamlakat a'zo xisoblanib, unga ohirgi bo'lib, Ummon 2009 yil 22 noyabrda a'zo bo'lib kirdi. O'zbekiston Respublikasi 2004 yil 14 noyabrdan UPOV konvensiyasiga a'zo bo'ldi.

UPOV konvensiyasi 41 ta moddadan iborat bo'lib, u yangi o'simlik navlari himoyasi sohasida Maxsus ittifoq ta'sis etish, seleksioner va uning huquqiy vorislarining huquqlari kafolatlari, yangi o'simlik navi huquqiy himoya taqdim etish uchun qo'yiladigan talablar, yangi o'simlik navi taqdim etiladigan huquqiy muxofaza hajmi va muddati, seleksioner va uning vorislari huquqlarini cheklash asoslari, seleksioner huquqlarini bekor qilish asoslari, ustuvorlik huquqi va sohaga doir boshqa masalalarda yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarni tartib soladi.

Konvensiyaning asosiy qoidalarini uchta toifaga bo'lish mumkin, bular: milliy rejim tamoyili, ustuvorlik huquqi, umumiy qoidalar. Konvensiya O'simliklarning yangi navlarini huquqiy muhofazasi bo'yicha xalqaro ittifoq (UPOV) tomonidan Butunjahon intellektual mulk tashkiloti bilan birgalikda boshqariladi.

O‘simliklarning yangi navlarini huquqiy muhofazasi bo‘yicha xalqaro ittifoq (UPOV) byurosi a‘zo-davlatlarga uslubiy yordam tariqasida o‘simlik navlariga sinovlar o‘tkazish qo‘llanmalarini ishlab chiqadi va tarqatadi. Uslubiy qo‘llanmalarining matnlari UPOV byurosining veb-sayti (www.upov.int) da berib boriladi.

UPOV Konvensiyasida ishtirok etish a‘zo-davlatlar tomonidan tegishli xalqaro majburiyatlarni bajarishni ya‘ni uning me‘yorlarini bajarishni talab etadi. Xususan, konvensiyaning 3-moddasida har bir a‘zo-davlat konvensiyaga qo‘shilgan sanasidan boshlab 10 yil ichida shu davlatda seleksiya ishlari olib boriladigan barcha o‘simlik turlariga nisbatan ushbu konvensiya qoidalarini qo‘llashi shartligi belgilab qo‘yilgan.

Konvensiyaning 14-41-moddalari mazkur Konvensiya qoidalarining ijro etilishi masalalari bo‘yicha yuzaga keladigan ma‘muriy masalalarni tartibga soladi.

Seleksiya yutuqlariga huquqiy muhofazani ta‘minlashda asosiy me‘yoriy hujjatlardan biri O‘zbekiston Respublikasida muhofaza qilinadigan o‘simliklar navi va hayvonlar zotining botanik va zoologik oila turkumlari hamda turlarining davlat ro‘yxatidir. Mazkur davlat ro‘yxati Davlat patent idorasi va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar bilan kelishilgan holda Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan tasdiqlangan. Hozirda, bu ro‘yxatga 41 ta o‘simliklar navi va 20 ta hayvonlar zoti turlari kiritilgan.

Konvensiyaning 3-moddasi shartlarini bajarish uchun O‘zbekiston Respublikasida muhofaza qilinadigan o‘simliklar navlarining botanik oila turkumlari hamda turlarining davlat ro‘yxatini kengaytirish va 2014 yilgacha mamlakatimizda ekiladigan va seleksiya ishlari olib boriladigan barcha o‘simlik turlarini ushbu davlat ro‘yxatiga kiritishni ta‘minlash respublikamiz mutaxassislari oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish xalq farovonligini oshi-

rishning asosiy omili hisoblanadi. Xususan, g'allachilik va paxtachilik sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada chuqurlashtirish, yangi, raqobatbardoshli, respublikamizning tabiiy-iqlim sharoitlariga javob beradigan tezpishar, qurg'ochilikka, kasalliklarga chidamli navlarini yaratish masalasi muhim o'rin egallaydi.

Yangi yaratilgan seleksiya yutuqlarining huquqiy muhofazasini ta'minlash va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni belgilash O'zbekiston Respublikasi "Seleksiya yutuqlari to'g'risida"gi 1996 yilda qabul qilingan maxsus Qonuniga va shu sohadagi xalqaro kelishuv O'simliklarning yangi navlarini huquqiy muhofazasi bo'yicha xalqaro konvensiyasiga asosan amalga oshiriladi. Ushbu Qonunga bir necha marta o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan bo'lib, hozirda 2002 yilda qabul qilingan tahriri amal qilmoqda. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining "Intellectual mulk" bo'limidagi tegishli (1091-1094) moddalar ham, seleksiya yutuqlarining huquqiy muhofazasiga bag'ishlanadi.

Qonunga muvofiq, o'simliklarning yangi navlari va hayvonlarning yangi zotlari seleksiya yutuqlariga kiradi.

"Seleksiya yutuqlari to'g'risidagi" Qonunga ko'ra, o'simlik navi - nasldan-naslga barqaror ravishda o'tuvchi belgilari bilan ajralib turuvchi o'simliklar guruhi bo'lib, klon, liniya, birinchi avlod duragayi, populyatsiya navning muhofaza qilindigan ob'ektlariga kiradi.

Hayvonlar zoti esa genetik jihatdan belgilangan biologik va morfologik xususiyatlar, hamda belgilariga ega bo'lgan hayvonlar, qushlar, hasharotlar, ipak qurti zotlaridir. Zot guruhi, zot ichidagi tip (zonal tip), zavod tipi, zavod liniyasi, zot oilasi, partenoklonlar, liniyalar, duragaylar zotning muhofaza qilinadigan ob'ektlaridir.

O'zbekiston Respublikasida muhofaza qilinadigan botanik va zoologik oila turkumlari, hamda turlarga taalluqli bo'lib, patentga layoqatlilik mezonlariga javob beradigan seleksiya yutug'iga

patent beriladi. Seleksiya yutug'ining patenti uning yangiligini, farqlanishini, turdoshligi va barqarorligini, shuningdek patent egasining seleksiya yutug'ining nomi, seleksiya yutug'iga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etishga bo'lgan huquqini tasdiqlaydi. Patentning amal qilish muddati seleksiya yutug'i tegishli reestrda ro'yxatga olingan sanadan e'tiboran 20 yilga teng. Tok, yog'ochbop, manzarali, mevali daraxtlar va o'rmon daraxtlarining navlari, shu jumladan ularning payvandtaglari uchun bu muddat yigirma besh yilni tashkil etadi.

"Seleksiya yutuqlari to'g'risidagi" Qonunning 4 moddasiga muvofiq seleksiya yutuqlariga huquqiy muhofaza ta'minlash bo'yicha olib boriladigan ishlarda O'zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasi va Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining ixtisoslashtirilgan tashkilotlari ya'ni Qishloq xo'jalik ekinlari navlarini sinash davlat komissiyasi va Chorvachilikdagi naslchilik ishlari bo'yicha bosh davlat inspeksiyasi ishtirok etadi.

Qonunga muvofiq Patent idorasi seleksiya yutug'iga patent berish haqidagi talabnomalarni qabul qilib oladi, rasmiy ekspertizani o'tkazadi, O'simlik navlari davlat reestrini va Hayvon zotlari davlat reestrini yuritadi, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olinib, muhofaza qilinayotgan seleksiya yutuqlari haqidagi ma'lumotlarni rasmiy nashrida e'lon qiladi; muhofaza hujjatlari - patentlarni beradi.

Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining ixtisoslashtirilgan tashkilotlari seleksiya yutuqlarining patentga layoqatlilik ekspertizasini o'tkazadi, bunda patentga layoqatlilik ekspertizasi mazkur seleksiya yutug'i yangi ekanligini tekshirish hamda farqlanish, turdoshlik va barqarorlik mezonlariga mosligini aniqlash maqsadida o'tkaziladigan sinovlardan iboratdir. Seleksiya yutuqlarining farqlanish, turdoshlik va barqarorlikka mosligini aniqlash sinovlari Ixtisoslashtirilgan tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan uslubiy qo'llanmalar asosida davlat nav sinash stansiyalarida, davlat nav sinash uchastkalarida, boshqa tashkilotlarda o'tkaziladi.

10. Patent jarayoni maqsadlarida mikroorganizmlar deponenlarini xalqaro tan olish to'g'risida Budapesht bitimi

Patent jarayoni maqsadlarida mikroorganizmlar deponenlarini xalqaro tan olish to'g'risida Budapesht bitimi 1977 yil aprelda qabul qilingan. Patent jarayoni maqsadlarida mikroorganizmlar deponenlarini xalqaro tan olish to'g'risida Budapesht bitimiga bugungi kunda 73 ta mamlakat a'zo hisoblanadi. Mazkur shartnomaga oxirigi bo'lib Luksemburg Qirolligi 2010 yil 29 iyulda qo'shildi. O'zbekiston Respublikasida ushbu shartnomaga 2002 yil 12 yanvardan boshlab amal qilinib kelinadi.

Mazkur shartnomaning qabul qilinishidan ko'zlangan maqsad patent jarayoni maqsadlarida mikroorganizmlar deponenlarini xalqaro tan olish bo'yicha yagona xalqaro tizim yaratish hamda mikroorganizmlar deponenlarini xalqaro tan olish sohasida kelib chiqadigan davlatlararo xalqaro huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi xalqaro standartlarni ishlab chiqishdir.

Shartnoma kirish, 4 ta bob, 20 ta modda iboratdir. Shartnoma mikroorganizmlar deponenlarini xalqaro tan olish sohasida Maxsus Ittifoq ta'asis etish, mikroorganizmlar deponenlarini tan olish va uning yuridik oqibatlari, qayta deponenlash, eksport va import bo'yicha cheklovlar, xalqaro deponenlash organining huquqiy maqomi, xalqaro deponenlash organining huquqiy maqomini tugatish va cheklash, shartnomaning ijro etilishi bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy xatti-harakatlar hamda shartnomaning kuchga kirishi, o'zgartirish va denononsatsiya qilish masalalari sohasidagi davlatlararo xalqaro huquqiy munosabatlarni tartibga soladi.

Mazkur shartnomaning birinchi moddasiga ko'ra, shartnomaga a'zo mamlakatlar mikroorganizmlar deponenlarini tan olish sohasida samarali xalqaro hamkorlik menizmlarini

shakllantirish maqsadi Maxsus Ittifoq tuzishni nazarda tutadilar.

Sharnomaning birinchi bobi “Moddiy-huquqiy qoidalar” deb nomlanib, mikroorganizmlar deponenlarini tan olish va uning yuridik oqibatlari, qayta deponenlash, eksport va import bo‘yicha cheklovlar, xalqaro deponenlash organining huquqiy maqomi, xalqaro deponenlash organining xuquqiy maqomini tugatish va cheklash masalalari bo‘yicha huquqiy munosabatlarni tartibga soladi.

Shartnomaning 3-moddasiga ko‘ra, shartnomaga a‘zo mamlakatlar istalgan xalqaro deponenlash organining deponenlarini tan oladi. Bunday tan olish o‘zida xalqaro deponenlash organi tomonidan ko‘rsatilgan deponenlash sanalari va faktlar hamda namuna sifatida mikroorganizm deponeni namunasini tan olishni aks ettiradi. Ushbu holatda shartnomaga a‘zo bo‘lgan davlat xalqaro deponenlash organi tomonidan berilgan hujjatlarini taqdim etilishini talab qilishi mumkin.

Shartnomaning to‘rtinchi moddasi mikroorganizmlarni qayta deponenlash masalalarini tartibga soladi. Unga ko‘ra, qayta deponenlash quyidagi holatlarda amalga oshiriladi:

agar bunday mikroorganizm yashovchi hisoblanmasa;

agar namunalarni namunalarni chet elga topshirish talab qilsa hamda ushbu namunani eksport yoki import cheklovi asosida olishning imkoni bo‘lmasa.

Bunday holatda mikroorganizmni qaytadan deponenlash talab etiladi. Qayta deponenlash mikroorganizm ro‘yxatga olingan xalqaro deponenlash organida amalga oshiriladi. Barcha qayda deponenlashda depozitor tomonidan yozilgan qayta deponenlanayotgan mikroorganizm birinchi marta deponenlangan mikroorganizm ekanligini tasdiqlovchi ariza qo‘shib qo‘yiladi.

Shartnomaning beshinchi moddasi eksport va import sohasidagi cheklovlar masalalarini tartibga soluvchi qoidalardan iborat bo‘lib, unga ko‘ra, shartnomaga a‘zo barcha dav-

latlar iomonidan deponenlangan yoki deponenlashga mo'ljallangan mikroorganizmlarning eksport yoki import qilinishi milliy xavfsizlik, inson sog'ligi va atrof muhitga xavf keltirib chiqarsa, muayyan cheklovlarga yo'l qo'yilishi tan olinadi.

Shartnomaning oltinchi moddasida xalqaro deponenlash organining huquqiy maqomi belgilab berilgan bo'lib, unga ko'ra deponenlash organi huquqiy maqomini olishi uchun tashkilot tegishli shartnomaga a'zo davlat hududida joylashgan bo'lishi hamda davlat tomonidan mazkur tashkilotning deponenlash faoliyatini olib borish uchun ruxsatnoma berilishi lozim. Mazkur ruxsatnoma sanoat mulki bo'yicha hukumatlararo tashkilot tomonidan ham taqdim etilishi mumkin. Bunday holatda deponenlash bo'yicha muassasa ushbu tashkilotga a'zo bo'lgan mamlakat hududida joylashgan bo'lishi kerak.

Deponenlash bo'yicha muassasa joylashgan shartnomaga a'zo mamlakat tomonidan BIMT Bosh direktoriga yozma ravishda habar yuborganidan so'ngina deponenlash bo'yicha idora xalqaro deponenlash organi huquqiy maqomiga ega bo'ladi. Bunda xabar yuborayotgan davlat mazkur deponenlash bo'yicha idora faoliyatining shartnoma talablariga asosan amalga oshirilishini tasdiqlovchi deklaratsiyani ham taqdim etadi. Ko'rsatib o'tilgan huquqiy maqom intellektual mulk bo'yicha hukumatlararo tashkilotning BIMT Bosh direktoriga yozma ravishdagi xabar hamda deklaratsiyani taqdim etishi orqali ham yuzaga kelishi mumkin.

Shartnomaning sakkizinchi moddasida xalqaro deponenlash organi maqomini cheklash va bekor qilish tartibi belgilab berilgan bo'lib, unga ko'ra, istalgan shartnomaga a'zo davlat yoki intellektual mulk bo'yicha hukumatlararo tashkilot shartnomada belgilangan qoidalarni buzganligini vaj qilib xalqaro deponenlash organining maqomini cheklash yoki umuman tugatishni so'rab Assambleyaga murojat qilishi mumkin.

Shartnomaning ijro etilishi bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy masalalar hamda shartnoma bo'yicha BIMT Bosh Assambleyasi hamda Xalqaro Byuro faoliyati bilan bog'liq bo'lgan huquqiy masalalar mazkur shartnomaning 10 (BIMT Bosh Assambleyasi), 11 (Xalqaro Byuro)-moddalarida asosida tartibga solinadi.

Shartnomaning o'n uchinchi moddasiga ko'ra, mazkur shartnoma a'zo mamlakatlarning konferensiyasida qayta ko'rib chiqilishi mumkin. Shartnomani qayta ko'rib chiqish bo'yicha konferensiya Bosh Assambleya tomonidan chaqiriladi.

Shartnomaga o'ro'artirish va qo'shimchalar kiritish masalalari mazkur shartnomaning 14 moddasida belgilab berilgan bo'lib, unga ko'ra, shartnoma moddalariga o'zgartirish kiritish taklifi bilan shartnomaga a'zo bo'lgan istalgan davlat yoki BIMT Bosh direktori chiqishi mumkin. Bunday taklif a'zo mamlakatlarga masala Bosh Assambleyada ko'rib chiqilishidan 6 oy oldin yuborilishi lozim.

Sanoat mulkini himoya qilish to'g'risidagi Parij konvensiyaga a'zo bo'lgan istalgan davlat mazkur shartnomaga a'zo bo'lishi mumkin.

Mazkur shartnoma shartnomani imzolangan dastlabki beshita davlat ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish aktini saqlash uchun topshirganidan 3 oy keyin kuchga kiradi. Istalgan axdlashayotgan davlat BIMT Bosh direktorini yozma ravishda xabardor qilish yo'li bilan denonsatsiya qilishi mumkin. Bunda denonsatsiya BIMT Bosh direktor ushbu xabarnomani olganidan 2 yil keyin kuchga kiradi.

Patent jarayoni maqsadlarida mikroorganizmlar deponenlarini xalqaro tan olish to'g'risida Budapesht bitimida nazarda tutilgan me'yorlarni O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligiga implementatsiya qilish masalalariga nazar tashlab, shunga guvoh bo'lish mumkinki, Bitim normalarining aksariyati milliy qonunchilikka implementatsiya qilingan. Lekin shunga qaramasdan shartnomadagi ayrim me'yorlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

ILOVALAR

**INTELLEKTUAL MULK HUQUQIGA OID ATAMALAR
(GLOSSARIY)**

Asar nusxasi - asarning har qanday moddiy shaklda tayyorlangan ko'chirmasi;

Asarni omma oldida namoyish etish - asarning asl nusxasi yoki nusxasini bevosita yoxud plynka, diapozitiv, televizion kadr yordamida yoki biron-bir boshqa texnika vositalari orqali ekranda ko'rsatish, shuningdek audiovizual asarning ayrim kadrlarini ularning ketma-ketligiga rioya etmasdan omma uchun ochiq joyda yoki ayni bir oila a'zolari bo'lmagan shaxslarning keng doirasi hozir bo'lgan joyda ko'rsatish;

Asarni oshkor qilish - muallifning roziligi bilan amalga oshirilgan, asarni chop etish, omma oldida namoyish etish, omma oldida ijro etish, efirga uzatish yoki boshqacha usulda yuborish yo'li bilan ilk bor asardan barchaning voqif bo'lishi uchun imkon beradigan harakat;

Audiovizual asar - bir-biri bilan bog'langan (ovoz jo'rli-gida yoki ovoz jo'rligisiz) tasvirlarning yozib olingan turku-midan iborat bo'lgan, tegishli texnika vositalari yordamida ko'rib va eshitib (ovoz jo'rligida bo'lganida) idrok etish uchun mo'ljallangan asar, shu jumladan dastlabki yoki keyingi qayd etish usulidan qat'i nazar, kinematografiya asarlari va kinematografiyanikiga o'xshash vositalar bilan ifodalangan barcha asarlar (tele- va videofilmlar, diafilmlar, slaydfilmlar hamda boshqa asarlar);

Audiovizual asarni tayyorlovchi - shunday asarni tayyorlash tashabbusi va mas'uliyatini o'z zimmasiga olgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

Barchaning e'tiboriga yetkazish - asarlarni yoki tur-dosh huquqlar ob'ektlarini simlar yoki simsiz aloqa vosita-

lari orqali telekommunikatsiya tizimlaridan foydalanuvchilar o'z tanloviga ko'ra istalgan joyda va istalgan vaqtda ulardan foydalana olishi mumkin bo'lgan tarzda barchaning e'tibori uchun yuborish;

Barchaning e'tibori uchun yuborish - asarlarni yoki turdosh huquqlar ob'ektlarini efirga uzatish, kabel orqali yuborish, shuningdek ularni yuborish joyida vakillari bo'lmagan omma eshitib va (yoki) ko'rib idrok etishi uchun, shu tarzda eshitish yoki ko'rish mumkin bo'lgan asarlar yoki turdosh huquqlar ob'ektlari amalda idrok etilishi-etilmasligidan qat'i nazar, har qanday boshqacha usullarda yetkazish (nusxalarni tarqatish bundan mustasno);

"Brend" - (inglizcha "brand - tamg'a, chorva, otlarni tamg'alash) tan olingan tovar belgisi.

Yozuv - ovozlari va (yoki) tasvirlarni qayta-qayta idrok etish, takrorlash yoki yuborish imkonini beradigan biron-bir moddiy shaklda texnika vositalari yordamida qayd etish;

Ijro - asarni (shu jumladan xalq ijodiyoti asarini), fonogrammani, ijroni, sahna asarini o'yin, ifodali o'qish, kuylash, raqsga tushish orqali jonli ijro yoki texnika vositalari yordamida taqdim etish;

Ijrochi - aktyor, xonanda, sozanda, raqqos yoki rol o'ynaydigan, kuylaydigan, o'qiydigan, ifodali o'qiydigan, raqsga tushadigan, talqin etadigan, musiqa asbobini chaladigan yoxud adabiyot yoki san'at asarini (shu jumladan xalq ijodiyoti asarini) o'z gacha tarzda ijro etadigan boshqa jismoniy shaxs, shuningdek spektaklning sahnalashtiruvchi rejissyori va dirijor;

Kabel orqali yuborish - asarlarni yoki turdosh huquqlar ob'ektlarini kabel, sim yoki shunga o'xshash vositalar yordamida barchaning e'tibori uchun yuborish;

Manzarali-amaliy san'at asari - asl nusxalari yoki nusxalari amalda foydalanish ashyolari sifatida qo'llaniladigan yoki ana shunday ashyolarga ko'chirilgan ikki o'lchovli yoki uch

o'lchovli san'at asari, shu jumladan badiiy hunarmandchilik asari yoki sanoat usulida tayyorlangan asar;

Ma'lumotlar bazasi - ob'ektiv shaklda ifodalangan va elektron hisoblash mashinalari (bundan buyon matnda EHM deb yuritiladi) yordamida topish hamda ishlov berish mumkin bo'ladigan tarzda bir tizimga solingan ma'lumotlar (maqolalar, hisob-kitoblar va shu kabilar) majmui;

Muallif - ijodiy mehnati bilan asar yaratgan jismoniy shaxs;

Omma oldida ijro etish - asarlarni yoki turdosh huquqlar ob'ektlarini ijro etish yoki ma'lum qilishning har qanday boshqa shakli vositasida, bevosita yoki texnika vositalari yordamida, omma uchun ochiq joyda yoki ayni bir oila a'zolari bo'lmagan shaxslarning keng doirasi hozir bo'lgan joyda eshitib va (yoki) ko'rib idrok etish uchun yetkazish;

Prokatga berish - asarlarning asl nusxasini yoki nusxalarini yoxud turdosh huquqlar ob'ektlarini daromad olish maqsadida vaqtinchalik foydalanish uchun berish;

Reprografik takrorlash - fotoko'chirmasini olish yo'li bilan yoki boshqa texnika vositalari yordamida yozma va boshqa asarlarning asl nusxalarini yoki ularning ko'chirmalarini bir yoki undan ko'p nusxada, har qanday o'lchamda va shaklda faksimil takrorlash, tasviriy san'at asarlari reproduksiyalarini bosmaxona usullaridan foydalangan holda tayyorlash hollari bundan mustasno. Reprografik takrorlash mazkur ko'chirmalarni raqamli shaklda saqlash yoki ko'paytirishni o'z ichiga olmaydi, reprografik takrorlash uchun foydalaniladigan texnika vositalarining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq muvaqqat ko'chirma nusxalar yaratish hollari bundan mustasno;

Retranslyatsiya - efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi bir tashkilotning ko'rsatuv yoki eshittirishini efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi boshqa tashkilot tomonidan bir vaqtda efirga uzatish yoki kabel orqali yuborish;

Takrorlash - asarlarning yoki turdosh huquqlar ob'ektlarining yoxud ulardan bir qismining har qanday usulda va har qanday moddiy shaklda bir yoki undan ko'p nusxalarini tayyorlash, shu jumladan ikki o'lchovli asarning bir yoxud undan ko'p nusxalarini uch o'lchovda hamda uch o'lchovli asarning bir yoki undan ko'p nusxalarini ikki o'lchovda tayyorlash, EHM va boshqa elektron qurilmalar xotirasiga yozib olish;

Fonogramma - biron-bir ijroning, boshqa ovozlarning har qanday mutlaqo ovoqli yozuvi, audiovizual asarga kiritilgan ovoqli yozuv bundan mustasno;

Fonogramma nusxasi - har qanday moddiy jismdagi, fonogrammadan bevosita yoki bilvosita tayyorlangan va shu fonogrammada qayd etilgan ovozlarning hammasini yoxud bir qismini qamrab olgan fonogramma ko'chirmasi;

Fonogrammani tayyorlovchi - ijroning yoki boshqa ovozlarning birinchi ovoqli yozuvi uchun tashabbus va mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

Xalq ijodiyoti asarlari - aniq muallifi bo'lmagan ertaklar, qo'shiqlar, raqslar, manzarali-amaliy san'at asarlari hamda badiiy va havaskorlik xalq ijodiyotining boshqa natijalari;

Chop etish - asarning, ijro yozuvining yoki fonogrammaning xususiyatidan kelib chiqqan holda ommaning oqilona ehtiyojlarini qondirish uchun yetarlicha miqdorda asarning, ijro yozuvining yoki fonogrammaning nusxalarini asar muallifining, ijrochining yoki fonogrammani tayyorlovchining roziligi bilan muomalaga chiqarish;

Efirga uzatish - asarlarni yoki turdosh huquqlar ob'ektlarini radio yoki televidenie, shu jumladan sun'iy yo'ldoshlar (kabel televideniesi bundan mustasno) orqali uzatish vositasida barchaning e'tibori uchun yuborish. Asarlarni yoki turdosh huquqlar ob'ektlarini sun'iy yo'ldosh orqali efirga uzatish deganda signallarni yerdagi stansiyadan sun'iy yo'ldoshga qabul qilish va sun'iy yo'ldoshdan signallarni uzatish tushuniladi, ular vositasida asar yoki turdosh huquqlar

ob'ektlari, ularni omma amalda qabul qilishidan qat'i nazar, barchaning e'tiboriga yetkazilishi mumkin;

Efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilot - efirga uzatish yoki kabel orqali yuborish uchun tashabbus va mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan hamda ularni belgilangan tartibda amalga oshiruvchi shaxs;

Efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotning ko'rsatuvi yoki eshittirishi - efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotning o'zi tomonidan, shuningdek uning buyurtmasi bo'yicha va uning mablag'lari hisobiga boshqa tashkilot tomonidan yaratilgan ko'rsatuv yoki eshittirish;

Huquq egasi - mualliflik huquqiga nisbatan muallif yoki uning merosxo'rlari, turdosh huquqlarga nisbatan ijrochi yoki uning merosxo'rlari, fonogrammani tayyorlovchi, efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilot, shuningdek shartnomada yoki ushbu Qonunda nazarda tutilgan boshqa asos bo'yicha asarlardan yoxud turdosh huquqlar ob'ektlaridan foydalanish huquqini olgan boshqa yuridik yoki jismoniy shaxslar.

Tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisi. Tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisi bu bir yuridik va jismoniy shaxslar tovarlari va xizmatlarini (bundan buyon matnda tovarlar deb yuritiladi) boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning shu turdagi tovarlaridan farqlash uchun xizmat qiladigan, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan belgilardir.

Tovar kelib chiqqan joy nomi. Mamlakat, aholi punkti, joy yoki boshqa jo'g'rofiy ob'ektning tovarni belgilash uchun ishlatiladigan, uning alohida xususiyatlari tamomila yoki asosan mazkur jo'g'rofiy ob'ektga xos tabiiy sharoitlar bilan yoki boshqa omillar yoxud tabiiy sharoitlar va ushbu omillarning birikmasi bilan belgilanadigan nomi tovar kelib chiqqan joy nomi deb e'tirof etiladi.

Tovar belgisidan foydalanish. Tovar belgisi uni ishlatish

uchun ro'yxatga olingan tovarlarda va (yoki) ularning idishi hamda o'rovida tovar belgisining egasi tomonidan litsenziya shartnomasi asosida bunday huquq berilgan shaxs tomonidan qo'llanilishi tovar belgisidan foydalanish deb hisoblanadi.

Ogohlantiruvchi tamg'alash. Tovar belgisining egasi yoki tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqi to'g'risidagi guvohnomaning egasi tovar belgisi yoki tovar kelib chiqqan joy nomi bilan bir qatorda tovarda yoki uning idishi hamda o'rovida qo'llanilgan belgi O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan tovar belgisi yoki tovar kelib chiqqan joy nomi ekanligini bildiruvchi lotin alifbosidagi «R» yoki aylana ichiga olingan «R» harfi tarzida ogohlantiruvchi tamg'a qo'yilishiga aytiladi

Hammaga ma'lum tovar belgisi. O'zbekiston Respublikasi hududida ro'yxatdan o'tkazish asosida muhofaza qilinadigan tovar belgisi, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasiga muvofiq hududimizda ro'yxatdan o'tkazilmay ham muhofaza qilinadigan tovar belgisi.

Patent vakillari. Patent vakili yuridik va jismoniy shaxslarning vakillik huquqini amalga oshiradi. O'z mamlakati hududida doimiy yashovchi O'zbekiston Respublikasi fuqarosi patent vakili bo'lishi mumkin. Patent vakillariga qo'yiladigan malaka talablari, ularni attestatsiyadan va ro'yxatdan o'tkazish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Intellektual mulk Agentligida ro'yxatdan o'tgan patent vakillari IM ob'ektlarini ro'yxatdan o'tkazish ishlarini yuritishni hamda bu ishlar bilan bog'liq yuridik ahamiyatga molik harakatlarni amalga oshiradilar. Patent vakilining vakolatlari ishonchnoma bilan tasdiqlanadi.

Zot - genetik jihatdan o'zaro bog'liq biologik va morfologik xususiyatlari hamda belgilariga qarab aniqlanadigan hayvonlar (shu jumladan parrandalar, hasharotlar, ipak qurti) yoki ularning duragaylari guruhi bo'lib, bu xususiyatlar hamda belgilarning ayrimlari aynan shu guruhga xos bo'ladi va

uni hayvonlarning boshqa guruhlaridan farqlab turadi. Zot guruhi, zot ichidagi (zonal) tip, zavod tipi, zavod liniyasi, zot oilasi, partenoklonlar, liniyalar, duragaylar zotning muhofaza qilinadigan ob'ektlaridir;

Ish beruvchi - seleksiya yutug'ini yaratish to'g'risida topshiriq bergan va bu topshiriq bajarilishini moliyalashtirayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

Litsenziar - seleksiya yutug'idan foydalanish huquqini litsenziatga litsenziya shartnomasi asosida beruvchi patent egasi;

Litsenziat - seleksiya yutug'idan foydalanish huquqini litsenziardan litsenziya shartnomasi asosida olgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

Nav - o'simliklar guruhi bo'lib, u nasldan naslga barqaror o'tuvchi, muayyan genotip yoki genotiplar kombinatsiyasini boshqalaridan ajratib turuvchi belgilarga qarab aniqlanadi va ayni bir botanik taksondagi boshqa o'simliklar guruhidan bir yoki bir necha belgilari bilan farqlanadi. Klon, liniya, birinchi avlod duragayi, populyatsiya navning muhofaza qilinadigan ob'ektlaridir;

Patent egasi - seleksiya yutug'iga berilgan patentning egasi;

Seleksiya yutug'i - o'simliklarning yangi navi, hayvonlarning yangi zoti;

Talabnoma beruvchi - seleksiya yutug'iga patent berish haqida talabnoma topshirgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

Integral mikrosxema - elektron vazifalarni bajarishga mo'ljallangan tugal yoki oraliq shakldagi mikroelektron buyum bo'lib, undagi elementlarning hech bo'lmaganda biri faol hisoblanadi, buyumdagi bog'lanishlarning ayrimlari yoki barchasi bu buyum tayyorlangan jismlar tarkibida va (yoki) sirtida uzviy shakl topgan bo'ladi;

Integral mikrosxema topologiyasi - integral mikrosxema elementlarining va ular o'rtasidagi bog'lanishlar majmui-

ning moddiy jismda qayd etilgan fazoviy-geometrik joylashuvi;

Ma'lumotlar bazasi - ob'ektiv shaklda ifodalangan hamda elektron hisoblash mashinalari (EHM) yordamida topish va ishlov berish mumkin bo'ladigan tarzda bir tizimga solingan ma'lumotlar (masalan: maqolalar, hisob-kitoblar) majmui;

Nou-xau - ishlab chiqarish siri hisoblangan, egasi bu ma'lumotlarni uchinchi shaxslar tomonidan noqonuniy ishlatilishidan himoya qilish huquqiga ega bo'lgan, himoyalovchi hujjatlar (masalan, patentlar) bilan muhofazalanmagan va to'liq yoki qisman nashr qilinmagan texnik, tashkiliy yoki tijorat ma'lumotlari. Bular xo'jalik faoliyati jarayonida foyda keltiradigan yangi texnologiya, texnik yoki boshqa yechimlar, bilim, tajriba bo'lishi mumkin.

EHM uchun yaratilgan dastur - muayyan natija olish maqsadida EHM, EHM shoxobchalari va boshqa kompyuter vositalarining ishlashi uchun mo'ljallangan ma'lumotlar va ko'rsatmalar majmui;

boshlang'ich matn - birorta dasturlash tilida yozilgan, biron-bir kompilyator qayta ishlamagan matn;

ob'ekt kodi - boshlang'ich matnning mashina kodiga aylantirilishi natijasida yuzaga kelgan dastur;

EHM uchun yaratilgan dasturni dekomplyatsiya qilish - EHM uchun yaratilgan dasturning tarkibiy tuzilishi va kodlanishini o'rganish maqsadida ob'ekt kodini boshlang'ich matnga aylantirishni o'z ichiga oladigan texnikaviy usul;

EHM uchun yaratilgan dastur yoki ma'lumotlar bazasining adaptatsiyasi - yuzaga kelgan muayyan sharoitda EHM uchun yaratilgan dastur yoki ma'lumotlar bazasining ishlashini ta'minlash maqsadidagina amalga oshiriladigan hamda (dekomplyatsiya qilish oqibatida) muallifning boshlang'ich matni o'zgarishiga olib kelmaydigan qo'shimchalar kiritish;

EHM uchun yaratilgan dastur yoki ma'lumotlar bazasini modifikatsiyalash (qayta ishlash) - ularni adaptatsiya

deb hisoblanmaydigan va boshlang'ich matn o'zgarishiga olib keladigan har qanday tarzda o'zgartirish;

EHM uchun yaratilgan dastur yoki ma'lumotlar bazasidan nusxa olish - EHM uchun yaratilgan dastur yoki ma'lumotlar bazasini har qanday moddiy shaklda bitta yoki ko'proq nusxada tayyorlash hamda ularni EHMning xotirasiga yozish;

EHM uchun yaratilgan dastur yoki ma'lumotlar bazasini tarqatish - EHM uchun yaratilgan dastur yoki ma'lumotlar bazasining har qanday moddiy shaklda, shu jumladan, tarmoqlar vositasida va boshqa usullar yordamida, shuningdek sotish, prokatga berish, ijaraga topshirish, qarzga berib turish, jumladan ushbu maqsadlarning istalgani uchun import qilish yo'li bilan olingan nusxalaridan foydalanishni ta'minlash;

EHM uchun yaratilgan dastur yoki ma'lumotlar bazasini bosib chiqarish (e'lon qilish) - EHM uchun yaratilgan dastur yoki ma'lumotlar bazasining nusxalarini muallifning roziligi bilan nomuayyan shaxslar doirasiga berish (shu jumladan, EHM xotirasiga yozish va bosma matn chiqarish yo'li bilan berish);

EHM uchun yaratilgan dastur yoki ma'lumotlar bazasidan foydalanish - ularni bosib chiqarish, ulardan nusxa olish, ularni tarqatish hamda xo'jalik muomalasiga (jumladan, modifikatsiyalashtirilgan shaklda) kiritish yuzasidan boshqa harakatlarni amalga oshirish. EHM uchun yaratilgan dastur yoki ma'lumotlar bazasining bosib chiqarilganligi to'g'risidagi xabarlarini ommaviy axborot vositalarining ma'lum qilishi EHM uchun yaratilgan dastur yoki ma'lumotlar bazasidan foydalanish deb e'tirof qilinmaydi.

Huquq egalari - muallif, uning merosxo'rlari, shuningdek qonun yoki shartnoma asosida mutlaq shaxsiy va mulkiy huquqlarga ega bo'lgan har qanday jismoniy yoki yuridik shaxslar.

INTELLEKTUAL MULK HUQUQI RIVOJLANISH TARIXIDAN LAVHALAR

Jahonda ilk patent qonuni “Monopoliyalar maqomi to‘g‘risida” nomi ostida 1623 yilda Angliyada qabul qilingan edi. Keyinchalik, patent to‘g‘risidagi qonunlar 1790 yilda AQSh-da, 1791 yilda Fransiyada qabul qilindi. XIX asrning o‘rtalariga kelib, patent to‘g‘risidagi qonunchilik ko‘pchilik Yevropa mamlakatlarida qabul kilindi.

Rossiyada ixtirolar, badiiy va hunarmandchilik sohasiga beriladigan imtiyozlar haqidagi birinchi qonun 1812 yilda qabul qilingan, 1896 yilda esa ixtirolar va takomillashtirishlarga beriladigan imtiyozlar haqidagi Nizom qabul qilindi va u 1917 yilgacha amal qildi. Birinchi imtiyoz amerikalik R. Fultonga u “ixtiro qilgan bug‘ yordamida harakatga keltiriladigan suvda yuradigan kemani Rossiyada qurish va qo‘llash” uchun berildi. Imtiyozlar, shuningdek, o‘z davrining mashhur ixtirochilaridan N.Benardosga bug‘ yordamida payvandlashni ixtiro qilgani, aerodinamikaning asoschisi N.Jukovskiyga, cho‘g‘lanma lampaning yaratuvchisi A.Lodiginga, pnevmatik temir yo‘l tormozi ixtirochisi J. Vestingauzga, nemis qurolsoz muhandisi P.Mauzerga va boshqalarga berildi.

Jahon ixtirochilari orasida Tomas Edison o‘ziga xos tarzda ajralib turadi. U mingdan ortiq ixtirolarning egasidir. Elektroni kanning turli sohasidagi ixtirolar Edison nomini butun jahonga tanitdi. U telefon va telegrafni, cho‘g‘lanma lampani takomillashtirdi, fonografni ixtiro qildi, termoion emissiya hodisasini aniqladi va h.k.

Tovar belgilarining timsollari bo‘lgan kelib chiqish belgilari, qadimgi madaniyatlardayoq paydo bo‘lib, badiiy buyumlar mualliflarining imzolari uchun qo‘llanar edi. Nomdor ustalar XVI-XVII asrlarda o‘zlari yasagan bezaklar, idishlar va boshqa uy jihozlariga o‘z tamg‘alarini bosganlar. Bu hozirga qadar ularning asl buyumlar ekanligini tasdiqlovchi belgilardir.

“Brend” atamasi (inglizcha “brand — tamg’a, chorva, otlarni tamg’alash) tovar belgisining sinonimiga aylandi, faqat uning ma’nosi kengrok. Vaqt o’tishi bilan bu tushuncha jahon bozorlarini egallash uchun strategiya timsoliga aylandi.

Fuqarolik huquqi normalari orasida katta o’rin tutgan mualliflik huquqining o’z tarixi bor. Ajdodlarimiz ham shu bois mualliflik huquqiga katta e’tibor berib kelishgan va undan to’liq foydalanganlar. Olimlar va mualliflik huquqi masalalari bilan shug’ullanib kelayotgan mutaxassislar o’rtasida mualliflik huquqining paydo bo’lishi va uning rivojlanish bosqichlari haqida turli qarashlar va fikrlar mavjud. Tarixiy manbalarga suyanib aytish mumkinki, mualliflik huquqi o’zining paydo bo’lish davri va tarixiy rivojlanishiga ega. Qadimda har qanday asar xoh u og’zaki, xoh u yozma bo’lmasin, unga muqaddas ne’mat sifatida qaralgan va uning yaratuvchilari ilohiy tuyg’ular sohibi sifatida qadrlangan.

Mualliflik huquqini paydo bo’lishi va unga rioya etishda olimlar o’rtasida har xil qarashlar mavjud. Ayrim guruh olimlar mualliflik huquqi Yevropa mamlakatlarida yuzaga kelgan va taraqqiy ettirilgan desalar, bir guruh olim va mutaxassislar mualliflik huquqi uzoq o’tmishga borib taqaladi hamda uning paydo bo’lishida Sharq mamlakatlarining alohida o’rni bor deb tushuntiradilar.

Kitobning avval qo’lyozma, keyin bosma kitob ko’rinishida vujudga kelishi bashariy madaniyat shakllanishi va rivojlanishining muhim belgilaridan biridir. Kitobning yaratilishi dunyo tarixida moddiy madaniyat qurollari paydo bo’lishidan kam rol o’ynamagan... Qo’lyozma kitob barcha zamonlarda va barcha xalqlarda ayniqsa, O’rta Osiyo xalqlarida alohida e’zozda bo’lgan... Buyurtma bo’yicha yoki sultonga hadya sifatida tayyorlangan kitob hashamatli qilib bezatilgan. Birinchi sahifaga miniatyura, rangli va naqsh chizilgan, kitob egasining nomi, goh ustaning nomi, tilaklari, asar, muallifning

nomi bitilgan... Bezakli qo'lyozma bir qator ustalar-xattot, naqqosh, muzahhib (zarhal beruvchi), musavvir va sahhofning hamkorlikdagi ijodiy mahsulidir. XIV-XV-asrlarda qadimgi Samarqand, Hirot, Buxoro, Tabriz, Sheroz shaharlarida jamoat va xususiy kutubxonalarda XIII-XIV asrlarda ko'chirilgan noyob qo'lyozmalar ko'p bo'lgan... Temur va temuriylar davrida xattot, muzahhib, naqqosh, musavvir hamda sahhoflarning yuksak mahorati bezakli qo'lyozmaning shu qadar go'zal namunalari yaratdiki, ular hanuzga qadar jahonni lol qoldirib keladi.

Avstriyalik olim va mualliflik huquqi bo'yicha yirik amaliyotchi-mutaxassis Dillens Valterning qarashiga ko'ra, u mualliflik huquqini paydo bo'lishini Yevropada kitob chop etish bilan bog'laydi: "Mualliflik huquqining shakllanishi XVI asrning boshlarida bosmaxona ishining ixtiro qilinishi bilan bog'liq. Matnlarning nusxa qilib ko'paytirib, tarqatilishida qo'lyozma muallifi o'zining asari ustidan iqtisodiy nazoratni yo'qotib qo'ydi. Asarlarning ko'plab miqdorda bosmadan chiqarib yuborilishi ommaviy tus oldi. Bosma matn va tasvir-larning ommaviy tovar sifatida olish-sotish, ayirboshlashda ularni himoya qilish zarurati tug'ildi. Shundan so'ng noshirlar davlat arboblardan ular tomonidan chiqarilgan noshirlik mahsulotlarini qonunsiz qayta nashr qilishni oldini olishni so'radilar".

YuNESKOning kitob va mualliflik huquqi bo'limi yuristi, professor Ye.I.Gerasimovning fikricha, mualliflik huquqi qadim Sharq mamlakatlarida noshirlik ishi bilan shug'ullanishdan kelib chiqqan munosabatlarda yuzaga kelgan-Xitoy va Koreyada qadim zamonlarda yog'och harflarning paydo bo'lishi kitoblar yaratilishiga olib kelgan. Lekin, bu usuldan metall harflarga o'tilmasdan qolib ketadi. Nemis mutaxassisi I.Guttenberg XV asrda harf bosishni ixtiro qilishi natijasida sanoat usulida birinchi marta ommaviy ravishda kitoblar chiqarishi mualliflik huquqining kelib chiqishiga asos bo'ldi.

Kitob bozorda tovar sifatida ayirboshlanishi, aholining intellektual talabini qondirishga olib keldi. Dastlab asar yaratgan muallifning huquqi emas balki, kitob chiqarayotgan noshirning huquqi himoya qilindi.

Umuman olganda, mualliflik huquqi intellektual mulk mahsulotlari yaratilishi va undan foydalanishda yuzaga keladigan munosabatlarda paydo bo'lgan. Mualliflik huquqi masalalari har qanday jamiyatda har xil qarashlar bilan sharhlangan. Asosan, jamiyatda hukmron bo'lgan sinf o'zining erki-irodasini shu munosabatlarda va huquqlarda aks ettirgan.

Mualliflik huquqi fuqarolik huquqi normalari sifatida rivojlanib, o'zining aksini qator davlatlarning qonunchiligida topdi. Birinchi bo'lib bu Qirolicha Anna hukmronlik qilgan Angliyada 1709 yilda sodir bo'ldi. Shu yili dunyoda birinchi marta mualliflik huquqi haqida Qonun qabul qilindi. Bu Qonunda muallif asarlarini nusxa qilib ko'paytirishga ruxsat berish huquqini oldi. Shundan so'ng "Copyright" (nusxa olishga ruxsat) termini paydo bo'ldi.

1787 yilda AQShda qabul qilingan Konstitutsiyasida intellektual mulk masalalariga alohida moddalar ajratilgan. Shunga asosan 1790 yilda Kongress kartalar, sxemalar va kitoblar himoyasi haqida birinchi federal qonunini qabul qildi. Bu Qonunchilik kelgusida teatr asarlari, ashula va boshqa asarlarga tadbiiq etila boshlandi.

Fransiyaning 1791,1793 yillarda qabul qilgan Dekretlarida mualliflik asarlari "mulkning eng miuqaddas turi" sifatida tan olindi va mualliflar huquqlari qonunlarda mustahkamlandi. Fransuz qonunchiligidagi farq shunday iboratki, u AQSh qonunlaridan farqli o'laroq, muallifga o'z asaridan boshqalar foydalanishiga ruxsat berish huquqini emas, balki "shaxsiy nomulkiy huquqlar"ga ham keng o'rin beriladi.

Angliyaning 1709 yildagi Qonunida asardan ruxsatsiz foydalanish (qaroqchilik) huquqbuzarlik deb e'lon qilindi. Angliyada mualliflik huquqi qonunchiligi rivojlantirilib, 1842

yilda yangi “Mualliflik huquqi” Qonuni qabul qilinadi va bu qonunda mualliflarning huquqlari yanada kengaytiriladi. Keyingi qonunlar 1911, 1956 yillarda qabul qilingan.

XIX asrning boshlarida Lotin Amerikasi mamlakatlari-da ham mualliflik huquqiga oid qonunchilik paydo bo'ldi va rivojlantirildi. Prussiyaning 1794, 1837, Daniyaning 1741, Ispaniyaning 1762, Rossiyaning 1830 yillardagi mualliflik huquqiga oid qonunlari mualliflik huquqini nafaqat bir davlat hududida, balki butun dunyoda himoya qilish lozimligini ko'rsatdi. Shu tufayli mualliflik huquqini xalqaro miqyosda himoya qilish tizimi 1886 yilda ko'p tomonlama Bern konvensiyasi tashkil topdi. Oqibatda, dunyoning ko'pgina mamlakatlari-da konvensiyaga a'zo davlatlarning mualliflari huquqlari bir xilda himoya ostiga olindi.

Boshqa davlatlardagi kabi O'zbekiston Respublikasida ham mualliflik huquqining tarixi bor. Qadimda mualliflar hisoblangan shoirlar, rassomlar, o'ymakorlar, dostonchilar va boshqalarning sha'ni, qadr-qimmat, ular yaratgan asarlar qadriyat sifatida himoya qilingan, mualliflar esa rag'batlantirilganlar. Mualliflik huquqi shariat normalari asosida himoyalangan bo'lib, yaratilgan asarlarning daxlsizligi ta'minlangan. Odat normalari asosida himoyalangan, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan fan, adabiyot, san'at asarlari bizning kunlargacha yetib keldi va umuminsoniy qadriyatlarda xizmat qilmoqda.

Har qanday davlat milliy qonunchiligi tizimini yaratayotganda mualliflik huquqiga oid yuqoridagi huquqiy-siyosiy normalarni qonunlari normalari bilan uyg'unlashtirmog'i darkor.

Ishlab chiqaruvchilarning tamg'alarini Rossiya va chet el tovarlarini belgilash uchun qo'llash borasida huquqiy normalar o'z aksini topgan birinchi qonunchilik akti Rossiyada 1667 yilda kabul qilingan edi, rus tovarlarini majburiy tamg'lash to'g'risidagi birinchi farmon 1774 yilda e'lon qilindi.

Tovar belgilari haqidagi birinchi konun Fransiyada 1857 yilda kabul qilingan edi. XIX asrning oxiriga kelib, shunga o'xshash qonunlar ko'pchilik Yevropa mamlakatlarida qabul qilindi.

Yukorida intellektual mulk tizimining chet ellardagi tarixi bilan tanishgan bo'lsak, endi O'zbekiston Respublikasida ushbu tizimning rivojlanish tarixiga nazar solamiz. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin u barcha soxalarda, shu jumladan intellektual mulk sohasida mustaqil siyosat olib bordi. 1992 yilda Davlat patent idorasi va Mualliflik huquqlari tashkil topdi, 2011 yilda ikkala egizak tashkilot qo'shilib, Intellektual mulk agentligigiga aylantirildi. 2019 yilda esa u Adliya vazirligi tasarrufiga o'tdi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT)ning a'zosi (1991), Sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij konvensiyasi (1991), Belgilarni xalqaro ro'yxatdan o'tkazish uchun Madrid bitimiga doir Bayonnoma va Protokoli (2006), Patent kooperatsiyasi to'g'risida shartnoma (RST) (1991), Tovar belgilariga oid konunlar to'g'risida shartnoma (TLT) (1998), Patent huquqi to'g'risida shartnoma (PLT) (2006), O'simliklar yangi navlarini muhofazasi bo'yicha xalqaro konvensiya (UROV), Patent tadbirlari maqsadlari uchun mikroorganizmlarni deponentlash- tirishni xalqaro e'tirof etish to'g'risidagi Budapesht shartnomasi (2002), Belgilarni ro'yxatdan o'tkazish uchun tovar va xizmatlarning xalqaro tasnifi to'g'risidagi Nissa bitimi (2002), Xalqaro patent tasnifi to'g'risidagi Strasburg bitimi (2002), O'simliklar yangi navlarini muhofazalash bo'yicha xalqaro konvensiya (UPOV) (2004), Adabiy va badiiy asarlar muhofazasi to'g'risidagi Bern konvensiyasi (2005) va Sanoat namunalarining xalqaro tasnifini ta'sis etish to'g'risida Lokarno bitimi (2006) kabi nufuzli xalqaro shartnomalar, bitimlarga qo'shildi va BIMTning faol ishtirokchisiga aylandi.

Yosh mustaqil respublikaning intellektual mulk sohasida-

gi keng ko'lamli ishlari jahon hamjamiyati tomonidan yuqori baholandi: 1996 yili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov davlatlar rahbarlari orasida birinchilardan bo'lib ilmiy- texnik ixtirochilik faoliyatini rivojlantirishga qo'shgan ulkan shaxsiy hissasi va BIMT bilan samarali hamkorligi uchun tashkilotning "Oltin medali" bilan taqdirlandi

Mustaqil O'zbekistonda sanoat mulki ob'ektlarining hukukiy muhofazasi tizimida qabul qilingan birinchi me'yoriy hujjat bu O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 15 sen- tyabrda 432-son qarori bilan tasdiqlangan hamda 1992 yil 1 oktabrdan boshlab amalga kiritilgan "O'zbekiston Respublikasi sanoat mulki haqida muvaqqat Nizom" bo'ldi.

Hozirgi paytgacha kelib, ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari, seleksiya yutuqlari, axborot texnologiyalari ob'ektlarining hukukiy muhofazasi va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va boshqa 150 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat va to'g'ridan-to'g'ri amal kilish kuchiga ega bo'lgan konunlar orqali tartibga solinadi.

1993 yilda intellektual mulk muhofazasi bo'yicha birinchi bo'lib "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. 1994 yilda "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida" va "Elektron-hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida" qonunlar, 1996 yilda "Seleksiya yutuqlari to'g'risida", "Integral mikrosxemalar topologiyalarining muhofazasi to'g'risida"gi qonunlar 2001 yilda va "Mualliflik va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonun 2006 yilda qabul qilindi.

Ushbu konunlar va amaldagi qonunosti hujjatlariga muvofiq, O'zbekistonda intellektual mulk ob'ektlari ro'yxatga olinib, **dastlabki muhofaza hujjatlari berilgan**²⁶:

²⁶ Bu va boshqa ma'lumotlarga qarang.: B. Amonov, F. Ergasheva.

1993 yilning fevral oyida “Vostok” innovatsion firmaga tegishli birinchi milliy tovar belgisi;

1993 mart oyida ixtiroga birinchi muhofaza hujjati - Qodir Mo‘minov nomiga uzumga ishlov berish usuli uchun dastlabki patent Davlat reestrída qayd etildi;

1996 yilning yanvar oyida Davlat reestríga “Yuridik shaxslar bo‘lgan soliq to‘lovchilarning identifikatsiyasi (tuman darajasida), Slirreg MS DOS” EHM uchun dastur hakida va “Yuridik shaxslar bo‘lgan solik to‘lovchilarning yagona reestri (respublika darajasida), Informix, UNIX” ma‘lumotlar bazasi haqida yozuv kiritildi. Bu hujjatlarning huquqiy egasi Davlat soliq qo‘mitasi edi.

1998 yilning kuzida birinchi bor o‘simliklar navi - O‘zbekiston paxta seleksiyasi va urug‘chiligi ilmiy-tadqiqot institutidan S - 6524 paxta navi ro‘yxatga olindi;

2000 yilning qishida hayvon zoti - O‘zbekiston Qorako‘lchilik ilmiy-tadqiqot institutidan qorako‘l qo‘yi (zarmallarang) ro‘yxatga olindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning 2011 yil 24 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligini tashkil qilish to‘g‘risida”gi karori intellektual mulk sohasi rivojida yangi bosqichni boshlab berdi. O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi (Agentlik), Davlat patent idorasi va Mualliflik hukuqlari bo‘yicha respublika agentligi bazalarida tashkil qilindi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad innovatsion texnologiyalar va ilmiy-texnik ishlanmalarni iktisodiyot sohalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish jarayoniga keng joriy qilishni yanada rahbatlantirish, intellektual mulk ob‘ektlariga ishonchli muhofaza huquqlarini ta‘minlashdan iborat bo‘ldi.

Agentlik oldiga ixtirolar, sanoat namunalari, foydali mo-

O‘zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasi islohot yo‘lida. T.: O‘zR DPI, 2011. 54 bet.

dellar, tovar belgilari kabi intellektual mulk ob'ektlarining huquqiy muhofazasi va himoyasi sohasida yagona davlat siyosatining amalga oshirilishini ta'minlash, yuqorida sanab o'tilgan va boshqa intellektual mulk ob'ektlariga huquqiy muhofaza taqdim etish, huquq egalari huquqlarining himoya qilinishini ta'minlash kabi bir qator vazifalar qo'yildi. Shuningdek, Agentlik zimmasiga ushbu ob'ektlarning ekspertizasini o'tkazish va ularni Davlat reestrda qayd etish, ilmiy-texnik yanshliklarning keng joriy qilinishini har jihatdan qo'llab-quvvatlash, respublika hududida kontrafakt tovarlarning noqonuniy kirib kelishi va muomalaga kiritilishini oldini olishga karatilgan chora-tadbirlarni qabul qilishda qatnashish vazifalari ham yuklatilgan. Agentlik, BIMTda hamda soha bo'yicha boshqa xalqaro va regional tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'radigan vakolatli organ hisoblanadi.

Intellektual mulk huquqi - intellektual mulk ob'ektlarini yaratish, huquqiy muhofazalash va foydalanish bilan bog'liq masalalarni tartibga soladigan huquq sohasidir.

Intellektual mulk davlatning sanoati, savdo va madaniyatini rivojlantirish yo'lidagi ijodiy faoliyatni raFbatlantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda intellektual mulk hukuqlariga rioya etish, halol rakobatni ta'minlash bilan birga iqtisodiy rivojlanish bazasi bo'lib xizmat qiladigan harakatlantiruvchi kuchdir. Intellektual mulk huquqlarining ishonchli muhofazalanishi huquqiy jamiyat rivojining darajasi, davlatning iqtisodiy rivojlanishi ko'rsatkichi hisoblanadi.

VAZIRLIK MUTASADDILARI TUSHUNISHNI ISTAMAYOTGAN HAQIQAT YOXUD BOSHQA YURLARDA PATENTLANGAN O'ZBEK OLIMLARINING IXTIROLARI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2020 yil 31 yanvar kuni Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasiga tashrif buyurib, olimlar, yosh tadqiqotchilar, ishlab chiqarish vakillari va ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari bilan uchrashdi.

Iqtidorli olimlar tadqiqotining amaliy natijasi ixtirolar, foydali modellarga patent olinishi bilan o'zining yakuniga yetadi. Intellektual mulk (IM) ko'ptarmoqli, ko'p mezonli tushuncha bo'lib, Yevropa va rivojlangan davlatlarda bu sohani boshqarish bir korxonaga va patent egasi doirasida emas, balki iqtisod rivojiga olib keladigan davlat qarorlari va davlat dasturlarini qabul qilish asosida yuritiladi. Jahon ilg'or mamlakatlari ikki asrdirkim, patent va biznes hamkorligini yo'lga qo'yib, inson hayoti va turmush tarzini yaxshilashga erishdi.

Quyida ushbu dolzarb sohada bir necha yillar rahbarlik lavozimida ishlagan **Baxtiyor Omonovning** IM tizimi buguni va kelajagi haqidagi fikrlari bilan tanishamiz:

– “Ixtirolar, texnologiya va tijorat sirlari, kompyuter dasturlari, dizaynerlik ishlanmalari, tovar belgilari – IMning ob'ektlari dunyoda moddiy aktivlardan kam baholanmaydi, balki ayrim hollarda ulardan anchagina yuqori turadi. Umumjahon sanoat ishlab chiqarishining yillik o'sish sur'atlari 2,5-3 foizdan oshmaydi, IMga bo'lgan huquqlar bilan savdo qilish hajmi esa yiliga 12-14 foizga o'smoqda. Ushbu holat yangi g'oyalar, kashfiyotlar va ixtirolar nafaqat ularning yaratuvchilariga, balki butun jamiyatga naf keltirayotganini bildiradi.

Davlat tomonidan beriladigan yagona monopoliya huquqi, bu – IM ob'ekti egasining undan foydalanish va tasarruf etishga bo'lgan mutlaq huquqi! Mohiyati jihatidan patent – yangilik

sirini to'liq ochib berilishi va belgilangan miqdordagi patent boji to'lanishi evaziga davlat tomonidan uning muallifiga ixtiroga bo'lgan huquqlarini muhofaza qilish kafolati beriladigan shartnoma hisoblanadi. Bunda jamiyat yangilik yaratuvchi huquqini qonuniy rasmiylashtirish evaziga ijodiy mahsulidan foydalanish to'la huquqini qo'lga kiritadi. Patent faolligi ko'rsatkichi davlat iqtisodiy qudratining bilvosita ko'rsatkichi ham sanaladi. Rivojlangan davlatlar, jumladan, AQSh, Yevropa ittifoqi (Yel) qariyb ikki asrdirki, ixtirochilar, olimlar va ishlab chiqaruvchilarning o'zaro hamkorligini tizimli yo'lga qo'yishgan. Bunda iqtidorli ixtirochilar bilan davlat o'rtasida ikki tomonlama manfaatli aloqaning mavjudligi kishida o'zaro ishonch va umidni uyg'otadi.

Bizning respublikamizda garchi ancha kech bo'lsa-da, bilim va innovatsiyaga shart-sharoit yaratish sari harakatlar boshlangan. Respublikamizda 2008 yildan beri O'zbekspomarkazda Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar ko'rgazmasi o'tkaziladi. Shunisi aniqki, mamlakatda fan bilan ishlab chiqarish uyg'unligi mexanizmi yaxshi ishlamasa, boshqa mamlakatlar ilg'or g'oya va texnologiyalariga tobe bo'lib qolish xavfi tug'iladi.

Arziydigan ixtirolar bo'lsa...

Innovatsion iqtisodga o'tib olgan AQSh, Shvesiya, Fransiya, Italiya, Germaniya, Yaponiya, Buyuk Britaniyada bu jarayonga kirishish uzoq davom etganini bilamiz. IM huquqi xalqaro maydonda 1883 yilda imzolangan Parij konvensiyasi hujjati orqali tartibga solindi. Konvensiyaga 140 davlat, jumladan O'zbekiston ham a'zo bo'lib kirgan.

Shuni qayd etish lozimki, innovatsion biznes davlat, investorlar tomonidan qo'llab-quvvatlanib, davlat dasturisiz ham rivojlanishi mumkin. Olimlar, ixtirochilar bilan biznes ahli dunyoqarashi turlicha bo'lgani uchun narx-navolarda, shartnomaviy kelishuvlarda yuzlab vaj-bahonalar vujudga kelishi

mumkin. Mabodo arziydigan ixtirolar bo'lsa, unga boshqalardan, hatto chet mamlakatdan ham buyurtmalar tushadi. Ma'lumki, sobiq ittifoq davrida Toshkentdagi **akademik Vohidov rahbarligidagi "Koinot" ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi texnik ishlanmalariga Rossiya koinot fazogirlari shaharchasidan buyurtmalar berilgan.** Parkentdagi "Fizika-Quyosh" ilmiy-texnologik majmuasi, "Kibernetika" yo "Avtomatika" ilmiy-tadqiqot institutlarining ba'zi ixtirolari va nou-xaulariga chet ellardan xaridorlar doimo qiziqish bildirgan.

Mamlakatimiz istiqloqlga erishgach, ilmiy va ijodiy faoliyat, jumladan, ixtirochilik faoliyati ancha faollashdi. Bugungi kunga kelib IMA tomonidan 22 mingdan ortiq tovar belgilari, 5 ming ixtiro, 3,5 ming EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari, 2,4 mingta sanoat namunasi, 1000 foydali model davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. Ixtirolar haqida gapiradigan bo'lsak, so'nggi yillardagi yirik innovatsiyalardan tiniq suyuq tibbiy-biologik ob'ektlarning rangli tasvirdagi mikroskopik tadqiq qilish usulini ko'rsatib o'tish mumkin. Bu ish uchun FAning Elektronika institutiga patent berilgan. Natijada murakkab va muhim tahlillarni hatto oddiy tibbiy muassasalarda o'tkazish imkoni yuzaga keladi, probalarni olib, ularni bosib chiqarish uchun sanoqli daqiqalar o'tadi.

Sog'liqni saqlash vazirligi Patologik anatomiya respublika markazi rahbari, akademik Malika Abdullaxo'jaeva rahbarligida 2011 yili ixtiroga 20 yilga olingan patentda yozilishicha, agar mikroskop uchun predmet oynasiga saraton hujayralari joylansa, mikroskop okulyarida ular yorishib turgani ko'rinadi. Bu saraton hujayralarining vizual markeri bo'lib qoldi. Ixtironing qimmati shundaki, saraton kasalliklarini eng dastlabki bosqichida, shish hali hosil bo'lmay, faqat uni keltirib chiqaradigan hujayralarning o'zi paydo bo'lgandayoq tashhishtash hishlash imkoniyati tug'iladi.

O'zbek olimlarining ixtirolari

O'zbek olimlari va muhandislarining eng yaxshi ixtirolari AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Shveysariya, Fransiya, Rossiya, Kanada, Yaponiya, Xitoy, Turkiya va boshqa mamlakatlarda patentlangani bizni mamnun qiladi. Masalan, Ichki ishlar vazirligi Oliy o't o'chirish-texnik maktabi qoshidagi Yong'in xavfsizligi ilmiy-tadqiqot markazining boshlig'i Mirjalil Usmonov 17 davlatda ixtirolarini patentlagan. U ishlab chiqqan yong'inga qarshi ekranlar issiqlik oqimi sur'atini yuz va undan ko'proq martaga susaytiradi. Ushbu ixtironing ahamiyati shundaki, ayrim mamlakatlarda yong'indan ko'rilayotgan zarar va ularga qarshi kurashga ishlatilgan mablag'lar har yili yalpi milliy mahsulotning taxminan bir foizini tashkil qilmoqda.

O'zbekistonda **innovatsiya milliy iqtisodni rivojlantirish uchun suv va havoday zarur**. Taklifimiz shuki, keyingi besh yilda matematika, kimyo, biologiya, farmasevtika, axborot texnologiyasi kabi yo'nalishlarda patent olingan ixtirolar, foydali modellar inventarizatsiyadan o'tkazilishi lozim. Ularning amaliyotda tadbiiq etilishi aniqlangandan keyin Davlat dasturlariga kiritilib, maqsadli moliyalanishi kerak. Chunki ixtirolarni ishlab chiqarishga joriy etishga olimlarning mablag'i yetmaydi. Bir fakt: vazirlik va kompaniyalar, yirik ishlab chiqaruvchilarning e'tiborini tortish niyatida 2009 yildan boshlab Davlat patent idorasi (hozirgi Intellektual mulk agentligi – IMA)da "Istiqbolli ixtirolar" to'plamini chop etishga kirishdi. O'sha yillarda idoraga rahbarlik qilardim. Agentlik tuzilgunga qadar, 2011 yilgacha 200 dan ziyod ixtirolarning ta'rif va tavsiflarini to'plamimizda e'lon qilib borganmiz. Ammo IMA tuzilib, men boshqa sohaga o'tib ketganimdan keyin istiqbolli ixtirolarning taqdiridan bexabar qoldim.

Ilm-fan, innovatsiya va ishlab chiqarish tandemida IM imkoniyatiga alohida yondashuv bo'lishi lozim. **IM – asli, bu ko'p sonli yaratuvchilar bilan tovarlar, xizmatlarni ishlab**

chiqaruvchilar o'rtasida to'plangan katta mablag'ni adolatli taqsimlash instrumenti. Turgan gapki, u ikki tomonni, birinchi navbatda davlatni iqtisodiy boy qiladigan mexanizm-dir. Biroq jamiyatda oligarxlar, boy-badavlat kishilar IM rolini rad etishga harakat qiladilar. Bu noto'g'ri yo'l. Yevropada buning aksini ko'ramiz. Sababi, bunday tizim va infratuzilma ishga tushsa, "biznesmen"larning bojxona, soliqchilar ko'zini shamg'alat qilish hisobiga boyishiga, yengil-yelpi yo'l bilan daromad olishiga chek qo'yiladi. **Siyosiy hayot – manfaatlar kurashidan iborat.** Biznesmenlar, korrupsionerlar IM sohasida kutilayotgan islohotlarga, demakki milliy iqtisodning rivojiga turli darajada to'sqinlik qilishga urinadilar. Misol uchun, mamlakatimizda yiliga 10 mlrd. so'mlab daromad olayotgan CD, DVD disklari bozori fikrimizning isboti bo'ladi.

IM – bu, yuqori texnologiya va o'ta iqtidorlilar biznesiga kiradigan o'n minglab intellektuallarning fundamental instrumenti dedik. AQSh, Shvesiya, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Malayziya va boshqa iqtisodi rivojlangan mamlakatlar bu instrumentdan jahon pul oqimini qayta taqsimlash maqsadida foydalanadi. O'zbekistonda Moliya vazirligi, Iqtisodiy rivojlanish va kambag'allikni qisqartirish vazirligi mutasaddilari ana shu haqiqatni tushunishni istamaydi. Bizningcha, ushbu vazirlik rahbarlari Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan birgalikda bozor iqtisodi sharoitida navbatma-navbat bilimlar iqtisodi tizimini barpo etishga doir strategik dasturlarini tayyorlab borishi zarur. Shunday istiqbolli dasturlar ishga tushmasa, vaqt va imkoniyatdan yutqazamiz. Respublikada aniq fanlarda ilmiy maktablar davomchilari hozircha borligi eng muhim yutug'imizdir. Ammo o'n yillardan so'ng yaxshi imkoniyat qo'ldan boy beriladi...

IM, bu – aqlli biznesmen va yetuk mutaxassislar boyib qoladigan instrument emas, u bozorda raqobatbardosh mahsulot vujudga kelishining bosh omili. Kimki ilmiy ishlarni aniq, pishiq-puxta o'zlashtirsa, o'shanda ustunlik

qoladi. Ilg'or davlatlar biznesmenlari bu oltin qoidani yaxshi bilishadi. Ular IM va ilm-fan taraqqiyotiga suyanmay turib, rivojlanish dasturlari va biznes rejalarni tuzmaydilar.

Gapning indallosi shuki, biz **birinchidan**, dunyo yurgan iqtisodiy yo'dan qadam tashlab, ilm-fan, bilim, innovatsiyaga taalluqli mavjud muammolarni aniqlab, uni yechishimiz kerak. **Ikkinchidan**, mamlakatimiz Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishni mo'ljallagan, masala hal etilsa, yetakchi ishlab chiqarish korxonalarida, iqtisodning xom ashyosiz sektorida murakkab vaziyat yuzaga keladi.

Ahvoldan qutulishning yo'li bormi?

Buning yo'li, **birinchidan**, sanoat korxonalari rahbarlari IMni ommaviy rad etish, uni chetlab o'tib ketish psixologiyasidan qutulishi, **ikkinchidan**, IM asosiga qurilgan biznes g'oyalarni joriy etish jarayoni boshidan oxirigacha rag'batlantirib borilishi, **uchinchidan**, "Nomaterial aktivlar hisobi" ro'yxati kengaytirilishi, unga nou-xau – "ishlab chiqarish sirlari" ham kiritilishi, **to'rtinchidan**, yetakchi davlatlar tajribasiga ko'ra, innovatsion loyihalar uchun uzoq muddat jalb etiladigan mablag'larga soliq imtiyozlari berilishi maqsadga muvofiq.

Uzoq yillar mobaynida iqtisodchilar nega ayrim davlatlar boy-badavlat, boshqalari kambag'al ekanligini tahlil qilishga vaqtlarini sarf etishadi. Ilmiy jamoatchilik biladiki, har qanday davlatning iqtisodiy oyoqqa turishida bilimlar va ixtirolar yetakchi rol o'ynaydi. Mashhur iqtisodchi Pol Romerning ta'kidicha, bilimlarni to'plash iqtisodiy o'sishni harakatga keltiruvchi kuchdir. Uning nazariyasiga ko'ra, iqtisodiy siyosatda o'sishni osonlashtirmoqchi bo'lsangiz, mamlakat yangi tadqiqotlar va ishlanmalarga investitsiyalarni ko'paytirishi lozim. Buning uchun avvalo, ilg'or mamlakatlar tajribasini maxsus borib o'rganish, ularni qanday qo'llash va yaxshi natijaga erishish mexanizmlarini ishlab chiqish kerak.

Innovatsion yo'lni tanlagan davlat ushbu asoslarga suya-

nishi lozim: **birinchidan**, intellektual donorlar (olimlar, ixtirochilar, madaniyat va san'at arboblari); **ikkinchidan**, istiqboli g'oyalarni hayotga tatbiq etuvchi moliyachilar (mahsulotni tashqi bozorga sotib, iqtisodga chet el investitsiyasini kiritadigan va kapitalni qaytarishni amalga oshiradigan biznesmenlar); **uchinchidan**, uddaburro menejerlar; **to'rtinchidan**, o'qituvchilar va shifokorlar. O'sha vaziyatda bilimga suyanadigan iqtisodiyot formulasi bunday sxemada joylashadi: IM asosiga quriladigan ustuvor tarmoqlar – dasturlar – amalga oshirish uchun mablag'lar – natijalar.

O'zbekiston Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi arafasida davlat boshqaruvi tizimi bilan iqtidorli olimlar, ishlab chiqaruvchilar, tovarlar va xizmat ko'rsatuvchi tizimlar birqator tashkiliy-psixologik chora-tadbirlarni amalga oshirishi, axborot almashib turishi zarur, deb hisoblaymiz. Ha, yaqin yillarda O'zbekistonda ham IMning o'rni, vakolatlari va imkoniyatlari oshib boradi. Vaholanki, kuchli iqtidor va aqliy salohiyatga ega ixtirochilar g'oyalarning ijrosiga keng imkon yaratilsa, mamlakatimiz iqtisodiy jihatdan yanada taraqqiy qilgan bo'lardi.

Suhbatdosh Asliddin Suyunov (O'za)

Manba: <http://uza.uz/oz/society/vazirlik-mutasaddilari-tushunishni-istamayetgan-a-i-at-oliga-04-02-2020>

INTELLEKTUAL MULK AQLNI PULGA AYLANTIRADI

Inson tafakkuri va izlanishlari mahsuli bo'lmish intellektual mulk samarasini bugun barcha jabhada ko'rish mumkin. Binobarin, hozir foydalanayotgan zamonaviy texnologiyalar, umuman, kundalik ehtiyojimiz qanoati ana shu salohiyat bilan chambarchas bog'liq. Mamlakatimizda intellektual mulk qay darajada rivojlanmoqda? Olimu tadqiqotchilarimizga zarur shart-sharoitlar yaratib berilyaptimi?

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti professori, siyosiy fanlar doktori Baxtiyor OMONOV bilan shular xususida fikrlashdik.

— Bunga Prezident Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 12 oktabr kuni intellektual mulk ob'ektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda aytgan fikrlaridan javob olishimiz mumkin, — deydi suhbatdoshimiz. — Xususan, yig'ilishda davlatimiz rahbari «Ilm-fan va innovatsiyani rivojlantirish, bu sohada gi yutuqlarni yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotga aylantirishda intellektual mulkning ishonchli himoyasini ta'minlash juda muhim. Dunyoda tovarlarning brend qiymati yuqori hisoblanadi. Intellektual mulk Yevropada yalpi ichki mahsulotning 45 foizini, Xitoyda 12, Rossiyada 7 foizini tashkil etadi. Afsuski, mamlakatimiz bu borada dunyo bozoridan uzoqlashtirib ketdi.

Na tegishli idoralar va na hudud rahbarlari intellektual mulk masalasiga e'tibor berdi. Shu sababli ixtirochi olim va ijodkorlarimiz xorijga chiqib ketdi. Ilmiy institutlarimiz innovatsiyalar, tarmoqlar esa xaridorgir ishlanma va brendlar yarata olgani yo'q. O'tgan yili 400 ga yaqin ixtirolar, 110 ta foydali model, 170 ta sanoat namunasi, 36 ta seleksiya yutug'i ro'yxatga olingan bo'lsada, atigi 43 ta ilmiy ishlanma tijoratlashtirilgan, xolos», deya ta'kidlagandi.

Demak, bundan ko'rinadiki, hali bu borada qilinadigan

ishlar talaygina. Olimu izlanuvchilarimiz va boshqa soha va-killari oldida ko'plab mas'uliyatli vazifalar turibdi. Shu bois quyida bu borada kengroq fikr yuritishga, o'quvchilarga intellektual mulkning o'zi nimayu, ahamiyati qandayligi haqida batafsil tushuncha berishga harakat qilamiz.

Soha haqida tushuncha

«Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 3-moddasida «Intellectual mulk agentligi sanoat mulki ob'ektlarini huquqiy muhofaza qilish sohasidagi yagona davlat siyosatining amalga oshirilishini ta'minlaydi»; 5-moddada «Sanoat mulki ob'ektiga bo'lgan huquq muallifga (hammualliflarga) yoki uning (ularning) huquqiy vorisiga (huquqiy vorislariga) tegishli bo'ladi va patent bilan tasdiqlanadi... Agentlikka patent berish haqidagi talabnoma topshirilgan sanadan e'tiboran hisoblaganda ixtiro patenti yigirma yil mobaynida, sanoat namunasi patenti o'n yil mobaynida, foydali model patenti besh yil mobaynida amal qiladi», deb yozilgan. Ixtironing patentga layoqatlilik shartlari (6-modda) uchta bo'lib, agar ixtiro sifatida ko'rsatilgan ob'ekt yangi, ixtirolik darajasiga ega va uni sanoatda qo'llash mumkin bo'lsa, u huquqiy muhofaza qilinadi. Bundan ham muhimi shuki, ixtiro haqidagi talabnoma to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rib chiqish uchun qabul qilingan talabnoma topshirilgan sanadan e'tiboran o'n sakkiz oy o'tganidan keyin rasmiy axborotnomada e'lon qilinadi. Demak, ariza berilgach yigirma oylardan keyin masala ijobiy hal etilsa, ixtirochiga patent 20 yil muddatga beriladi. Statistika ko'ra, O'zbekistonda har o'nta arizadan faqat uchtasiga ixtiro patenti topshirilmoqda.

Bugungi kunga kelib, O'zbekiston ham intellektual mulk qonunchilik bazasida katta bosqichni bosib o'tdi. Mustaqillik yillarida intellektual mulkni muhofaza qilish sohasida 10 ta davlatlararo, 12 ta hukumatlararo va 21 ta idoralararo

shartnoma hamda bitimlar tuzilib, amal qilmoqda. Bulardan tashqari, to'g'ridan-to'g'ri ishlaydigan 5 ta qonun, Adliya va zirligida ro'yxatdan o'tkazilgan umummajburiy xarakterdagi 25 ta hujjat, hammasi bo'lib idora faoliyatini tartibga soladigan 140 dan ziyod normativ hujjatlar ro'yxatga olinganligini qayd etib o'tmoqchimiz.

Ixtirolar, foydali modellar, tovar belgilari intellektual mulkning ob'ektlari sifatida dunyoda moddiy aktivlardan kam baholanmaydi, balki ayrim hollarda ulardan anchagina yuqori turadi. Umumjahon sanoat ishlab chiqarishining yillik o'sish sur'atlari 2,5-3 foizdan oshmaydi, intellektual mulkka bo'lgan huquqlar bilan savdo qilish hajmi esa yiliga 12 — 14 foiz o'smoqda. Ushbu holat yangi g'oyalar, kashfiyotlar va ixtirolar nafaqat ularning yaratuvchilariga, balki butun jamiyatga naf keltirishini isbotlaydi. Shu sababdan, davlat tomonidan beriladigan yagona monopol huquq, bu — intellektual mulk ob'ekti egasining undan foydalanish hamda tasarruf etishga bo'lgan mutlaq huquqidir. Mohiyati jihatidan patent — yangilik sirining to'liq ochib berilishi va belgilangan miqdordagi patent bojining to'lanishi evaziga davlat tomonidan uning muallifiga ixtiroga bo'lgan huquqlarini muhofaza qilish kafolati beriladigan shartnoma. Bunda jamiyat yangilik yaratuvchi huquqini qonuniy rasmiylashtirish evaziga ijod mahsulidan foydalanish huquqini qo'lga kiritadi.

Jahon tajribasi guvohlik berishicha, patent faolligi ko'rsatkichi davlat iqtisodiy qudratining bilvosita ko'rsatkichi hisoblanadi.

Jahonda tizim qanday ishlaydi?

Mutaxassislar fikricha, XIX asr o'rtalaridayoq mualliflik huquqini xalqaro miqyosda himoya qilish ehtiyoji tug'ilgan. Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) hukumatlararo xalqaro tashkilot bo'lib, qarorgohi Shveysariyaning Jeneva shahrida joylashgan. Ushbu tashkilot BMT tizimiga kiruv-

chi 16 ta ixtisoslashtirilgan muassasadan tarkib topgan, 160 ga yaqin davlatlar unga a'zo.

BIMTning asosiy maqsadlari deb quyidagilar e'tirof etiladi:

— butun dunyoda davlatlararo, ayrim hollarda xalqaro tashkilotlarda intellektual mulk himoyasini rag'batlantirish, intellektual mulk himoyasini ta'minlash hamda rag'batlantirish borasida yangi va har tomonlama zarur bo'lgan xalqaro shartnomalarning yuzaga kelishida vositachilik qilish;

— intellektual mulkka oid bo'lgan va faoliyat ko'rsatayotgan bitimlarning oliy organlari oralig'ida ma'muriy faoliyatni bajaradi. BIMTning kotibiyati sifatida Bitimlar ma'muriy boshqaruvi hamda Xalqaro byuro harakatda bo'ladi. Shu kunga qadar BIMT mualliflik huquqi va turdosh huquqlar himoyasi bilan shug'ullanuvchi quyidagi bitimlarning ma'muriy vazifasini bajarib keladi: Adabiy va badiiy asarlarni himoya qilish haqidagi Bern konvensiyasi, ijrochilar, fonogramma ishlab chiqaruvchilari va ko'rsatuv organlari manfaatlarini himoya qilish haqidagi Rim konvensiyasi, Fonogramma ishlab chiqaruvchilarning fonogrammalaridan noqonuniy ravishda foydalanishdan himoya qilish haqidagi Jeneva konvensiyasi, Sun'iy yo'ldoshlar orqali uzatiladigan signallar dasturlarini tashuvchilarni tarqatish haqidagi Bryussel konvensiyasi, Filmlarni reestr qilish va audiovizual asarlarni xalqaro ro'yxatdan o'tkazish haqidagi shartnoma.

O'zbekiston mazkur konvensiyalarning aksariyatiga qo'shilgan.

Rivojlangan davlatlar, shu jumladan, AQSh, Yevropa Ittifoqi (Yel) davlatlari, qariyb ikki yuz yildirki, ixtirochilar, olimlar va ishlab chiqaruvchilarning o'zaro hamkorligini yaxshi yo'lga qo'yish orqali iqtisodiyotni tiklab olishdi. Bunda iqtidorli ixtirochilar bilan davlat o'rtasida ikki tomonlama manfaatli aloqaning mavjudligi o'zaro ishonch hamda umid uyg'otdi.

Masalan, 1973 yilda «Motorola» kompaniyasi bosh

muhandisi Martin Kuper mobil telefonda birinchi marta gaplashib, simsiz aloqa orqali insoniyatning orzulari ushalishiga yo'l ochgan va u tijorat maqsadida 1983 yilda ishga tushgan bo'lsa, bugungi kunda jahonning 4 milliard aholisi mobil telefonda gaplashayotir. 1989 yilda AQShlik Berners Li jahon «o'rgimchak to'ri» — internetni ixtiro qildi. Internet dunyoni kichik qishloqchaga aylantirib, unda axborot tovush tezligida odamlarga yetkazilmoqda...Odamlarning mushkulini oson qilgan ikki ixtironing kuchini bir qarang!

Haqiqat shuki, AQSh, Germaniya, Yaponiya singari sanoati taraqqiy etgan davlatlarda yalpi ichki mahsulot o'sishining 70 — 90 foizi texnika va texnologiyalarda o'z ifodasini topgan yangi bilimlar hamda innovatsiyalar ulushiga to'g'ri kelayotir.

Patentlar iqtisodiy rivojlanishga zamin yaratadi

Ixtirolarga patentlar iqtisodiy rivojlanishni qanday qilib rag'batlantirishi mumkinligi masalasi katta jildlikka ilmiy mavzu bo'ladi.

Biz quyida ulkan jarayonning faol ishlashi bo'yicha bir necha misollar keltiramiz.

Patentlar to'rt yo'nalishda qo'llaniladi: 1) patent axboroti texnologiyalarni uzatishni va to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyasini olib kelishni yengillashtiradi; 2) universitet hamda tadqiqot markazlarida tadqiqot va ishlanmalarni o'tkazish imkonini oshiradi; 3) yangi texnologiyalar hamda tadbirkorlik amaliyoti katalizatori; 4) korxonalar patentlarni to'plash hisobiga bu aktiv asosida ularni litsenziyalashtirish, qo'shma korxonalar va boshqa daromadli kelishuvlarda qatnashadi.

O'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, AQShning 70 foiz kompaniyalari ishlatish imkoniga ega bo'ladigan texnologik aktivlarni qo'lga kiritgan (ularning hajmiy qiymati 200 milliarddan to 1 trillion AQSh dollariga yetadi). Qariyb 100 milliard AQSh dollarilik shunday harakatsiz innovatsiyalar intellektual mulkning yirik kompaniyalari portfellarida saqlanmoqda.

Vaqt kelganida, ularni sotish va litsenziyalashtirish mumkin.

Intellektual mulk litsenziyasi juda ham foydali. "IBM" kompaniyasi birgina 2015 yilning o'zida patentlarni litsenziyalashtirish hisobidan 2,5 milliard AQSh dollari miqdorida daromad olgani, jahonda patentlarni litsenziyalashtirishdan olingan umumiy daromad 1990 yildagi 15 milliarddan 2015 yilga kelib 250 milliard AQSh dollariga yetgani buning tasdig'idir.

Yutuqlar yaxshi, ammo kamchiliklar ham yetarli

Endi davlatimiz rahbarining yaqinda istiqbolli soha oldiga qo'ygan yuksak vazifalaridan kelib chiqib, intellektual mulk sohasining tashkiliy, psixologik va ma'rifiy jihatlariga ham to'xtalib o'tsak.

Qayd etish kerakki, innovatsion biznes davlat, investorlar tomonidan qo'llab-quvvatlanib, davlat dasturisiz ham rivojlanishi mumkin. Olimlar, ixtirochilar bilan biznes ahli dunyoqarashi turlicha bo'lgani uchun narx-navolarda, shartnomaviy kelishuvlarda turli bahonalar yuzaga chiqishi ehtimoli mavjud. Ammo buning yechimi bor. Mabodo, arzigulik ixtirolar bo'lsa, unga chet mamlakatdan buyurtmalar tushadi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, ilmiy va ijodiy faoliyat, jumladan, ixtirochilik faoliyati ancha faollashdi. Bugungi kunga kelib, O'zbekistonda Intellektual mulk agentligi (IMA) tomonidan 22 mingdan ziyod tovar belgilari, 10 ming ixtiro, EHM uchun 3,5 ming dastur va ma'lumotlar bazalari, 2,4 mingta sanoat namunasi, mingta foydali model davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. Ammo ularning qo'llanilish miqdori haqida aniq ma'lumot qo'limizda mavjud emas. Bu tizim sohalararo kompleks yaxshi yo'lga qo'yilmaganidan darak beradi. So'nggi yillardagi yirik innovatsiyalar qatorida tiniq suyuq tibbiy-biologik ob'ektlarning rangli tasvirdagi mikroskopik tadqiq qilish usulini ko'rsatib o'tishimiz mumkin. Bu innovatsiya uchun FAning Elektronika institutiga patent

berilgan. Usul yuzasiga tadqiq etilayotgan suyuqlik surtilgan yarimo'tkazgichli materialdan foydalanish evaziga oddiy mikroskopda tahlil uchun olingan namunalardan nozik tuzilishdagi qon elementlari va mikroflora detallarining kontrast rangli tasviriga ega bo'lish imkonini beradi, bunda tasvir sifatli hamda tabiiy ranglarda olinadi. Buning evaziga reagentlardan foydalanish, optik sxemasida fazali-kontrast uzellarga ega bo'lgan maxsus mikroskopdan foydalanishga ehtiyoj qolmaydi. Endilikda eng murakkab va muhim tahlillarni, hatto oddiy tibbiy muassasalarda ham o'tkazish imkoniyati yuzaga keladi, namunani olib, uni bosib chiqarish uchun esa sanoqli daqiqalar kifoya. Sog'liqni saqlash vazirligi Patologik anatomiya respublika ilmiy-amaliy markazida akademik, O'zbekiston Qahramoni M.S. Abdullaxo'jaeva rahbarligida 2011 yilda ixtiroga olingan patentda aniqlanishicha, agar mikroskop uchun predmet oynasiga saraton hujayralari joylansa, mikroskop okulyarida ular yorishib turganini ko'rish mumkin ekan. Bu saraton hujayralarining vizual markeri bo'lib qoldi. Ixtironing qimmatini shundaki, saraton kasalligini uning eng dastlabki bosqichida, shish hali hosil bo'lmasdan, faqat uni keltirib chiqaradigan hujayralar paydo bo'lgandayoq tashxislash imkoniyati tug'ildi.

Shu o'rinda ta'kidlash joiz, o'zbek olimlari va muhandislarining eng yaxshi ixtirolari AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Shveysariya, Fransiya, Rossiya, Kanada, Yaponiya, Xitoy, Turkiya va boshqa mamlakatlarda patentlangan. Masalan, Oliy o't o'chirish-texnik maktabi qoshidagi Yong'in xavfsizligi ilmiy-tadqiqot markazining boshlig'i Mirjalil Usmonov 18 davlatda o'z patentiga ega bo'ldi. U ishlab chiqqan yong'inga qarshi ekranlar issiqlik oqimi sur'atini yuz va undan ko'proq martaga susaytirishi bilan e'tiborga molik.

Jahonda jami 8 million patent ro'yxatga olingan bo'lsa (4 million AQShga tegishli), har yili yana 600 — 700 ming patent qo'shilib bormoqda. Ixtirochilik daromadli biznes bo'lib,

patentlar va «nou-xau»lar bo'yicha litsenzion ajratmalarning umumiy summasi yiliga 250 milliard dollarni tashkil etadi. Biroq, afsuski, O'zbekistonning bu sohadagi hissasi hozircha maqtangulik emas. Agar o'tgan asrning 80 yillarida o'zbekistonliklar ixtirolarga yiliga o'rtacha 2 ming 170 tadan talabnoma topshirgan bo'lsa, 2020 yilda bu ko'rsatkich 400 taga tushdi, ya'ni ixtirochilik faoliyati sur'ati 5,5 marta tushib ketdi. Jahonning rivojlangan mamlakatlarida aholi ixtirochilik faolligining eng yuqori koeffitsienti 2011 — 2015 yillarda Yaponiya (10 ming aholiga 28,5 — 30,5 talabnoma), Koreya Respublikasi (15,5 — 25,1), AQSh (6,2-7,0), Germaniya (5,9-6,4), Finlyandiya (3,5-4,6), Daniya (3,1-3,4), Buyuk Britaniya (2,9-3,4), Rossiyada (1,65-2,5) kuzatildi. O'zbekistonda ushbu ko'rsatkich 0,09-0,21 talabnomani tashkil etgan.

Bir-biriga bog'liq ikki tizim

Bugungi kunda intellektual mulk hamda innovatsiya respublika milliy iqtisodiyotini rivojlantirish uchun suv va havoday zarur sohalarga aylangan. Bu ikki egizak tizimni bir-birining ishtirokisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ammo shu bilan birga, ikkala tizim infratuzilmasi, intellektual mulk bozori yurtimizda hali shakllanmaganini ham tan olish zarur. Bu bo'radagi ilk g'oyalar hamda tashabbuslar ham qog'ozda qolib ketayotir.

Bir dalil. Respublika patent idorasida rahbar bo'lib ishlagan yillarda mutasaddi vazirlik va kompaniyalar, yirik ishlab chiqaruvchilarning e'tiborini tortish maqsadida 2009 yildan boshlab «Istiqbolli ixtirolar» to'plamini chop etgan edik. Ya'ni biz, 2011 yilgacha 200 dan ziyod ixtirolarning ta'rif hamda tavsiflarini e'lon qilib borganmiz. Ammo mazkur istiqbolli ixtirolarning keyingi taqdiridan bexabarmiz.

2008 — 2010 yillarda 50 dan ziyod oliy o'quv yurtlari, shuningdek, Navoiy, Olmaliq, Bekobodagi yirik korxonalarda seminar-trening, o'qitishlar o'tkazilib, shartnomaviy

munosabatlarga kirishilgan, 2010 yilda sohani rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqilib, hay'at majlisida tasdiqlangan edi. Ixtirochilar va ishlab chiqaruvchilar aloqasini bog'lash maqsadida Vazirlar Mahkamasi departamentlarini yig'ib, taqdimotlar o'tkazilgan...

Oxirgi uch yilda davlatimiz tomonidan ilm, fan, ma'rifat ahliga, xususan, iste'dodli olimlarga grantlar, iqtisodiy ko'maklar berilayotgani ijobiy hodisa, albatta. Ammo ilm-fan, innovatsiya va ishlab chiqarish tandemida intellektual mulk imkoniyatiga alohida yondashuv bo'lishini istardik.

Aslida, intellektual mulk, bu, ko'p sonli yaratuvchilar bilan tovarlar, xizmatlarni ishlab chiqaruvchilar o'rtasida to'planagan katta mablag'ni adolatli taqsimlash instrumenti. Turgan gapki, u ikki tomonni, birinchi navbatda, davlatni iqtisodiy boy qiladigan mexanizm. Biroq kuzatiladiki, jamiyatning ayrim boy-badavlat kishilari intellektual mulk rolini ochiqdan-ochiq rad etish barobarida boshqalarni shunga da'vat etishga urinadi. Chet elda esa buning aksini ko'ramiz. Sababi bunday tizim va infratuzilma ishga tushib ketsa, ko'plab «uddaburon tadbirkor»larning bojxona, soliqchilar ko'zini shamg'alat qilish hisobiga boyib qolishi, yengil-yelpi yo'l bilan daromad olishi barham topadi. Bundan anglashiladiki, ayrim biznes kishilari, uyushgan guruhlar intellektual mulk sohasida kutilayotgan islohotlarga, demakki, milliy iqtisodiyotning rivojiga turli darajada to'sqinlik qilishga har jihatdan intiladi. Misol uchun, yiliga 10 milliard so'mlab daromad olayotgan CD, DVD disklari sotiladigan «qaroqchilik» bozori qonunga itoat qilmayotgani ham shundan dalolat.

Demak, aytish mumkinki, intellektual mulk — o'n minglab ixtirochilarning jasorat maydoniga aylanib borayotir. Bu haq gap. Binobarin, intellektual mulk yuqori texnologiya va o'ta iqtidorlilar biznesiga kiradigan o'n minglab intellektuallarning fundamental instrumenti hamdir. AQSh, Shvesiya, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Malayziya

va boshqa iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar intellektual mulk instrumentidan jahon pul oqimini qayta taqsimlash maqsadida foydalanadi.

O'zbekistonda Moliya vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi mutasaddilari Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan birgalikda bozor iqtisodiyoti sharoitida navbatma-navbat bilimlar iqtisodiyoti tizimini barpo etishga doir Strategik dasturlarini tayyorlab borishi maqsadga muvofiq. Bunday dasturlar tezroq ishga tushirilmasa, vaqt hamda imkoniyatdan yutqazamiz. Yurtimizda aniq fanlarda ilmiy maktablar davomchilari sanoqli bo'lsada hozircha borligi va ularning astoydil harakati eng muhim yutuq'imizdir. Buning aksi bo'lsa, o'n yildan so'ng bunday yaxshi imkoniyat qo'ldan boy berilishi mumkin.

Muhim vazifalar o'z yechimini kutmoqda

Masalaga nega bunchalik jiddiy va kuyunchaklik bilan qaramoqdamiz? Gap shundaki, birinchidan, biz dunyo yurgan iqtisodiy yo'ldan qadam tashlar ekanmiz, ilm-fan, bilim, innovatsiyaga doir muammolarni ko'z oldimizga keltirishimiz, undan cho'chimasligimiz lozim.

Ikkinchidan, O'zbekiston Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishni mo'ljallab turibdi, agar masala hal bo'lsa, yetakchi ishlab chiqarish korxonalari, xususan, milliy iqtisodiyotning xom ashyosiz sektorida ancha murakkab vaziyat yuzaga keladi.

Bizningcha, murakkab ahvoldan qutulishning yo'llari quyidagilardan iborat: birinchidan, barcha sanoat korxonalarini rahbarlari intellektual mulkni ommaviy rad etish, uni chetlab o'tib ketish psixologiyasidan butunlay voz kechishi kerak.

Ikkinchidan, intellektual mulk hisobiga qurilgan biznes g'oyalarni joriy etish jarayonini boshidan oxirigacha rag'batlantirib borish tizimini yaratish lozim. (Mualliflarni mukofotlar berish yo'li bilan moddiy rag'batlantirish ham katta

ahamiyatga ega. 1991 yilga qadar ixtirolar uchun bir marta beriladigan rag'batlantiruvchi mukofot va asosiy mukofot belgilash amalda qo'llanilgan).

Uchinchidan, «Nomaterial aktivlar hisobi» ro'yxatini kengaytirish, unga eng kamida «nou-xau» — «ishlab chiqarish sirlari»ni ham kiritish zarur.

To'rtinchidan, yetakchi davlatlar tajribasidan kelib chiqib, innovatsion loyihalar uchun uzoq muddatga jalb etiladigan mablag'larga soliq imtiyozlari berilishi maqsadga muvofiq. Mazkur imtiyozlar kelgusida ortig'i bilan qaytib kelishi bilan birga, O'zbekistonda biznesning ildam o'sishiga, budjet sur'atining sezilarli ko'payishiga olib keladi. Qaroqchilik mahsulotlari bozori (CD, DVD disklar savdosi)dan budjetga mablag' kelib tushish tushumini oshirishni ham jiddiy o'ylab ko'rish fursati yetdi, nazarimizda. O'zbekiston Respublikasi Adabiy va badiiy asarlarni himoya qilish Bern konvensiyasiga a'zo bo'lgan hamda 2006 yil 22 iyunda «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida»gi Qonunning yangi tahriri qabul qilinganligi munosabati bilan respublikamiz hamda chet el mualliflarining huquqlarini, shuningdek, yaratilgan asarlarni noqonuniy takrorlash — litsenziyasiz mahsulotdan himoya qilish oldimizda turgan eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolayotir. Tarmoqlararo ishlash mexanizmi hanuzgacha yo'q. Natijada yurtimiz bozorlarida mualliflar bilan shartnoma tuzmasdan sotuvga chiqarilgan qaroqchilik audio-video mahsulotlari ko'payib, milliy huquq egalriga yetkazilayotgan ma'naviy va iqtisodiy zarar hamda davlat xazinasiga to'lanmayotgan soliqlar katta summani tashkil etmoqda.

Iqtisodchilar uzoq yillar mobaynida ba'zi mamlakatlarda iqtisodiyot boshqalarnikiga qaraganda nega jadal rivojlanishini tushuntirishga, boshqacha aytganda, nega ayrim davlatlar boy-badavlat, boshqalari esa kambag'al ekanligini isbotlashga harakat qilib keladi. Bilamizki, so'nggi paytlarda iqtisodiyotning rivojida bilim va ixtirolar, shubhasiz, muhim rol

o'ynamoqda. Mashhur iqtisodchi Pol Romerning ta'kidicha, bilimlarni to'plash iqtisodiy o'sishni harakatga keltiruvchi kuchdir. Uning nazariyasiga ko'ra, iqtisodiy siyosatda o'sishni osonlashtirmoqchi bo'lsangiz, mamlakat yangi tadqiqotlar va ishlanmalarga investitsiyalarni ko'paytirib borishi lozim. Ilm, fan va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yilining imkoniyatidan unumli foydalanib, keyingi besh yilda matematika, kimyo, biologiya, farmasevtika, axborot texnologiyasi kabi ustuvor yo'nalishlardagi ixtirolarga 20 yilga patent himoya hujjati olingan intellektual mulk ob'ektlari (asosan, ixtirolar va foydali modellar) tezda xatlovdan o'tkazilishini taklif etamiz. Chunki ko'plab ixtirolar joriy etilishi kechikkani bois qaysi yo'llar bilandir chet elga chiqib ketishi kuzatilmoqda. Xatlov xulosalaridan masalaning real holati ayon bo'ladi. Shunda soha ekspertlari aniqlagan eng yaxshi ixtirolar, foydali modellar 2020 — 2025 yillarning davlat dasturlariga kiritilishi, maqsadli moliyalanishi, yil yakunida mustaqil ekspertlar rahbariyatga hisobot kiritishi kerak. Shuni qayd etish lozimki, isqtiqbolli ixtironi joriy etishga olimlarning sa'y-harakati ham, mablag'i ham yetishmaydi va uni davlat to'liq zimmasiga olishi darkor. Axborotlashgan jamiyatda ixtirolar texnologiyasi hamda qo'llash mexanizmi 2-3 yilda eskirib qolishini hisobga olsak, bu masalani tezlikda hal etish lozim.

Yana bir nechta takliflar: sanoat korxonalaridagi patent bo'limlari va konstruktorlik byurolarini qayta tiklash; OTM-da «Patentshunoslik» va «Innovatsiya menejmenti» mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlashni amalga oshirish; Intellektual mulk agentligida ixtirochilik, foydali model, tovar belgilari va brend mahsulotni tayyorlash texnologiyasi o'qitiladigan bir oylik pullik malaka oshirish kurslarini ochish maqsadga muvofiq.

XXI asr — intellektual boylik hukmronlik qiladigan asr ekanligini hisobga olsak, bu amaliy takliflar o'zini har jihatdan oqlashiga ishonamiz.

O'zbekiston Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish harakati-da ekan, davlat hokimiyat tizimi bilan iqtidorli olimlar, ishlab chiqaruvchilar, tovarlar va xizmat ko'rsatuvchi tizimlar tashkiliy, psixologik chora-tadbirlarni amalga oshirib, platforma yaratgan holda, axborot almashib turishi lozim. Bu vazifani Innovatsion rivojlanish va Adliya vazirliklari o'z zimmasiga olishi kerak.

Xulosa o'rnida aytganda, O'zbekistonda intellektual mulk tizimini zamon talabi asosida qayta ko'rib chiqish va rivojlantirish payti keldi. Qolaversa, bu istiqbolli soha aqlni pulga hamda an'anaviy iqtisodiyotni raqamli iqtisodiyotga aylantirish poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, «Intellektual mulk hi-moyasini mustahkamlay olsak, bu ham uchinchi Renessansga ishonchli poydevor bo'ladi».

Dilshod Ulug'murodov yozib oldi.

Manba: "Xalq so'zi" gazetasi, 2021 yil 17 aprel <https://xs.uz/uzkr/post/intellektual-mulk-aqlni-pulga-aylantiradi>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. 1031-1111 moddalar. T.: 1997.
2. Djumaxodjaev A. Patentshunoslilik. Darslik. T.: 2001.
3. Amonov B. va boshqalar. Normativ huquqiy hujjatlar to'plami. elektron kitob. T.: 2009. 948 b.
4. Osnovi izobretatelstva i patentovedeniya. (Bakalavriat i magistratura). Uchebnoe posobie Kravchenko I.N., KnoRus, 2020.

Qo'shimcha adabiyotlar

5. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.- T.: O'zbekiston, 2020.
6. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. -T.: O'zbekiston, 2021. 446 b.
7. Amonov B., Yermolaeva V., Karimova S. O'zbekiston Respublikasining istiqbolli ixtiroolari. Toshkent: O'zR DPI, 2009. 56 bet.
8. Omonov B. Intellektual mulk tizimidan nimani kutmoqdamiz? <https://uza.uz/10.11.2020>.
9. Omonov B. Intellektual mulk aqlni pulga aylantiradi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2021 yil 17 aprel.
10. Kommersializatsiya intellektualnoy sobstv.: Monograf. /VI.Muxopad - M.: Magistr,NIS INFRA-M, 2019. -512s.

Xalqaro hujjatlar:

11. Butunjahon Intellektual Mulq Tashkilotini ta'sis etadigan Konvensiya. T.: IPS. NORMA. 1967.
12. Sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij Konvensiyasi. T.: IPS. NORMA.1883.
13. Belgilarni xalqaro ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida Madrid Bitimi. T.: IPS. NORMA.1967.
14. Patent kooperatsiyasi to'g'risida Shartnoma. T.: IPS. NORMA. 1970.
15. Tovar belgilari bo'yicha qonunlar to'g'risida Shartnoma. T.: IPS. NORMA.1994.

16. Xalqaro patent tasnifi to'g'risida bitimi. T.: IPS. NORMA.1971.

17. Belgilarni ro'yxatga olish uchun tovarlar va xizmatlarni xalqaro tasniflash to'g'risida Nissa bitimi. T.: IPS. NORMA.1957.

18. Adabiyot va badiiy asarlarni himoya qilish to'grisidagi Bern konvensiyasi. T.: IPS. NORMA.1971.

19. Sanoat namunalarning xalqaro tasnifini ta'sis etish to'g'risida Lokarno bitimi. T.: IPS. NORMA.1968.

20. Patent huquqi to'g'risida Shartnoma. T.: IPS. NORMA. 2000.

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari:

21. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. T.: IPS. NORMA. 1997 .

22. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi. T.: IPS. NORMA. 1998.

23. O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida" qonuni.T.: IPS. NORMA. 2006.

24. O'zbekiston Respublikasining "Ixtirolar, foydali model-lar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonuni. T.: IPS. NOR-MA.2002.

25. O'zbekiston Respublikasining "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'ri-sida" qonuni. T.: IPS. NORMA. 2001.

Monografiyalar va maxsus adabiyotlar:

26. Cherkasova O. V. Zashita intellektualnoy sobstvennosti : ucheb. posobie / O. V. Cherkasova ; M-vo obrazovaniya i nau-ki Ros. Federatsii, Ural. feder.un-t.-Yekaterinburg: Izd-vo Ural. un-ta, 2017. -102 s.

27.Osnovi nauchnix issledovaniy i patentovedenie: ucheb.-metod. posobie/ Novosib. gos. agrar. un-t. Injener. in-t; sost.: S. G. Shukin, V. I. Ko chergin, V. A. Golovatyuk, V. A. Valkov.– Novosibirsk: Izd-vo NGAU. 2013.– 228 s.

28.Suzdalsev A.I. Osnovi injenernogo tvorchestva i pa-tentovedeniya: uchebnoe posobie dlya vuzov: v 2 ch. Ch. 2: Osnovi patentnogo zakonoda- telstva / A.I. Suzdalsev. – Orel: OrelGTU, 2010. – 89 s.

29. Toshev B. Xalqaro tashkilotlarning mualliflik huquqiga oid aktlarining huquqiy maqomi.-T.: Voris-Nashriyot, 2007
30. Nasriev I. Shaxsiy nomulkiy huquqlarni amalga oshirish va muhofaza qilishning fuqarolik-huquqiy muammolari.-T.: -G'G'ulom, 2006.
31. Nasriev I. Muallifning shaxsiy huquqlarini himoyalash.-T.: Mehnat. 2003.
32. Oqyulov O. Intellektual mulk huquqiy maqomining nazariy va amaliy muammolari. -T.: TDYuI. 2004.
33. Oqyulov O. Intellektual mulk huquqi: umumiy qoidalar va alohida ob'ektlar. Darslik. TDYuI. -T.: 2003.
34. Oqyulov O. Intellektual mulkning huquqiy maqomi. Doktorlik dissertatsiyasi.-T.:2000.
35. Muminov A. O'zbekiston va YuNESKOning xalqaro-huquqiy munosabatlari. -T.:Yangi asr avlodi, 2003.
36. Raxmonov Sh. Priznanie rezolyusiy mejdunarodnix organizatsiy v kachestve istochnika mejdunarodnogo prava. T.: -2007.
37. Xudayberdieva G. Turdosh huquqlarni fuqarolik-huquqiy muhofaza qilish muammolari. -T.: 2006.
38. Amonov B., Ergasheva F. O'zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasi islohot yo'lida. T.: O'zR DPI, 2011. 54 bet.
39. Intellektual mulk fani bo'yicha o'quv dasturi. Adliya vazirligi Yuristlar malakasini oshirish markazi. T.: 2020.
40. Salixov A. Patentshunoslilik, litsenziyalash va sertifikatlash. Darslik. T.: 2013.

Axborot manbalari:

- www.president.uz – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti
- www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.
- www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
- www.natlib.uz – Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi
- www.ziyonet.uz – Ta'lim portali.
- www.ziyouz.uz – Fan va ta'lim portali.
- www.nuu.uz – O'zbekiston milliy universiteti portali
- www.ima.uz – Intellektual mulk agentligi portali

Baxtiyor Omonov

**PATENTSHUNOSLIKKA
KIRISH**

Uslubiy qo'llanma

“Universitet” nashriyoti. Toshkent, 2022.

Nashriyot litsenziyasi 10.05.2011 y. AI №187.

Muharrir	Akbar O'tamurodov
Rassom	Uyg'un Solih
Texnik muharrir	Yusuf Muzaffar
Musahhih	Flora Razzoqova
Sahifalovchi	Ro'zman Alimov

Bosishga ruxsat etildi 22.12.2021y. Bichimi 84x108, 1/32.
Ofset qog'ozi. Cambria garniturasida. Shartli bosma tabog'i 12,1.
Adadi 100 nusxa. Shartnoma raqami № 2.
Bosmaxona buyurtma raqami № 6.

«Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi»
bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahar, Foziltepa ko'chasi, 22-b uy.